



YOSTEYN  
GORDER

# APELSIN QIZ

JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**GORDER YOSTEYN**

# **APELSIN QIZ**

*Qissa va hikoya*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
2020

UO‘K: 821.113.5-3

KBK 84(4Nor)

Y 51

Tahrir hay’ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A’zam,  
Xurshid Do’stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo’raqulov, Ulug’bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo’rayev**

Tarjimonlar:

**K.NOSIROVA, D.ARZIKULOVA**

**Yosteyn, Gorder.**

Y 51 **Apelsin qiz.** [Matn]: qissa va hikoya / Gorder Yosteyn; tarjimonlar:  
K. Nosirova, D. Arzikulova. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6339-9-5

Hali farzandi ulg’aymasdan turib dunyodan o‘tgan ota farzandiga maktub qoldiradi. Bu xatni oradan o‘n bir yil o‘tgandan keyin marhumning onasi topib oladi va uni nabirasiga beradi.

Bu maktubda ota nafaqat o‘zining turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan muhabbati haqida balki insoniyatni o‘ylantiradigan juda ko‘p muammolarga javob izlaydi.

Shuningdek, ushbu to‘plamdan Yuxan Falkbergetning „Qismat“ hikoyasi ham o‘rin olgan.

**UO‘K: 821.113.5-3**

**KBK 84(4Nor)**

ISBN 978-9943-6339-9-5

© K. Nosirova D. Arzikulova. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqi-shar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folknor, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## **APELSIN QIZ**

Otam o‘n bir yil avval vafot etgan. O‘shanda to‘rt yoshda edim. Bir kun kelib u menga o‘zi haqida xabar beradi, deb o‘ylamagandim, vaholanki, biz bu kitobni birgalikda yozyapmiz.

Bu – kitobimizning muqaddimasi, uni men yozyapman, otam biroz keyin qo‘shiladi. Har qalay, asosiy hikoyachi – u.

Uni yaxshi eslay olaman, deb aytolmayman. Suratlarini ko‘p tomosha qilganman. U menga yulduzlarni ko‘rsatgan ayvondagi voqeanigina xotirlayman.

Suratlardan birida otam bilan mehmonxonamizda sariq charmli divanda o‘tiribmiz. U menga qiziq narsalarni gapirayotgan bo‘lsa kerak. Divan haligacha biznikida turibdi, lekin endi unda otam yo‘q.

Boshqa suratda oynavand ayvonda, yashil tebranma kursida birga o‘tiribmiz. Bu surat otam o‘lgandan beri biznikida osig‘liq turibdi. Men hozir ham o‘sha yashil tebranma kursida o‘tiribmsan. Tebranmaslikka urinyapman, chunki katta bloknotga yozyapman. Keyin hamma yozganlarimni otamning eski kompyuterida terib chiqaman.

Shu kompyuter haqida ham bir nimalarni gapirib bersam bo‘ladi, ammo bu mavzuga hali qaytaman.

Meni har doim eski suratlar taajjubga soladi. Ular boshqa davrga tegishli, biznikiga emas.

Otamning suratlari yig'ilgan katta albomni saqlayman. Tiriklar orasidan ketgan odamning suratlarini tomosha qilish biroz vahimaliroq. Otam videoga ham olingan. Meni uning ovozi cho'chitadi negadir. Baland, guldirak.

Menimcha, marhum yoki buvim aytgandek, oramizda yo'q odamni video orqali ko'rishni taqiqlash kerak. O'liklarni kuzatish kerakmas.

Kassetalardan birida mening ovozim ham yozilgan. Ingichka va chiyildoq. Poloponning chiyillashini eslatadi.

O'shanda biz shunday gapirganmiz: otam yo'g'on, men ingichka ovozda.

Suratlardan birida otamning yelkalarida o'tirib, arxadagi yulduzni uzib olishga urinayotganim ko'rinib turibdi. Bir yoshlardaman, tabiiyki, uni salgina qimirlata olaman, xolos.

Onam gohida kassetada otam ikkovimizni ko'rganda, o'zi bizni suratga olgan bo'lsa ham, orqaga tisarilib xaxolab kuladi. Menimcha, u otamni ko'rganda bekor kuladi. Bu narsa unga yoqardi, deb o'ylamayman. U hoynahoy, qoidalarni buzyapsan, degan bo'lardi.

Boshqa kassetada otam bilan pasxa ta'tili paytida Fellstyolendagi uyimiz yonida quyoshda o'tiribmiz. Ikkalamizning qo'limizda yarimtdan apelsin. Men o'zimning hissamni tozalamay, sharbatini so'rishga urinayapman. Otam esa ishonchim komilki, butkul boshqa apelsinlar haqida o'ylayapti.

O'sha pasxadan keyinqoq otam kasal bo'lib qoldi. U yarim yildan ortiq betob bo'lib yurdi, o'limdan qo'rqardi. Menimcha, o'lishini bilardi.

Onam otam meni yaxshiroq bilib olishga ulgurmay o'lishidan, ayniqsa, qayg'urganini ko'p gapiradi. Buvim ham shunga o'xshash gaplarni aytadi, lekin ohanjamaliroq qilib. U men bilan otam haqida gaplashganda, ovozi qandaydir g'alati bo'lib qoladi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Axir bobom ikkalasi to'ng'ich o'g'lidan ayrildi. Buning nimaligini hatto tasavvur qilish ham qiyin. Yaxshiyamki, yana bitta o'g'illari bor. Ammo buvim otamning eski suratlarini ko'rganda, sira kulmaydi. Hurmat bilan qaraydi. O'zi shunday deydi.

Otam bor-yo'g'i uch yarim yoshdagi bola bilan jiddiy gaplashib bo'lmaydi, deb qaror qilganga o'xshaydi. Bugun-ku, uning nimani nazarda tutganini tushunaman, siz ham, bu kitobni o'qiyotgan o'quvchi, yaqinda tushunib olasiz.

Menda otamning kasalxonadayoq olingan surati bor. Bu suratda u rosa ozib ketgan. Men uning tizzasida o'tiribman, u esa ustiga yiqilib tushmasligim uchun qo'llarimdan tutib turibdi. Jilmayishga urinyapti. Surat o'limidan ikki hafta avval olingan. Uning menda bo'lmagani yaxshiydi, ammo bor ekan, tashlab yuborolmayman. Lekin qarolmayman ham.

Hozir yoshim o'n beshda, aniqroq aytadigan bo'lsam, o'n besh yosh-u uch haftalikman. Ismim Georg Ryoed, Oslodagi Xyumleveyenda onam, Yorgen va Miriam bilan yashayman. Yorgen – yangi otam, ammo men uni shunchaki Yorgen deb atayman. Miriam – mening singilcham. U atigi bir yarim yoshda, gaplashishga hali juda kichkinalik qiladi.

Miriamning otam bilan tushgan surati ham, videokassetadagi tasviri ham yo'qligi tushunarli. Axir uning



otasi Yorgen-ku. Otamning mendan boshqa bolasi bo'lmagan.

Shu kitobning so'ngida siz Yorgen haqida hayratlanarli bir narsani bilib olasiz. Hozircha bu haqda gapirishga erta, lekin kitobni oxirigacha o'qib chiqqan odam hammasini tushunadi.

Otamning o'limidan so'ng bobom bilan buvim biznikiga kelishdi va onamga otamning narsalarini yig'ishtirishga yordam berishdi. Ammo arziqli narsa topisholmadi. Muhimi – otam kasalxonadan olib ketishlaridan oldin yozgan uzun hikoya.

Umuman olganda, u paytda otamning qandaydir hikoya yozganini hech kim xayoliga ham keltirmagan. Apelsin qiz haqidagi voqea mana shu dushanbadagina yuzaga chiqib qoldi. Buvim asboblar saqlanadigan omborxonaga kirdi-yu, men kichkinaligimda uchgan qizil poyga mashinasining qoplamasiga yashirilgan shu hikoyani topib oldi. U yoqqa qanday tushib qolganini hech kim bilmaydi. Uch yarim yoshimda otam yozgan hikoyaning poyga avtomobilim bilan bog'liq bo'lishi tasodif emas, albatta. Men hikoya poyga mashinasi haqida, demoqchi emasman, aslo, shunchaki otam uni men uchun yozganini ta'kidlab qo'ymoqchiman. Otam Apelsin qiz haqidagi voqeani men katta bo'lganimda o'qib, tushuna oladigan darajada yozgan.

U kelajakka maktub yozgan.

Otam bu sahifalarni qachonlardir eski poyga avtomobilining qoplamasiga solgan ekan, demak, xatlar egasiga yetib borishiga shubha qilmagan bo'lsa kerak. Menimcha, eski narsalarni shara-barachilarga topshirish yoki chiqindi qutisiga tashlashdan avval yaxshilab tekshirib ko'rish kerak.

Oxirgi kunlarda xayolimni bir o'y band etgan. Menimcha, kelajakka maktub jo'natishning bolalar mashinasining qoplamasiga yashirishdan ko'ra oddiyroq yo'lini topsa bo'lardi. Xatlarni oddiy yoki elektron pochta bilan jo'natganimizda, biz faqat manzilni yozamiz. Pochta yoki e-mail orqali yuborilgan xat egasiga qachon yetib borishi bizga ma'lum emas. Bill Geys<sup>1</sup> bu haqda o'ylab ko'rsa bo'larkan. Vindousning keyingi variantiga bu amalni qo'shishga hali kech bo'lgani yo'q.

Ba'zan, kamdan kam bo'lsa ham, kimdir nomamizni to'rt soat yoki o'n to'rt kun yoki qirq yildan so'ng o'qishini istaymiz. Apelsin qiz haqidagi hikoya xuddi shunday noma edi. U o'n ikki yoki o'n to'rt yoshli Georg degan bolaga, ya'ni otasi ko'rmagan va ko'ra olmaydigan bolaga yozilgan edi.

Ammo ana endi hikoyamni chindan ham boshlaydigan payt keldi.

Yaqinda musiqa maktabidan uyga kelganimda, bobom bilan buvinga duch keldim. Ular Tyonsbergdan „syurpriz“ qilib kelib, ertalabgacha biznikida qolishmoqchi ekan.

Onam bilan Yorgen ham uyda bo'lib, xollda ko'rinishimni va etiklarimni yechishimni sabrsizlik bilan kutishardi. Etiklarim loy va ho'l edi, lekin hech kim bunga e'tibor bermadi. Ularning fikru xayoli boshqa narsa bilan band edi. Men darrov bir ko'ngilsizlikni payqadim.

<sup>1</sup>Bill Geys – amerikalik milliarder. U zamonaviy kompyuter dasturlarining ilk kashfiyotchi va amaliyotchilaridan sanaladi, xususan, butun dunyoda keng foydalaniladigan „Vindous“ amaliyot tizimi (Windows OS) Bill Geysning „Maykrosoft“ kompaniyasiga tegishli.

Onam Miriamning uxlab qolganini shunday ohangda aytdiki, bobom bilan buvimning tashrifidan hech qanday yaxshilik kutmasa ham bo'lishini anglatganday bo'ldi. Axir ular unga bobo va buvi emas-ku. O'zining bobo-buvisi bor. Ular ham yaxshi, biznikiga kelib turishadi, lekin qon tortadi, deyishadi-ku.

Men mehmonxonaga kirib gilamga o'tirganda, hammalarining yuzi biror jiddiy narsa sodir bo'lganday salobatli edi. Ammo maktabda oxirgi paytlarda tanbeh eshitmayotgandim, musiqa maktabidan uyga o'z vaqtida kelayotgandim, so'nggi marta oshxona stolidan o'ntalikni o'marganimdan beri ham bir necha oy o'tib ketdi. Shuning uchun ularga bemalol: „Gapiringlar!“ dedim.

Buvim otam menga o'limidan biroz avval yozgan xatni topib olishganini tushuntirdi. Ichimda bir narsa achishib ketdi. Otam o'n bir yil avval vafot etgan. Uni eslay olishimga ishonchim komil ham emas hatto. „Otamning maktubi“, bu – dahshatli darajada balandparvoz, hatto vasiyatnomadan ham ulug'vorroq eshitilardi.

Shunda buvimning tizzasida katta konvert turgani ni payqadim, uni menga uzatdi. Konvert yopishtirilgan, ustiga bittagina so'z: „Georgga“ deb yozilgan edi. Dastxat buvimniki, oyimniki yoki Yorgenniki ham emasdi. Men konvertni ochib, semizgina bir dasta qog'ozni chiqardim. Seskanib ketdim, chunki birinchi sahifaning tepasiga shunday deb yozilgandi:

*„Qulayroq o'tirib ol, Georg. Qulayroq joylashib olishingni istayman, chunki senga ta'sirli bir voqeani aytib bermoqchiman“*

Boshim aylanib ketdi. Bu nimasi? Otamning maktubi? Haqiqiy mi?

„*Qulayroq o'tirib ol, Georg*“. Otamning guldirak ovozi eshitganday bo'ldim, bu videoyozuv emasdi, uning ovozi xuddi u tirilib, biz bilan mehmonxonada o'tirganday eshitdim. Konvert men ochguncha yopishtirilgan holicha turgan bo'lsa-da, baribir, kattalardan bu xatni o'qishgan-o'qishmaganini so'radim, hammalari bosh chayqashdi, hatto bir satr ham o'qishmaganini aytishdi.

– Bitta harfini ham, – Yorgenning ovozida bu odamga sira xos bo'lmagan o'ng'aysizlik sezildi. – Balki o'zing o'qib bo'lganingdan so'ng bizga xatni o'qishga ruxsat berarsan.

Xatda nimalar yozilgani unga juda qiziq edi, shekil-li. Negadir uning vijdoni unchalik toza bo'lmasa kerak, deb o'yladim.

Buvim tushdan so'ng mashinaga o'tirib Osloga g'irillab kelishganini aytdi. Unga bir jumboq yechilganday tuyulgani uchungina. Bu sirli eshitaladi, ammo chindan ham shunday.

Otam kasal yotganida, onamga ulg'ayganimdan so'ng o'qishim kerak bo'lgan xat yozayotganini aytgan. Ammo ular hech qanday xat topisholmagan, men esa, allaqachon o'n beshga to'lib bo'ldim.

Bu voqeadagi yangilik shu ediki, buvim kutilmagan-da otamning boshqa so'zlarini ham eslagan. U o'shanda mening qizil poyga mashinamni tashlab yubormaslikni buyurgan ekan. Buvim otamning kasalxonada yotganda aytganlarini so'zma-so'z eslaganday bo'lgan. „Georgning poyga avtomobilini hech qachon tashlab yubor-

manglar, – degan u. – Aslo, sizlardan o‘tinaman. U so‘nggi oylarda Georg ikkimiz uchun juda qimmatli bo‘lib qoldi. Georg bu avtomobilni saqlab qo‘yishini istayman. Bir kun unga aytib bering. Bu avtomobilni nega asrab qo‘yishni so‘raganimni tushunishi uchun bir kun aytib bering“.

Xuddi shuning uchun eski poyga avtomobilimni tashlab yuborishmagan. Hatto Yorgenga ham bu haqda qattiq tayinlashgan. Xyumleveyenda biznikiga ko‘chib kelganda, uning faqat bir narsaga tegishga haqqi bo‘lmagan: qizil poyga avtomobilimga. Bu narsaga shunchalik hurmat bilan qarardiki, uning qistovi bilan Miriamga boshqa, yangi avtomobil sotib olishdi. Balki unga ko‘p yillar otam meni olib yurgan avtomobilda qizini olib yurish yoqmagandir. Lekin u shunchaki po‘rimroq avtomobil sotib olishni istagan bo‘lishi ham mumkin. U modaga berilgan.

Shunday qilib, *xat va poyga avtomobili*. Bu jumboqni yechish uchun buvimga o‘n bir yil kerak bo‘ldi. Kimdir jur‘at topib, omborda saqlanayotgan eski avtomobilimni yaxshilab ko‘zdan kechirishi kerakligini endi tushunibdi. Adashmabdi. Avtomobil shunchaki avtomobil emas, pochta qutisi ekan.

Bu voqeaga ishonishimni ham, ishonmasligimni ham bilmasdim. Ota-onalar, buvalar va buvilar haqiqatni gapirayotganini hech qachon bilolmaysan, ayniqsa, buvim aytganidek, „nozik masalalar“da.

Bugun men uchun eng katta jumboq shundaki, nima uchun o‘n bir yil avval otamning eski kompyuterida nima saqlanayotganiga qiziqib ko‘rishga hech kimning aqli yetmagan? Axir otam bu xatni o‘shanda yozgan-ku! To‘g‘ri, ular kompyuterni ochishga urinib ko‘rish-

gan, ammo parolni topishga zehnlari yetmagan. U ko'pi bilan sakkizta harfdan iborat edi, o'sha paytlarda kompyuterlar shunday edi. Ammo hatto onam ham parolni topolmagan. Eplay olishmagan. Shuning uchun kompyuterni chordoqqa chiqarib qo'ya qolishgan! (Otamning kompyuteriga hali yana qaytaman).

Endi otamga ham so'z berish vaqti yetdi. Vaqti-vaqti bilan uning hikoyasini izohlar bilan to'ldirib boraman. Keyin so'ngso'z yozaman. Shunday qilishim kerak, chunki otam uzun xatida menga jiddiy bir savol bergan. Javobim uning uchun katta ahamiyatga ega.

Men bir shisha kola bilan otamning maktubini olib, xonamga kirib ketdim. Har ehtimolga qarshi eshikni ichkaridan qulflab qo'yganimda, oyim e'tiroz bildirdi, lekin ko'p o'tmay qarshilik qilish befoydaligini tushundi.

O'lgan odamning xatini o'qishda qandaydir sirlilik, aytish mumkinki, e'zozli nimadir bor, shu bois hamma yaqinlarim atrofimda aylanib yurishlariga yo'l qo'yolmasdim. Nima bo'lganda ham, bu o'n bir yil avval vafot etgan otamning maktubi edi. Yolg'izlik menga juda zarur. Bu uzun qo'lyozmani qo'lda ushlab turish g'alati, men xuddi otam bilan birga tushgan, hali o'zim ko'rmagan suratlarim yig'ilgan yangi albom topib olgandek edim. Deraza ortida qor bo'ralab yog'ardi. Qor men musiqa maktabidan uyga qaytayotganimda yog'a boshlagandi. Ammo, menimcha, bu qor erib ketadi. Hozir noyabrning boshi-ku.

Karavotga o'tirib, o'qishga kirishdim.

*„Qulayroq o'tirib ol, Georg. Qulayroq joylashib olishingni istayman, chunki senga ta'sirli bir voqeani aytib bermoqchiman. Balki sen allaqachon sariq charmi divanda bemalol joylashib o'tirib olgandirsan? Agar*

*albatta uni yangisiga almashtirmagan bo'lmasanglar, lekin men buni bila olmayman. Xuddi shu singari seni qishki bog'dagi o'zing yaxshi ko'rgan eski tebranma kursida tasavvur qilishim mumkin. Yoki hozir ayvonda o'tiribsanmi? Axir men hozir yilning qaysi fasli ekanini bilmayman. Balki sizlar Xyumleveyenda yashamayotgandirsizlar?*

*Kim bilsin?*

*Men hech nimani bilmayman. Norvegiyaning bosh vaziri hozir kim? BMT bosh kotibining ismi nima? Va yana: Xabbl teleskopi bo'yicha ishlar qanday ketyapti? U haqda biror nima bilasanmi? Ehtimol, astronomlar Koinotimiz tuzilishiga oid yangi narsa topishgandir?*

*Kelajakni tasavvur qilishga ko'p urindim, lekin biror marta sening taxminiy qiyofangni, sening davring obrazini ko'z oldimga keltira olmadim. Men faqat sening kimligingni bilaman. Ammo buni o'qigan payting yoshing nechada bo'lishini bilmayman. O'n ikki, o'n to'rt? Axir men, sening otang, allaqachon tiriklar orasidan ketganman.*

*Rostini aytganda, men o'zimni hozirdanoq arvohday his qilyapman, har gal shu haqda o'ylaganimda, bo'g'ilib ketyapman. Arvohlar nega shamolning uvillashiga taqlid qilib guvillashi va uvlashini tushuna boshladim. O'z avlodlarini qo'rqitish uchun emas. Shunchaki o'zlari yashagan davrdan boshqa har qanday davrda nafas olish ularga og'ir. Bizga hayotda ma'lum joygina berilib qolmagan, bizga ma'lum vaqt ham berilgan.*

*Ishlar shunaqa, mening asosim faqat o'zim yashayotgan davrda bo'lishi mumkin. Hozir 1990-yilning avgusti.*

*Bugun – men buni o'qiydigan vaqtingni nazarda*

tutyapman – uch yarim yoshligingda yozning iliq oylarida birga o'tkazgan damlarimizning barini unutkan bo'lsang kerak. Lekin zamon hamon bizga tegishli va biz hali ko'p yoqimli damlarni birga o'tkazamiz.

Senga so'nggi kunlarda ko'p o'ylagan narsamni oshkor qilmoqchiman: birga o'tkazilgan har bir kun, ikkalamizni qiziqtirgan har bir mayda-chuyda meni eslab qolishingga yordam beradi. Endi men kunlar va haftalarni sanay boshladim. Yakshanba kuni sen bilan Tryuvannstornet kuzatuv maydonchasida yarim qirollikni tomosha qilgandik, ko'z oldimizda Shvetsiyaga qadar kengliklar namoyon bo'lgandi. Onang ham biz bilan, uchovimiz birga edik. Ammo o'sha kun sening esingdamikan?

Agar eslolmasang, eslashga urinib ko'r, Georg. Iltimos, urinib ko'r, axir bularning bari sening qayeringdadir saqlanyapti-ku.

Katta temir yo'lingni eslay olasanmi? Sen hali u bilan uzoq o'ynaysan. Men polga qarayapman. Shu daqiqada relslar, poyezd, paromlar xollning har yerida sen qanday qoldirgan bo'lsang, shundayligicha yoyilib yotibdi. Bog'chaga kech qolmaslik uchun seni o'yindan ajratib olishga to'g'ri keldi. Ammo qo'llaring hamon shu yo'l qismlariga teginib turibdi. Men birorta relsni surishga botinolmayman.

Biz yakshanba kunlari turli o'yinlar o'ynaydigan kompyuter-chi? Kompyuter yangiligida mening xonamda turardi, lekin o'tgan hafta uni xollga qo'ydik. Endi menga sening narsalaring yonida bo'lish yoqimli. Oqshomlari sen ham onang bilan shu yerda o'tirasan. Bobong bilan buving avvalgidan ko'proq kelib turishibdi. Bu yaxshi.



*Uch g'ildirakli yashil velosiped-chi? Butkul yangi, chig'anoqlar sepilgan yo'lakda turibdi. Agar uni eslasang, demak, u men tasavvur qilgandek, eskirib, yaroqsiz holga kelib, garajda yoki asboblarning omborxonasida saqlanayotgan bo'lsa kerak. Yoki uning kuni eski bozorda bitdimi?*

*Qizil poyga avtomobiliga nima bo'ldi, Georg? Ha, unga nima bo'ldi?*

*Sognsvann ko'li bo'ylab qilgan sayrlarimizdan xotiralarning qolgan bo'lishi kerak-ku? Fellstyolendagi uyimizga borganlarimiz-chi? Sen bilan uch marta ketma-ket pasxaga o'sha yoqqa bordik. Ammo senga boshqa savol berishga botinmayman, rost, botinmayman, axir sen meniki ham bo'lgan o'sha zamon haqida hech narsa eslolmasliging mumkin. Hammasi qanday bo'lsa, shundayligicha qolsin.*

*Senga bir voqeani aytib berishni va'da qildim, ammo sehrli cho'pning ishorasi bilan to'g'ri ohangni topolmaysan. Men o'zim yaxshi bilaman deb o'ylagan bolakayga murojaat qilib adashib bo'ldim. Lekin bu satrlar senga yetib borganda, sen bolakay bo'lmaysan-ku. Tillarang jingalak sochli bolajon bo'lmaysan.*

*Qari kampirlarday „s-s“lab gapirayotganimni o'zim eshityapman, bu ahmoqlik, axir men o'zim ko'rmagan va yurakdan gaplasholmagan katta Georgga murojaat qilyapman-ku.*

*Soatga qarayapman. Seni bog'chaga olib borib, uyga qaytganimdan beri atigi bir soat o'tdi.*

*Soy yonidan o'tib ketayotganimizda, suvga cho'p yoki tosh tashlash uchun har doim avtomobilingdan tushasan. Bir kuni o'sha yerda gaz suvdan bo'shagan yelim idishni topib, uni ham suvga uloqtirding. Seni to'xtatmadim.*

Endi senga deyarli istagan hamma narsangni qilishga ruxsat berilyapti. Ba'zan bog'chada men bilan xayrlashishni ham unutib, guruhingga yugurib kirib ketasan. Go'yo vaqt meni emas, seni siqib borayotganday. G'alati o'y. Butun hayoti oldinda bo'lgan bolalardan ko'ra keksalarning vaqti ko'proqqa o'xshaydi.

Men, albatta, unchalik qari emasman, bu bilan maqtan olmayman, o'zimga yosh yigit, nari borsa, yosh otaday ko'rinaman. Shunday bo'lsa-da, eng katta orzuyim – vaqtni to'xtatish. Bu kunlar abadiy cho'zilishiga qarshi bo'lmasdim. Oqshomlar va kechalar o'z navbatida o'taversin, chunki sutkalar sutka-da, ularning maromi bor, ammo ertangi kun o'tgan kundan boshlanishi kerak. Menda ko'rgan va his qilganlarimdan ortig'ini ko'rish va his qilish istagi yo'q endi. Faqat borimni tutib qolgim kelyapti juda. Lekin o'g'rilar ko'rinishdi, Georg. Bu chaqirilmagan mehmonlar mening hayotiy kuchlarimni o'g'irly boshlashdi. Sharmandalar!

Shu kunlarda seni bog'chaga olib borish ayniqsa yoqimli va, ayniqsa, og'ir. Chunki harakat qilishim va poyga avtomobilingda seni olib yurishim oson bo'lsa-da, tanam tuzalmas dardga chalinganini bilaman.

Kasalni darrov yotqizadigan shafqatli kasalliklar bor. Yovuz kasallik odamni holdan toydirib, to'shakka mixlash uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi, odatda. Balki, sen mening shifokor bo'lganimni eslolmassan, lekin ishonchim komilki, onang senga men haqimda gapirgan. Hozir shifoxonadagi ishimdan ozodman, lekin nima haqida gapirayotganimni bilaman. Men yengil kasallar qatoriga kirmayman.

Shunday qilib, bizning arifmetik misolimizda yoki so'nggi uchrashuvimizda ikkita zamon bor. Har biri-

*miz o'z cho'qqimizda turib, bir-birimizni yaxshiroq ko'rishga urinayotgandekmiz. Bizni unutila boshlagan vodiy ajratib turibdi, sen hayot yo'lingda uni ortingda qoldirib ketgansan, bu yo'lni mensiz bosib o'tgansan. Shunday bo'lsa-da, hozirgi – men buni yozayotgan, sen bog'chada bo'lgan zamonni ham, bu satrlarni o'qiydigan faqat sening zamoningni ham ushlab turishga harakat qilaman.*

*Tushun, bu xatni yozayotganimda, manguga tashlab ketayotgan o'g'linga yozayotganimda, ichim yonib ketyapti, senga ham uni o'qish qiyin bo'ladi. Ammo sen ulg'ayding. Men bu satrlarni yozishga qodir ekanman, senda ham ularni o'qishga jasorat topiladi.*

*Ko'ryapsanmi, men yaqinda hammasi – quyosh, oy va umuman, hamma narsadan ayrilishimni anglab turibman, vaholanki, eng og'iri – onangdan va sendan ayrilish. Haqiqat shunday, u kuydiradi.*

*Senga juda muhim savol bermoqchiman, shuning uchun ham bularning barini yozyapman. Ammo uni berishdan avval senga Apelsin qiz haqida ta'sirli bir voqeani hikoya qilishim kerak. Bugun, ya'ni bu satrlarni yozayotganimda, bu voqeani tushunishga sen juda kichkinalik qilasan. Yaxshisi, bu mening senga kamtarona merosim bo'la qolsin. Hayotingda boshqa kunni kutib yota tursin.*

*Endi o'sha kun keldi“.*

*Shu yerga kelgach, qo'lyozmadan bosh ko'tardim. Otamni eslashga ko'p uringanman, hozir ham yana bir marta urinib ko'rdim. U mendan shuni so'ragandi. Ammo esimda qolgandek tuyulgan hamma narsani video va suratlarda ko'rgandim.*

*Bolaligimda katta temiryo'lim bo'lgani esimda, am-*

mo bu otamni eslashimga yordam bermadi. Uch g'ildirakli yashil velosiped hamon garajda turibdi, uni ham bolaligimdan beri eslayman, bunga hech qanday shubha yo'q. Qizil poyga avtomobilim ham asboblar omborxonasida turibdi. Ammo men Sognsvann ko'li yonidagi sayrlarni eslolmayman. Otam bilan Tryuvannstornetdagi kuzatuv maydonchasiga ko'tarilganimizni ham eslolmayman. U yerga ko'p marta chiqqanman, lekin otam bilan emas, onam va Yorgen bilan. Bir marta u yerda faqat Yorgen bilan bo'lganman. O'shanda Miriam tug'ilgan, onam tug'ruqxonada yotgandi.

Albatta, Fellstyolendagi uyimizda bo'lganimiz haqida xotiralarim ko'p. Lekin bu xotiralarda otam yo'q. Ularda faqat onam, Yorgen va kichkina Miriam bor. U yerda dala hovlimiz kundaligi bo'lib, otam o'limiga qadar yozgan hamma narsani ko'p marta o'qiganman. Uning yozganlari esimdami yoki buni o'sha kundalikdan bilib olganmanmi, aytish qiyin. Videotasmalar ham, eski fotosuratlar bilan ham xuddi shunday. „Pasxaga Georg bilan qordan fonuslari bor ulkan qorli uy yasadik“. Albatta, men bu yozuvlarning hammasini o'qiganman, ko'pini yoddan bilardim ham. Lekin ularda aytilgan voqealarda o'zim ham ishtirok etganimni umuman eslolmayman. Axir otam bilan o'sha qorli fonuslari bor ulkan qorli uyni qurganimizda, men atigi ikki yarim yoshda bo'lganman. Bizda o'sha uyning surati ham saqlanib qolgan, lekin u shunchalik xiraki, faqat fonuschalari ko'rinib turibdi.

Men endi o'qiy boshlagan uzun xatida otam mendan yana bir narsa haqida so'rabdi:

*„Darvoqe, Georg, Xabbl teleskopi ishlari qanday? U haqda biror narsa bilasanmi? Balki, astronomlar*

*Koinotimiz tuzilishiga oid biror yangilikni aniqlashgandir? "*

Bu satrlarni o'qiganimda, etim jimirlab ketdi: axir men yaqindagina o'sha katta kosmik teleskop yoki inglizcha ataydigan bo'lsak, Hubble Space Telescope<sup>1</sup> haqida insho yozdim. Boshqa o'quvchilar „Spice girls“<sup>2</sup> yoki Roald Dal<sup>3</sup> haqida yozishdi. Men esa kutubxonani titkilab, u yerdan Xabbl teleskopi haqidagi bor ma'lumotni topib, inshomni unga bag'ishladim. Uni yaqindagina o'qituvchimga topshirdim, u esa daftarimga „bunday murakkab mavzuga yetuk, aql bilan va asosli yondashganim“dan xursandligini yozdi. Menimcha, hayotda shu bahodan boshqa hech narsa bilan bunchalik faxrlanmaganman. Xulosaning eng boshida o'qituvchim chiroyli qilib qayd etib qo'yibdi: „Havaskor astronom uchun guldasta!“ U hatto o'sha guldastani ham chizib qo'yibdi.

Balki, otam karomatgo'y bo'lgandir? Yoki u shunchaki tasodifan men insho yozganimdan so'ng Xabbl teleskopi ishlari qanday ketayotganini so'rganmi? Yoki otamning xati haqiqiy masmi? Balki u tirikdir, o'lmaganidir? Yelkamdan muzdek yel yugurib o'tganday bo'ldi.

Uzoq o'ylanib o'tirdim. Xabbl teleskopi „Diskaveri-25“ fazo kemasida yer orbitasiga 1990-yil aprelida chiqarilgandi. Otam xuddi o'sha yil kasalga chalingan – pasxa ta'tilidan ko'p o'tmay. Buni har doim bilganman. Faqat u Xabbl orbitaga chiqarilganda kasal bo'lib qol-

---

<sup>1</sup>Xabbl teleskopi (*Hubble Space Telescope*) – NASA va Yevropa kosmik agentligi hamkorligida yer orbitasiga uchirilgan kosmik teleskop. Unga amerikalik olim, kosmosni o'rganish ishiga katta hissa qo'shgan Edvin Xabbl nomi berilgan.

<sup>2</sup>„Spice girls“ – ingliz estrada guruhi (Buyuk Britaniya).

<sup>3</sup>Roald Dal – taniqli ingliz yozuvchisi.

gani haqida o'ylamagandim. Otam hatto „Diskaveri“ bortida Xabbl bilan Kanaveral burnidan chiqarilgan kunda, hatto o'sha soat, o'sha daqiqada kasalidan voqif bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Unda teleskop ishlari qanday ketayotganini bilishga qiziqayotgani tushunarli.

Hech qancha o'tmay teleskopning bosh oynasida jiddiy nuqson borligi ma'lum bo'ldi. Otam bu nuqson „Indever“ fazo kemasi astronomlari tomonidan 1993-yil dekabrda bartaraf qilinganini bilishi mumkin emasdi. 1997-yilda teleskopning ichiga montaj qilingan qo'shimcha ajoyib qurilma haqida bilmasligi tayin edi. Otam Xabbl teleskopi yordamida Koinotning eng aniq va batafsil suratlari ishlanganini bilishga ulgurmay vafot etdi. Ularning ko'pini men internetdan topib, izohlar bilan birga inshomga qo'shdim. Eng yoqqan suratlarni xonamga osib qo'ydim, masalan, bizning Quyosh sistemamizdan 8000 yorug'lik yili narida joylashgan ulkan yulduz Et Kilning g'aroyib darajada ravshan suratini. Bu Somon yo'lining eng katta yulduzlaridan biri, yaqinda u yangitdan chaq nab, neytron yulduzga yoki qora tuynukka aylanadi. Menga yana Burgut tumanligidagi (uni M 16 ham deyishadi) ulkan gaz va tutun bulutlarning suratlari ham yoqadi. U yerda yangi yulduzlar paydo bo'ladi!

Bugun biz koinot, shuningdek, Xabbl teleskopi haqida 1990-yildagidan ko'proq narsa bilamiz. Sayyoramizdan ko'plab million yorug'lik yili uzoqligida joylashgan galaktikalar va yulduzli tumanliklarning minglab suratlari olindi. Bundan tashqari, koinot o'tmishining o'ta noyob suratlari ishlandi. Bu biroz ishonchsiz eshiltildi, lekin koinotga tikilish o'tmishga qarashday gap. Yorug'lik sekundiga 300 000 kilometr tezlikda harakat

qiladi, shunga qaramay, uzoq galaktikalar yorug‘ligi bizga qadar yetib kelishiga milliard yorug‘lik yillari kerak, chunki koinot – cheksiz. Xabbl teleskopi bizdan o‘n ikki milliard yorug‘lik yilidan ham uzoqroqda joylashgan galaktikalarning suratini ishladi, bu esa uning koinot tarixida o‘n ikki milliard yildan ham uzoqroqqa nazar solganini bildiradi. Buni tasavvur qilish qiyin, lekin o‘shanda koinotning yoshi milliarddan ham kichik bo‘lgan... Men bu narsalar haqida uncha-muncha bilaman, shuning uchun ham bu haqda yozyapman. Faqat me’yorni bilish, juda berilib ketish kerak emas. Men o‘qituvchimga topshirgan insho qirq yetti sahifadan iborat edi!

Otam fazo teleskopi haqida menga qandaydir sirli niyatda yozganga o‘xshaydi. Men har doim fazo tadqiqotiga qiziqqanman, ehtimol, sayyoramizning yuzasida bo‘layotgan ishlardan ko‘z uza olish qobiliyati qisman otamdan meros qolgandir. To‘g‘ri, men „Apollon“ dasturi va Oyga chiqqan birinchi odamlar haqida ham xuddi shunday yaxshi insho yozishim mumkin edi. Yoki galaktikalar va qora tuynuklar haqida, hatto qora tuynukli galaktikalar haqida ham, chunki men ular to‘g‘risida ko‘p narsani bilaman. Men to‘qqizta sayyoralari Quyosh sistemasi va Yupiter hamda Mars orasidagi asteroidlar katta mintaqasi haqida ham yozishim mumkin edi. Yoki Gavayidagi ulkan teleskoplar haqida. Ammo men Xabbl teleskopi haqida yozishni ma’qul ko‘rdim. Otam buni qanday karomat qilgan ekan?

U BMT bosh kotibi haqida so‘raganda, tushunishim osonroq bo‘lardi. Chunki uning tug‘ilgan kuni 24-oktabrda edi, BMT kuniga to‘g‘ri keladi. Nima bo‘lganda ham, BMT bosh kotibi hozir – Kofi Annan. Norvegiya

bosh vaziri esa Kell Magne Bundevis. U yaqinda bu lavozimda bo'lgan Yens Stoltenbergning o'rniga o'tirdi. Men o'tirib o'ylarkanman, oyim eshikni taqillatib ishlarim qandayligini so'radi. „Xalal bermang“, dedim men. Hozircha atigi to'rt sahifani o'qishga ulgurdim.

Qani, ota, hikoya qilavering, dedim o'zimcha. Apelsin qiz haqida hikoya qiling. Diqqatimni jam qildim. Chunki sizning hikoyangizni o'qiydigan kun va soat yetib keldi.

*„Apelsin qiz voqeasi men Milliy teatr qarshisida tramvay kutib turgan oqshomlardan birida boshlandi.*

*70-yillar oxirining kech kuzi edi.*

*Esimda, men tik turgancha o'rganishni boshlaganim – tibbiyot haqida o'ylardim. Bir kun haqiqiy shifokor bo'lib, huzurimga kelib, taqdirini ishonib topshiradigan haqiqiy bemorlarni qabul qila boshlashimni tasavvur qilishim qiyin edi. Men katta yozuv stoli yonida oq xalatda o'tiraman va: „Siz qon tahlili topshirishingiz kerak, fru<sup>1</sup> Yensen“, deyman. Yoki: „Buning boshlanganiga ancha bo'ldimi?“*

*Nihoyat, tramvay ko'rindi, uni uzoqdan ko'rdim, u avvaliga Sturtingen yonidan o'tib, Sturtingsgaten bo'ylab ketdi. Keyinchalik meni o'shanda qayoqqa ketayotganimni eslolmasligim anchagacha tashvishga solib yurdi. Lekin nima bo'lganda ham, ko'p o'tmay Frognerga ketayotgan ko'k tramvayga o'tirdim, odam ko'p edi.*

*Birinchi bo'lib o'tish joyida g'arq pishgan apelsinlarga to'la kattakon qog'oz paket ko'tarib olgan alomat qizga e'tibor berdim. U eski olovrang anorak<sup>2</sup> kiyib ol-*

<sup>1</sup>Fru (shved. fru) – Skandinaviya mamlakatlaklarida ayollarga „xonim“ ma'nosida qo'llanuvchi so'z.

<sup>2</sup>Anorak – yengil ustki kiyim, kurtka. Anorak sayohatchilarga, ayniqsa, asqatadi.



gandi, o'zimcha u mahkam qisib ko'tarib turgan kattakon va og'ir paketini har daqiqada tushirib yuborishi mumkin, deb o'yladim. Shunday bo'lsa-da, birinchi bo'lib e'tiborimni paket emas, qizning o'zi tortdi. Shu zahotiyoq uning boshqalarga o'xshamasligini tushundim, unda ta'riflab bo'lmaydigan sirli va jozibali nimadir bor edi.

Uning menga qaraganini va go'yo tramvayga chiqqan yo'lovchilar orasidan ajratib olganini sezdim. Bunga bir lahza ketdi, go'yo bir-birimiz bilan maxfiy ittifoq tuzdik. Chiqishga ulgurmasimdan uning qat'iy nigohi butun e'tiborimni egallab oldi, nazarimda, birinchi bo'lib men ko'zimni olib qochdim, chunki o'sha paytda juda uyatchan edim. Lekin shu qisqa safar paytida endi bu qizni hech qachon unutilmasligimni aniq his qildim. Uning kimligini ham, ismini ham bilmasdim, ammo shu birinchi daqiqadanoq u mening ustimdan cheksiz hukmronlikka ega bo'ldi.

Qiz mendan bir qarichcha past, qora sochlari uzun, ko'zlari jigarrang, yoshi ham men tengi – o'n to'qqizda edi. U menga qarab boshini irg'aganday bo'ldi, lekin qimirlatgani yo'q, istehzoli va mazaxomuz kulib qo'ydi, go'yo biz tanishday yoki – shunday deyishdan qo'rqmayman – qachondir, ancha avval ikkimizning hayotimiz bir bo'lganday. Uning qora ko'zlaridan shu ma'noni uqqanday bo'ldim.

Qizning tabassumidan yonoqlarida kulgichi o'ynab ketdi, ammo uni olmaxonga o'xshatganim sababi bu emas, har qalay, u xuddi shunday chiroyli edi. Bir zamonlar ikkimizning hayotimiz chindan ham bir bo'lgan bo'lsa, demak, o'sha daraxtda ikkita olmaxon bo'lgan, shu sirli Apelsin qiz bilan olmaxon o'yinlari haqidagi o'y ko'nglimga yoqib ketdi.

*Biroq nega u istehzoli, deyarli masxaromuz iljayyapti? O'zi chindan ham menga iljayyaptimi yoki menga mutlaqo aloqasi bo'lmagan, esiga kelgan biror narsaga, yoqimli xayollarigami? Ehtimol, u mening ustimdan kulayotgandir? Bu haqda ham o'ylab ko'rish kerak edi. Lekin, menimcha, tashqi ko'rinishimda hech qanday kulgili narsa yo'q, ko'rinishim har doimgidek joyida edi, qorniga qisgan apelsin to'la kattakon paket bilan mendan ko'ra u kulgili tuyulishi mumkin edi. Ha-ha, hoynahoy, shundan kulayotgan bo'lsa kerak, o'zining ko'rinishidan. Hoynahoy, o'zining ustidan kulishga moyil bo'lsa kerak. Bunday noyob xislat hammada ham yo'q. Men nigohimni yana unga tikishga botinolmasdim. Ko'zlarimni apelsinli katta paketdan uzolmasdim. Hozir uni tushirib yuboradi, deb o'yladim men. Ishqilib, bunday bo'lmasin-da. Afsuski, xuddi shunday bo'ldi.*

*Paketdagi apelsin besh kilodan kam emasdi, balki, undan ko'proqdir ham. Tramvay Drammensveyendan sudralib ketyapti. Shu manzarani tasavvur qilishga urinib ko'r. U chayqalib, tebranib boradi, Amerika elchixonasi oldida to'xtaydi, Solli plassda to'xtaydi, keyin bu yerda, Frognerveyenda men qo'rqqan voqea yuz beradi.*

*Tramvay kutilmaganda silkindi, har qalay, menga shunday tuyuldi. Apelsin qiz muvozanatini yo'qotayozdi, men esa apelsinlarga to'la katta paketni asrab qolishim kerakligini tushunaman. Hozir... hozirning o'zida!*

*Aftidan, o'shandayoq mash'um xatoga yo'l qo'ygan bo'lsam kerak. Buning qandayligini tasavvur qilib ko'r: men tez qo'limni cho'zib, bir qo'lim bilan pastdan jigarrang qog'oz paketni ushlab olaman, boshqasi bilan qizning belidan quchaman. Nima deb o'ylaysan, keyin nima bo'ldi? Tabiiyki, olovrang anorakli qiz apelsinli*

paketni qo'ldan tushirib yubordi, balki, undan rashk qilib, o'z yo'limdan olib tashlamoqchi bo'lganim uchun apelsinni qizning quchog'idan surib chiqargandirman. Oqibati ayanchli bo'ldi, chunki o'ttiz yoki qirqta apelsin yo'lovchilarning tizzasiga sochilib, butun tramvayga yumalab ketdi. Hayotimda juda ko'p ahmoqliklar qilganman, lekin bu hammasidan ham oshib tushdi, bunday sharmandalikni boshqa hech qachon his qilmaganman.

Lekin men apelsinlar haqida haddan ortiq yozayotgandirman, yaxshisi, yana biroz tramvayda dumalab turishsin, chunki tramvay voqeasida asosiysi ular emas.

Qiz darrov menga o'girildi, u endi kulmasdi. Avval u xafa bo'lgandek bo'ldi, har qalay, yuzi biroz tundlashdi. U nima haqda o'ylaganini bilmayman, qayerdan bilay axir, ammo hozir yig'lab yuboradigandek edi. Go'yo bu paketdagi har bir apelsin uning uchun o'zgacha ahamiyatga egadek. Tushunyapsanmi, Georg, menga ularning har biri juda muhimdek tuyuldi. Bu uzoq davom etmadi, zum o'tmay u ranjib menga qaradi va aybimni yaqqol anglatdi. Ha, men uning hayotini qayg'uga to'ldirdim, o'z zimmikini aytmasam ham bo'ladi. O'z kelajagimni barbod qildim.

Afsus, sen u yerda emasing, bo'lmasa, meni qutqararding, biron kulgili gap aytarding. Bu esa vaziyatni yumshatardi. Ammo u paytda mening qo'limda hali bolaning jajji qo'li yo'q edi, bu sen tug'ilishingdan ancha avval yuz bergandi.

Men qattiq xijolat chekib, tiz cho'kib iflos etik va botinkalar orasidan apelsinlarni tera boshladim, lekin juda ozginasini yig'ib ulgurdim. Paket yirtilib ketdi, endi hech nimaga yaramasligini darrov tushundim.

Yosh qiz qarshisida yuztuban yotganimni, ko'chma ma'noda emas, aynan yuztuban tushib yotganimni

sezgach, meni achchiq zavq egallab oldi. Eng ko'ngilchan yo'lovchilar kula boshlashdi, asabiylashib yuzini burishtirganlar ham bo'ldi, tramvay odamga liq to'la edi. Yuz bergan voqeaga guvoh bo'lganlar bunda meni aybdor deb hisoblayotganlari ayon, vaholanki, mening harakatim, aslida, apelsinlarni asrab qolish uchun qilinayotgan noo'rin ezgulik edi-ku! O'sha mash'um tramvay haqida xotiramda qolgan eng oxirgi holat: apelsin to'la qo'llarim bilan – ikkitasini shimimning cho'ntagiga solgandim – olovrang anorakli qiz qarshisida turibman, u esa ko'zimga tik qarab, „Eh sen badbaxtnisse!<sup>1</sup>“ deyapti.

Bu ochiq ta'na edi, keyin uning kulgisi qistab, yarim istehzo, yarim murosa ohangida: „Balki hech bo'lmasa bittasini menga berarsan?“ – dedi.

„Kechirasan, – deya oldim men faqat. – Kechirasan!“

Tramvay Frognerdagi Myollxausen qandolatxonasi yonida to'xtadi, eshiklar ochildi, men deyarli ilohiydek ko'rinayotgan Apelsin qizga sarosima bilan bosh irg'adim, u esa qo'limdan bitta apelsinni shart oldi-da, xuddi ertakdagi pari kabi ko'chaga chiqib g'oyib bo'ldi.

„Balki, hech bo'lmasa bittasini menga berarsan?“ Georg! Lekin bular uning apelsinlari edi-ku, ikkitasini men cho'ntagimga soldim, qolganlari esa tramvayda dumalab ketdi.

Endi men apelsinlarni, ustiga-ustak, birovning apelsinlarini quchoqlab ko'ksimga bosib turardim. „Yaramas apelsin o'g'risi!“ – Yo'lovchilardan kimdir men haqimda yoqimsiz gap aytishdan o'zini tiyolmadi; o'sha paytda

<sup>1</sup>Nisse – Norvegiya folklori qahramoni. U odamlarga yaqin joyda yashaydi, odatda, o'zi yashaydigan uy egalariga yordam beradi, lekin ko'pincha sho'xlik ham qilib turadi.

nima haqda o'ylaganim esimda yo'q, lekin keyingi bekatda tramvaydan sakrab tushib qoldim. Frogner plassda.

Xayolimni faqat bir o'y egallab olgandi: bu apelsinlardan tezroq qutulish kerak! Men ularni tushirib yubor-maslik uchun xuddi dorbozdek muvozanatni saqlashga urinardim, baribir bittasi tushib ketib, tosh yo'ldan dumalab ketdi, men esa, tabiiyki, egilib uni ololmasdim.

Ko'p o'tmay baliq do'koni yonida, sen Frogner plassdagi bu do'konni bilsang kerak, bolalar aravachasini itarib ketayotgan ayolni ko'rib qoldim (Lekin kim bilsin, bu do'kon hali ham bormikan?) Men asta unga yaqinlashdim va aravacha yonidan o'tayotganda, epchillik qilib hamma apelsinlarni, jumladan, cho'ntagimdagi ikki donani ham pushti bolalar parjildi ustiga tashladim, bunga ikki soniya kifoya qildi.

O'sha ayolning yuzidagi ifodani ko'rganingda edi, Georg! Nimadir deyish kerakligini tushunardim, shuning uchun bolasiga berayotgan kamtarona hadyamni qabul qilishini so'radim, axir hozir kuzning oxiri, bolalar „S“ vitaminini yetarlicha iste'mol qilishi juda muhim, chunki men tibbiyotni o'rganyapman, deb qo'shib qo'ydim.

U shubhasiz, mening hadyamni qo'rslik deb hisobladi, balki, meni mast deb o'ylagandir, har qalay, mening tibbiyotchi-talaba ekanligimga ishonmagani aniq, lekin men Frognerveyendan oyog'i kuygan tovuqday yugurib borardim. Yana xayolimda faqat bitta o'y aylanardi: Apelsin qizni topish kerak. Men uni iloji boricha tezroq topib, uzr so'rashim lozim.

Shaharning bu qismi senga qanchalik yaxshi tanish, bilmadim, lekin men hademay parovozdagidek og'ir nafas olib, Frognerveyen, Fredrik Stangsgat, Elisenbergveyen va Lyovensholdsgat chorrahasiga, sirli qiz

qo'lida bir donagina apelsin bilan tramvaydan tushgan joyga chiqdim. Xuddi shu singari Fransiya poytaxtidagi Etual maydonida ham bo'lishim mumkin edi, bu yerda to'g'ri yo'lni tanlashga imkoniyatim u yerdagiga qaraganda ko'proq emasdi, Apelsin qiz esa g'oyib bo'lgandi, xuddi havoga singib ketgandek.

O'sha oqshom Frogner bo'ylab ancha kezib yurdim, Briskebyudagi o't o'chirish deposiga ham, Qizil Xochning eski kasalxonasiga ham bordim va har gal olovrang anorakka o'xshagan narsani ko'rganimda, yuragim orziqib ketayotganini his qildim, lekin men izlagan qiz yer ostiga kirib ketgandek edi.

Bir necha soatdan so'ng meni shunday qo'pol haqorat qilgan qiz Elisenbergveyenning qayeridadir deraza yonida o'tirib, yosh talabaning xuddi o'z malikasini hech topa olmayotgan biron kompyuter o'yini qahramonidek u yoqdan-bu yoqqa sarosimada yugurgilab yurganini zimdan kuzatayotgandir degan o'y xayolimga keldi. Qahramonning istagi kuchli, biroq malikasini izlab topolmaydi. O'yin xuddi kompyuterda qotib qolgandek. Bir gal axlat qutisida yangi apelsin po'chog'ini ko'rib qoldim. Uni olib hidlab ko'rdim, agar bu yerga uni chindan ham Apelsin qiz tashlagan bo'lsa, bu uning oxirgi izi edi.

Shunday o'ylardim: hoynahoy, Apelsin qiz chang'ida Grenlandiya yoki hech bo'lmaganda Xardangervidni kesib o'tmoqchi, o'shanda muz sahroda lavshadan<sup>1</sup> o'lmaslik uchun it qo'shilgan chanaga sakkiz-o'n kilogramm apelsin solib olish aslo ahmoqlik bo'lmaydi.

Men yana tasavvurimga zo'r berdim: axir „anorak“ eskimoscha so'z, shekilli? Albatta, bu qiz Grenlandiya-

<sup>1</sup>Lavsha (Singa skorbut Barlou kasalligi) – organizmda askarbin kislota, C va P vitamini yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik.

ga bormoqchi! Lekin endi bu ekspeditsiya nima bo'ladi? Sirli qizning yana apelsin sotib olishga puli bo'lmasligi mumkin, axir u shuncha mahsulotini yo'qotganidan yig'lab yuborayozdi-ku, shuning uchun u juda g'arib bo'lsa kerak deb o'ylab qoldim.

Biroq boshqa taxminlar ham bor edi. Buni tan olish uchun o'zimni qo'lga olishimga to'g'ri keldi. Balki, Apelsin qizning oilasi kattadir? Ha, shunday bo'lishi mumkin, uning og'ir kasalga qaramayotganiga, Qizil Xoch kasalxonasi to'g'risidan bir hujrani ijaraga olmaganiga kim kafolat beradi, qolaversa, juda ko'pchilikdan iborat oilasi apelsinlarni yoqtirmasligiga kim kafil bo'la oladi? Mening bu oilani ko'rgim, hammalarini Frognerdagi xonalari katta va keng, shifti gipsli rozetkalari bor eski xonadonlardan birida katta tushlik stoli atrofida ko'rgim keldi, Georg. Ota-onadan tashqari oilada yetti farzand – Apelsin qizning o'zini hisobga olmaganda, to'rt singil va ikki uka bor, u esa mehribon va g'amxo'r katta opa. Bu fazilatlar unga kelajakda asqatib qolishi mumkin, endi esa, kim bilsin, uning ukalari va singillari maktab nonushtalarida yana qachon apelsin yeyishar ekan.

Yoki – bu o'ydin etim jimirlab ketdi – uning o'zi kichkina, undan va endigina iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkillashtirish institutini bitirgan g'ayratli eriyu to'rt yoki besh oylik qizchasidan iborat oilaning bekasi bo'lishi mumkin. Negaligini bilmadim, lekin qizining ismi Rayveyg ekaniga ishonchim komil edi.

Shunday bo'lishi mumkin, shunday taxminni ham hisobga olishim kerak edi. Frognerdagi „Baliq va qush“ do'koni yonidan pushti parjildda emizikli go'dakni olib ketayotgan ayol uning onasimi-yo'qmi, kim biladi?

Balki, u Apelsin qizga ro'zg'orda yordam beradigan qizdir? Bu o'y ichimni kuydirib o'tdi. Garchi u holda apelsinlarning hech bo'lmasa bir qismi qarashlari olmaxonnikiga o'xshash qizga qaytsa ham. Dunyo birdan juda ixcham bo'lib qoldi, hamma narsa o'z ma'nosiga ega bo'ldi.

Men doim alomatlarni izohlab, ikkiga ikkini qo'shishni, yoki biz, shifokorlar ta'biri bilan aytganda, tashxis qo'yishni bilardim. Darvoqe, kasal bo'lib qolganimda, o'zimga o'zim tashxis qo'yganman. Bu menga biroz taskin beradi.

Hamkasbim yoniga borib, meni nima qiynayotganini tushuntirdim. U yog'iga u harakat qildi. Va...

Ana shunaqa, Georg. Shu yerda biroz tanaffus qilishim kerak.

Ko'p yillar oldin yuz bergan voqeani bunchalik quvnoqlik bilan gapira olishim, balki, seni ajablantirar. Lekin mening xotiramda bu qiziq voqea go'yo ovozsiz kinodek qolgan, uni sen ham shunday qabul qilishingni xohlardim. Ammo bu, voqeani yozayotganimda menga yengil bo'lganini anglatmaydi. Tan olishim kerakki, men o'zimni mutlaq himoyasiz yoki, to'g'rirog'i, batamom samimiy aytsam, tasalli topolmagandek his qilardim. Buni yashirmayman, lekin bunga e'tibor bermayman. Sen hech qachon mening yig'layotganimni ko'rmaysan, bunga qat'iy qaror qildim, ahdimda tura olaman deb o'ylayman.

Oying ishdan uyga kelyapti, hozircha esa sen bilan uyda yolg'izimiz. Sen polda o'tirib, rangli bo'r bilan chizyapsan, lekin menga taskin berolmaysan. Yoki unday emasmi? Balki, qachondir ko'p yillardan so'ng, senga ota bo'lmish inson yozgan bu xatni o'qiyotganing-



da, u haqda iliq o'ylarsan. Bu o'y halitdan ko'nglimni ko'taryapti.

*Vaqt, Georg. Vaqt nima? "*

Otam o'limidan biroz vaqt oldin men uchun yozgan ta'sirli hikoyadan yana bosh ko'tarishimga to'g'ri keldi. Suratga qaradim – „Mutlaqo yangi yulduz. 1987. A“. Bu surat Xabbl teleskopi tomonidan, taxminan, otam o'ladigan kasal ekanini tushungan paytda tushirilgan.

Albatta, unga rahmim kelardi. Lekin, menimcha, dardini mening yelkamga ortishi unchalik to'g'ri emasdi. Axir men o'jiz edim, hech nima menga bog'liq emasdi. U hozirgi emas, boshqa vaqtda yashagan, men esa o'z hayotim bilan yashashga majburman. Agar hamma odamlarga marhum otalari va ajdodlarining xatlari yog'ilib ketsa, biz o'zimiz istagandek yashay olmaymiz.

Ko'zlarimga yosh qalqib chiqdi. Lekin shirin ko'z-yoshlar emas, agar shunaqasi mavjud bo'lsa, balki, achchiq, dardli yoshlar, ular yuzimdan oqib tushmas, mijjamda yig'ilib, kuydirardi.

Onam bilan mozorga otamning qabriga qarab qo'yish uchun borganimizni esladim. Endi bunday qilolmayman deb o'yladim. Har qalay, mozorga bir o'zim bormayman. Aslo.

Ba'zida otasiz o'sish unchalik ham og'ir emas. Lekin marhum otang birdan sen bilan qabrdan turib gaplasha boshlasa, unda chindan ham vahimali. Balki, u o'g'lini tinch qo'yganda yaxshiroq bo'larmidi? Axir uning o'zi menga arvoq qiyofasida qaytganiga ishora qildi-ku.

Kaftlarim terlab ketdi. Lekin men, shubhasiz, uning xatini oxirigacha o'qib chiqaman. Balki, bu xatni kelajakka jo'natgani yaxshidir ham, balki, yo'q. Hozir bu haqda bir nima deyishga juda erta.

Baribir, u juda g'alati, deb o'yladim men, har qalay, o'n to'qqiz yoshda, 70-yillarning oxirlaridagi o'sha kuzda, menimcha, qandaydir qizning tramvayda apelsin solingan katta paket ko'tarib ketayotganiga bunchalik ahamiyat berishi kerak emasdi. Qizlar va yigitlarning bir-biriga ko'z tashlashishining nimasi g'alati, o'ylashimcha, ular Odam va Havo davridan bir-biriga ko'z tashlashishni boshlagan.

Nega shunchaki unga oshiq bo'lib qoldim deb yozib qo'ya qolmagan? Qiz buni otam uning apelsinlariga tashlanmasdan avvalroq tushungan bo'lsa kerak. U esa qizning belidan ham quchib olibdi! Balki tramvayda beixtiyor u bilan apelsin valsida aylanish istagi tug'ilib qolgandir?

Bolalar oshiq bo'lib qolganda, ular yo urishishadi, yo bir-birining sochidan tortadi. Ba'zilar bir-biriga qor otadi. Men o'n to'qqiz yoshlilar aqlliroq ish qiladi deb o'ylardim.

Lekin men qissaning endigina boshini o'qidim. Balki, o'sha Apelsin qiz bilan chindan ham qandaydir sirli voqea yuz bergandir? Bo'lmasa, otam nega u haqda yozadi? U kasal edi, hademay o'lishini bilgan. Shu bois o'zi uchun, balki, men uchun ham muhim bo'lgan voqea haqida yozgan.

Men kolani ichib bo'lib, davomini o'qishga tutindim.

*„Yana qachondir Apelsin qizni uchratarmikanman? Balki, uchratmasman, balki, u mamlakatning boshqa qismida yashar, balki, u Osloga ozgina vaqtga kelgandir.*

*Shaharda bo'lib, Frognerga ketayotgan tramvayni ko'rganimda, yo'lovchilar orasida Apelsin qizni ko'rish ilinjida oynalariga tikilib qarardim, bu odatga aylanib goldi. Lekin qancha tikilib qaramay, uni biron marta*

ham ko'rmadim. Oqshomlari Frognerda sayr qiladigan bo'ldim va har gal ko'chada sariq yoki olovrang nar-sani ko'rganimda, o'ylardim: nihoyat uni uchratdim! Umidlarim katta edi, ammo umidsizlanishim ham kichkina emasdi.

Kunlar va haftalar o'tardi, bir gal dushanba kuni tushda Karl Yuxan ko'chasidagi qahvaxonaga kirdim, universitetdagi o'rtoqlarim bilan doim o'sha yerga kirardik. Eshikni ochib, zalga kirishim bilan qotib qoldim, keyin ortga tisarildim. Zalda Apelsin qiz o'tirardi! Ilgari uni hecham bu qahvaxonada ko'rmagandim, lekin endi u stol yonida bir finjon choy bilan o'tirar va qandaydir suratli kitobni varaqlardi. Uni go'yo ko'rinmas kuch men qahvaxonaga kirib, yana uchrashishimiz uchun bu yerga o'tqizib qo'ygandek edi. Egnida xuddi o'sha eski anorak bor edi, Georg, quloq sol, ishonmaysan deb qo'rqaman, lekin tizzalari va kichkina stol o'rtasida u chiroyli apelsinlar solingan katta qog'oz paketni ushlab o'tirardi.

Seskanib ketdim. Apelsin qizni yana xuddi o'sha olovrang anorakda qo'lida xuddi o'shanday apelsinli paket bilan ko'rish sarobga duch kelgandek gap edi. Shu daqiqadan boshlab men endi faqat apelsinlar haqidagina bosh qotirmasdim. O'zi bular qanaqa apelsinlar? Bu oltin apelsin quyoshlar shunday ko'zni olgudek yarqirardiki, ko'zlarimni yumib olgim keldi. Oltinga bunchalik o'xshash apelsinlarni hali ko'rmagandim. Hatto po'sti orasidan ham sersuvligi bilinib turardi. Oddiy apelsinlar bunday bo'lmaydi!

Men sezdirmaygina zalga o'tib, undan besh qadamcha naridagi stol yoniga o'tirdim. Shunchaki qizga qarab o'tirgim, u yog'iga nima qilishimni o'ylab olishimdan avval tushunarsiz holatdan zavqlangim kelardi.

*U meni sezdi deb o'ylamagandim, lekin u birdan o'qiyotgan kitobidan bosh ko'tarib ko'zlarimga tik boqdi. Meni jinoyat joyida ushladi desa ham bo'ladi, axir men unga tikilib o'tirgandim. U menga iliq jilmaydi, Georg, uning tabassumi butun dunyoni g'arq qilishi mumkin edi, chunki dunyo uning tabassumini ko'rganda, sayyoramizdagi hamma urushlar va to'qnashuvlarni to'xtatishga o'zida kuch topardi. Juda bo'lmaganda, uzoq yarashuv bo'lardi.*

*Boshqa choram qolmagandi, uning yoniga borishim kerak edi. Ohista uning stoli yoniga borib, bo'sh stulga o'tirdim. U buni mutlaqo tabiiy qabul qildi, garchi uning nimasidir tramvaydagi o'sha voqeadan so'ng meni taniganiga shubha qildirgan bo'lsa ham.*

*Bir necha soniya indamay bir-birimizga qarab o'tirdik. U suhbat boshlashimizni istamayotgandek edi. U bir daqiqa ko'zlarimga tikildi, bu gal men yuzimni o'girmadim. Uning qorachiqdari titrardi go'yo. Ko'zlari menga „Meni eslayapsanmi?“ deyayotgandek edi. Yoki: „Nahotki meni eslolmayotgan bo'lsang?“*

*Ikkalamizdan birimiz gap boshlashimiz kerak edi, lekin men shunchalik xijolatda qolgandimki, faqat u bilan yovvoyi olmaxon bo'lgan va kichikroq o'rmonzorda erkinlikda yashagan paytlarimiznigina o'ylay olardim. U mendan berkinishni yaxshi ko'rardi, men uni topish uchun tin bilmay daraxtda tepaga-pastga yugurardim, u esa o'sha zahoti boshqa daraxtga sakrab o'tardi. Shunday, shoxdan shoxga sakrab, uning ketidan butun o'rmon bo'ylab yugurib yurardim, toki ajoyib kunlarning birida o'zim undan berkinib olishni xayol qilmagunimcha. Endi u meni qidirib sarosimaga tushib qoldi, men esa daraxtning uchida yoki eski to'nka orqasida moxlar*

orasida pisib, meni qanday betoqatlik bilan qidirishini zavqlanib, shu bilan birga meni topolmasa-chi degan xavotir bilan kuzatardim...

Shu payt juda g'aroyib voqea sodir bo'ldi, qadim zamonlardagi o'sha yong'oqzorda emas, Karl Yuxan ko'chasidagi qahvaxonada.

Men qo'limni stolga qo'ydim, kutilmaganda u qo'lini mening qo'limga qo'ydi. Kitobni apelsinlarga taqab qo'ydi, u, men olib qo'yishimdan yoki polga tushirib yuborishimdan cho'chigandek, apelsinli paketni hamon boshqa qo'li bilan ushlab o'tirardi.

Tortinishimdan asar ham qolmadi. Sovuq kuch uning barmoqlaridan menikiga o'tayotganini his qilardim. Menga u qandaydir g'ayritabiiy xislatga egadek, bu xislat tushunarsiz tarzda apelsinlari bilan bog'liqdek tuyuldi.

*Jumboq, deb o'ylardim men, ajoyib jumboq!*

Ko'p o'tmay o'rtamizdagi jimlik chidab bo'lmas darajaga yetdi, garchi bu sotqinlik yoki Apelsin qiz uchun qandaydir muhim qoidalarni buzishdek bo'lsa ham, men bu jimlikni buzdim. „Sen olmaxonsan!“ deganimda, biz hali ham bir-birimizning ko'zlarimizga tikilib o'tirardik.

Shu so'zlarni aytib ulgurmasimdan u yengil tortib jilmaydi va qo'limni sekin siqib qo'ydi. Keyin qo'limni qo'yib, apelsinli paketni quchog'ida tutganicha viqor bilan o'rnidan turdi va eshikka qarab yurib ketdi. Men uning ko'zlariga yosh qalqqanini ko'rdim.

Go'yo falajlanib qolgandek edim. Tildan qoldim. Atigi bir necha soniya avval Apelsin qiz ro'paramda o'tirgan, qo'llarimdan tutgan edi, nazarimda, men hali ham apelsinlarning hidini tuyardim, ammo uning o'zi

endi qahvaxonada yo‘q edi. Agar o‘sha apelsinlar pake-  
ti bo‘lmaganda, u, ehtimol, menga qo‘l silkib qo‘yardi.  
Ammo paket shunchalik katta ediki, ikkala qo‘li bilan  
ushlashga majbur edi, xayrlashayotib qo‘l silkishning  
umuman imkoni yo‘q edi. Ammo u yig‘lardi.

Men ham uning ortidan bormadim! Bu ham qoi-  
dalarni buzish edi. Men tamom bo‘lgandim, mag‘lub  
bo‘lgandim, ichim to‘lib-toshib ketgandi. Shunday sir-  
li va ajoyib tuyg‘uni his qildimki, bu menga bir necha  
oyga yetishi kerak edi.

Qolaversa, uni yana ko‘rishimga shubha qilmas-  
dim. Buni qudratli, ammo g‘aroyib kuchlar boshqa-  
rardi.

Notanish qiz. U biznikiga ancha oldin ajoyib ertak-  
dan kelgan. Lekin u bizning hayotimizga kira oldi. Bal-  
ki, bu yerda uning muhim ishi bordir, balki, unga biz-  
ni ayrimlar „kulrang borliq“ deb ataydigan narsadan  
saqlash vazifasi topshirilgandir? Shu paytgacha bunday  
vazifalar haqida hech nima eshitmagandim. Men faqat  
bitta hayot va bitta borliq mavjud deb o‘ylardim. Ammo,  
ma‘lum bo‘lishicha, kamida ikki xil toifa odamlar bor  
ekan: apelsin va boshqalar.

U holda nima uchun uning ko‘zlarida haqiqiy yosh  
bor edi? U nega yig‘ladi?

Balki, u bashoratchidir, deb o‘ylaganim esimda.  
Bo‘lmasa, nega begona odamni ko‘rganida ko‘ziga yosh  
keldi? Balki, u shunchaki kelajakda meni og‘ir sinovlar  
kutayotganini „ko‘rgandir“?

Bunday narsalar xayolimga kelganining o‘zi g‘alati.  
Tasavvurga berilishni har doim yaxshi ko‘rgan bo‘lsam  
ham, doim aqlga suyanib ish ko‘rardim va shunday  
bo‘lib qolganman.

Qissamning shu joyiga kelganda, qisqa xulosa qilishga ehtiyoj sezyapman. Buni tez-tez takrorlamaslikka soʻz beraman.

Yosh yigit va juda yosh qiz Frognerga ketayotgan tramvayda bir-birini yoqtirib qoldi. Ular endi bola emas, lekin hali ulgʻayib ulgurmagan, bir-birini ilgari hech koʻrmagan. Bir necha daqiqa oʻtib, yigitga qiz hozir sersuv apelsinli katta paketni qoʻlidan tushirib yuboradigandek tuyuladi. U qiz tomonga otiladi, natijada, apelsinlar tramvayga sochilib ketadi. Qiz uni „nisse“ deb ataydi, birinchi bekatdayoq tusharkan, bittagina boʻlsa ham apelsinni bermaysanmi deb soʻraydi, yigit esa dovdirab bosh irgʻaydi. Bir necha hafta oʻtgach, ular qahvaxonada yana uchrashib qolishadi. Bu gal qizning qoʻlida tillarang apelsinlarga toʻla katta qogʻoz paket boʻladi. Yigit uning stoli yoniga oʻtiradi, ular bir necha daqiqa bir-birlarining koʻzlariga tikilib oʻtirishadi. Balki, bu balandparvoz eshitilar, lekin ular naq bir daqiqa bir-birlarining koʻzlariga tikilib, koʻngil tubigacha yetib borishadi, u – qizning, qiz – uning. Qiz uning qoʻliga qoʻlini qoʻyadi, yigit unga „olmaxonsan“, deydi. Shunda qiz nazokat ila turib, ikkala qoʻlida koʻtarib olgan katta paket bilan qahvaxonadan chiqadi. Yigit uning koʻzlari yoshga toʻlganini koʻradi.

Birinchi galdan beri ular oʻzaro atigi toʻrt luqma almashishadi. Qiz: „Eh, sen badbaxt nisse!“ Va: „Balki menga bitta boʻlsa ham apelsinni berarsan?“ Yigit: „Kechirasan, kechirasan!“ Va: „Sen olmaxonsan!“

*Qolgani – ovozsiz kino. Qolgani – jumboq .*

Balki, bu jumboqni yecha olarsan, Georg? Men yecholmasdim, balki, oʻzim oʻsha qissaning bir qismi boʻlganim uchundir?“

Nihoyat, bu voqea meni chinakamiga qiziqtirib qo'ydi. Apelsin qiz ikki marta ketma-ket qo'lida apelsinli katta paket bilan otamning qarshisidan chiqdi. Bu yerda qandaydir sir bor edi. Qahvaxonada u bir so'z aytmay otamning qo'lidan ushlab, uning ko'zlari qa'riga qaraydi, keyin esa birdan sakrab turib, ko'zida yosh bilan ko'chaga yugurib chiqadi. G'alati. Buni izohlash qiyin edi.

Agar otamning ko'ziga ko'rinmagan bo'lsa, albatta.

Balki, Apelsin qiz „tasavvur mahsuli“ning hosilasi bo'lgandir? Ko'p odamlar Loxness maxluqini yoki juda bo'lmasa Selyur ko'lida dengiz ilonini ko'rganman deydi, buning uchun ularni yolg'onchilikda ayblab bo'lmaydi, chunki ular „o'z tasavvuri mahsuli“ni ko'rgan bo'lishi mumkin. Agar otam Apelsin qiz bir kuni Karl Yuxandan it qo'shilgan katta chanada o'tib ketdi deganda, bunday hikoya hayotining qaysidir damlarida otam aqldan ozishga yaqin bo'lganidan darak beradi deb o'ylardim. Ehtimol, shunday bo'lgani ma'qul edi, bunday kasalliklarga qarshi dorilar bor.

Apelsin qiz tasavvur mahsuli edimi yoki tan-u joni bor odammi, bir narsa aniq: otam uni telbalarcha sevib qolgandi. Nihoyat, unga biron gap aytish imkoni tug'ilganda, u, nazarimda, xayoliga kelishi mumkin bo'lgan eng ahmoqona gapni aytgan. „Sen olmaxon-san“, – degan u. Umuman olganda, o'zining ahmoqligidan hayron qolganini yashirmagan ham. U nega aynan shu so'zlarni aytganini kim menga tushuntirib bera oladi? Yo'q, ota, bunday jumboqqa mening tishim o'tmaydi.

*„Qahvaxonadagi o'sha qisqa uchrashuvdan so'ng men muntazam ravishda va faqat Apelsin qizni qidira*



boshladim, yana ko'p kunlar o'tdi, men esa uni hatto uzoqdan ham ko'rganim yo'q.

Senga izlanishlarimning tafsiloti va yo'l qo'ygan xatolarim haqida gapirmayman, bu ro'yxat juda cho'zilib ketadi. Lekin men nuqul mulohaza yuritar, tahlil qilardim, bir kuni shunday xulosaga keldim: ikki galda ham Apelsin qizni dushanba kuni ko'rdim. Nega bu haqda avvalroq o'ylamagan ekanman-a! Apelsinlar esa meni uning yoniga olib boradigan yagona aniq iz edi. Axir Frognerdagi do'konlarda ham apelsinlar sotiladi-ku. Ha, lekin ular juda sersuv, shirin, qolaversa, arzon bo'lsa kerak? Shunday o'ylardim: agar odam bunday narsalarga sinchkovlik bilan yondashsa, u apelsinlarni katta meva bozoridan, masalan, Yungstorgetdan – o'sha paytda bu Oslodagi meva va sabzavot sotiladigan chinakamiga katta yagona bozor edi – xarid qiladi, ayniqsa, unga bir kunda bir necha kilogramm kerak bo'lsa. Apelsin xarid qilgach, Sturgat tramvayiga chiqadi, Frognerdagi uyiga boradi, ayniqsa, taksiga puli bo'lmaganlar. Yana bir narsa e'tiborimni tortdi: jigarrang qog'oz paketlar! Oddiy sabzavot do'konlarida mevalar plastik xaltalarda beriladi. Faqat Yungstortetda hamma sabzavot va mevalar shunaqa – Apelsin qiz ko'tarib olganga o'xshash katta qog'oz paketlarga solinadi, shekilli? Bu mening behisob nazariyalarimning bittasi edi, lekin men uch oy davomida Yungstorgetga meva va sabzavot xarid qilishga qatnadim. Mendek talaba uchun taomnomasini yaxshilash ancha foydali edi, oxirgi paytlarda qisqichbaqali salat bilan qovurilgan sosiskani ko'p yeyishni odat qilib olgandim.

Yungstorgetda qaynagan hayotni tasvirlashga hojat yo'q, buni mendan yaxshiroq tasavvur qila olasan.

Rasta yonida o'n kilogrammli apelsin paketini arzonroq olish ilinjida savdolashayotgan anorak kiygan sirli qizni tasavvur qilishga urinib ko'r yoki xuddi shu qizni ikki qo'lida og'ir qog'oz paketni ko'tarib bozordan chiqib ketayotganini faraz qil. Qolgan hamma narsani esdan chiqar, qolgan hammani demog'chi edim.

Lekin sen uni ko'ryapsanmi, Georg?

Bozorga birinchi marta, ikkinchi marta borganimda ham, hafsalam pir bo'ldi, lekin uchinchi dushanbada bozorning oxirida olovrang dog'ni ko'rdim, ha-ha, bu olovrang anorakli qiz edi, u meva rastalarining biri yonida turib, katta qog'oz paketga apelsin to'ldirayotgan edi!

Bozorda odamlarni turtkilab o'tib, ko'p o'tmay uning orqasida, bir necha metr narida to'xtadim. U apelsinlarni shu yerdan sotib olar ekan-da! Men uni xuddi jinoyat ustida qo'lga tushirgandek edim. Tizzalarim qaltirab ketdi, yerga yiqilib tushishimga oz qoldi.

Apelsin qiz hali apelsinlarni tanlab bo'lmagandi, gap shundaki, u apelsinlarni o'ziga moslab tanlardi. Qara-ya: men biroz narida turib, uning apelsin ketidan apelsinni olib, jigarrang paketga solishdan yoki pesh-taxtaga qaytib qo'yishdan avval har birini yaxshilab ko'zdan kechirayotganini e'tibor bilan kuzatardim. Uning apelsinlarni Frognerdagi birinchi uchragan do'kondan sotib olmasligini endi tushundim. Bu yerda istaganicha tanlashi mumkin edi.

Apelsin tanlashda bunchalik injiqlikni hali ko'rma-gan edim, qiz ularni sharbat siqish uchun sotib ol-mayotganiga ham aslo shubha qilmasdim. Unda nima uchun? Bu borada sening qanday taxminlaring bor? Uning u yoki bu apelsinni olishga qaror qilguncha

*nega yarim daqiqadan vaqt sarflayotganini tushuna olasanmi?*

*Menda faqat bitta taxmin bor edi: Apelsin qiz katta bolalar bog'chasida oshpaz bo'lib ishlaydi, u yerda bolalarga nonushtada bittadan apelsin beriladi. Bolalarda adolat tuyg'usi kuchli bo'lishi hammaga ma'lum. Shuning uchun Apelsin qiz sotib olgan apelsinlari bir xilda katta, bir xilda dumaloq va bir xilda olovrang bo'lishi uchun jon kuydiryapti. Bundan tashqari, ularni sanab olayotgandi.*

*Bu ancha ishonchli tuyuldi, menda hatto bog'chada bir necha azamat yigit ishlaydi, bu ularning muqobil harbiy xizmati degan yoqimsiz o'y tug'ildi. Biroq yanada yaqinroq borgach, gap boshqa narsada ekanligini angladim. Apelsin qiz sira ham bir xil apelsinlarni tanlamayotgandi, hammasining orasidan bir-biriga o'xshamagan, turli kattalikdagi, shakl va rangdagi apelsinlarni tanlash uchun ovora bo'layotgandi. Bir narsaga e'tibor ber: ayrim apelsinlarda hatto shoxchasi bilan barglari ham saqlanib qolgandi!*

*Men yengil tortib, bog'chada muqobil xizmatni o'tayotgan shilqim yigitlarni xayolimdan chiqarib tashladim. Ammo bu mening yagona quvonchim edi. Qiz jumboq edi, jumboqligicha qolayotgandi.*

*Nihoyat, paket to'ldi, Apelsin qiz pulini to'lab, Stur-gaten tomonga qarab ketdi. Men yana Frognerga ketadigan tramvayga chiqmagunimizcha o'zimni bildirmaslikka qaror qilib, biroz masofa saqlab uning ortidan yurdim. Lekin kutganim bo'lmadi. O'sha kuni u Stur-gatenga tramvayga chiqish uchun ketmayotgan ekan. Biz tramvay bekatiga yetib ulgurmasimizdan u oq mashinaga o'tirdi, bu „Toyota“ edi va unda old o'rindiqda erkak kishi o'tirgandi!*

Men uni to'xtatish uchun yugurmaslikka qaror qildim. O'sha erkak bilan tanishishga umuman hushim yo'q edi. Ko'p o'tmay mashina joyidan jildi, burilib, jo'nab ketdi.

Yana bir muhim tafsilot: qo'lida apelsinli katta paket bilan mashinaga o'tirayotib, qiz kutilmaganda o'girilib menga qaradi, lekin meni tramvayda yoki Karl Yuxandagi qahvaxonada ko'rganini eslashga ulgurdimi-yo'qmi, angalayolmadim. Faqat shunga shubha yo'q ediki, u qandaydir erkakning „Toyota“siga o'tirdi va o'tirayotib, menga qaradi.

U baxtli odam kim edi? Uning necha yoshdaligini ko'rishga imkonim bo'lmadi, bu uning otasi bo'lishi ham mumkin edi, lekin boshqa tomondan... Mayli, kim bilsin. Balki u bog'chada muqobil harbiy xizmat o'tayotgan yigitlardan biridir? Oq „Toyota“da-ya? Dargumon. Balki u Ranveyg ismli to'rt oyli qizchaning otasi bo'lmish azamatdir? Yo'q, bunday bo'lmasligi ham mumkin. Apelsin qiz u bilan chang'ida Grenlandiyani kesib o'tar deb ham hisoblash mumkin edi. Ko'z oldimda turli manzaralar raqs tushardi – apelsinli ratsion, mushkli ho'kizlar, skalpel, zaxira chang'i tayoqlari, primus va bulon bo'lakchalari. Men hatto ular tunaydigan chodirni ham ko'rdim, u sariq edi, chanaga sakkizta it qo'shilganini ham sanashga ulgurdim.

Bularning hammasini aniq ko'rdim! Mendan berkin olamiz deb o'ylashmasin. Miyamda film aylanayotgandek edi: galati juflik bepoyon Grenlandiya muzliklarida chang'ida ketyapti. U xuddi qor ma'budasidek sohibjamol va beg'ubor. Erkak esa boshqa gap, burni qiyshiq, og'zining chetlari xunuk burishgan, nigohlarida esa yashirin maqsadlar, xuddi qiz har lahzada

Yiqilib ketishi mumkin bo'lgan makkor yoriqlar singari! (Shunday bo'lsa, qizni yoriqdan olib chiqadimi? Yoki qizning apelsinlarini yeb, uni boshqa hech qachon ko'rmasligini juda yaxshi anglagancha bir o'zi yo'lida davom etaveradimi?) Unda qo'pol, ibtidoiy va o'zidan nari itaruvchi kuch seziladi. U, biz chivinni kaftlarimiz orasida o'ldirgandek, oq ayiqni osongina o'ldiradi. U haqda gap boshlagan ekanmiz, biz qonun posbonlari deb ataydigan kishilardan uzoqda, muz uyumlari orasida uni zo'rlashdan tap tortmasligini inobatga olishimiz kerak. U yerda ularni kim ko'radi? Men buni tushunaman, Georg. Faqat men. Chunki faqat men bu ekspeditsiyani tasavvur qila olaman. Ularning yo'l tadorigi haqida hamma narsani bilaman. Darrov sakkizta itning har biriga nom qo'ydim, kechga borib esa ular o'zi bilan olib ketishi kerak bo'lgan narsalarning to'liq ro'yxatini tuzdim. Ular yo'lga olib ketadigan narsalarning hammasining og'irligi ikki yuz qirq kilogramm chiqardi, bir shisha shampun va Sorapaluk yoki Kaanaakka yetganda, ichishni rejalashtirishgan chorak litr aroqni ham hisobga olganda...

Lekin ertalabgacha asablarim tinchlandi. Dekabrda hech kim chang'ida Grenlandiyani kesib o'tmaydi. Dekabrda bunday ekspeditsiyalar Antarktikaga jo'naydi, ammo u holda Oslo bozorida apelsin sotib olishga hojat yo'q, unda kerakli hamma narsani Chili yoki Janubiy Afrikadan xarid qilinadi. Qolaversa, bunday ekspeditsiyaga bir dona bo'lsa ham apelsin olib ketishadimi-yo'qmi, noma'lum. Chang'ida Janubiy Qutbga yo'l olgan odam har kuni shuncha kaloriya iste'mol qilishi zarurki, unga vitaminli qo'shimcha kerak bo'lishi amrimahol. Bundan tashqari, apelsinlar juda og'ir mahsulot, asosiysi esa:

qo'ldan qalin qo'loqni yechmasdan turib muzlab qolgan apelsinni yeb bo'ladimi? Qutb safarida apelsinlar suyuq qo'shimcha sifatida Skott ekspeditsiyasidagi otlar singari mash'um rol o'ynaydi. Qanaqa suyuqlik! Ozgina benzin va yaxshi primusdan boshqa hech narsa kerak emas u yerda. Muz va qor, ya'ni suv, u o'lkalarda keragidan ortiq topiladigan yagona narsa, apelsin esa sakson besh foiz suvdan iborat.

Yoqimtoy Apelsin qiz, o'ylardim men. Kimsan o'zi? Qayerdansen? Hozir qayerdansen?"

Onam yana eshik yoniga keldi. „Ishlar qalay, Georg?“ – so'radi u.

„Yaxshi, – deb javob berdim men. – Hadeb menga tirg'alavermanglar“.

U biroz jim qolib, „Eshikni qulflab olganing menga yoqmayapti“, – dedi.

„Agar undan foydalanilmasa, qulf osishning nima keragi bor? Shaxsiy hayotga daxl qilish degan tushuncha bor“.

Onamning hatto jahli chiqdi, to'g'rironi, ranjidi. U: „Georg, sen o'zingni yosh boladay tutyapsan. Bizdan yashirinib olishga hech qanday sabab yo'q“, – dedi.

„Oyi, mening yoshim o'n beshda. Siz o'zingizni yosh boladay tutyapsiz“.

U og'ir, balki, norozi xo'rsindi. Keyin hammasi tinchib qoldi.

Tabiiyki, men unga Apelsin qiz haqida hech nima demadim. Dadam unga Apelsin qiz haqida menga aytib berganlarini hech qachon aytmaganiga qat'iy ishonardim. Bo'lmasa, menga o'sha voqeani qayta aytib berishni so'rab qo'ya qolgan bo'lardi, shunda o'zining so'nggi kunlarini shu uzun xatni yozishga sarflashiga

to'g'ri kelmasdi. Balki u yoshligida o'g'lini himoya qilishni istagan voqeani boshdan kechirgandir, xullas, bu ikki erkakning suhbatlari edi. Bundan tashqari, u mendan muhim bir nimani so'ramoqchi edi.

Hozircha esa u mendan Xabbl teleskopi bilan bog'liq ishlar qanday ketayotganini so'radi. Bu haqda qanchalik ko'p gapirib berishim mumkinligini bilganida edi!

Eng g'alatisi, o'qituvchim meni inshoni ovoz chiqarib butun sinfga o'qib berishga majbur qildi. Suratlarini ham ko'rsatishga. Uning maqsadi ezgu edi, ammo birinchi tanaffusdayoq qizlar meni „Kichkina Eynshteyn“ deb atay boshlashdi. G'alati tasodifni qarangi, aynan shu qizlar kiprik bo'yaydigan tush va lab bo'yog'i bilan boshqalardan ko'proq tajriba qilishardi. Menimcha, ularning tajribasi faqat shu bilan cheklanmagan.

Lab bo'yog'i yoki kiprik bo'yaydigan tushga hech qanday qarshiligim yo'q. Ammo biz fazoviy kenglikdagi sayyoralardan birida yashayapmiz-ku. Bunday xayoldan odamning yuragi hayajonga to'lib ketadi. Fazoviy kengliklar borligini tasavvur qilishning o'zi qiyin. Ammo buni qandaydir kiprik bo'yaydigan tush tufayli tushunishga qodir bo'lmagan qizlar bor. Umuman olganda, futbol to'pi tufayli ufqni ko'rmaydigan o'g'il bolalar ham bo'lsa kerak. Har qalay, cho'ntak oynasini haqiqiy teleskopdan ulkan masofa ajratib turadi! O'ylashimcha, aynan shu „manzaraning buzilishi“ deb ataladi. Hoynahoy, buni hayrat desa ham bo'ladi: „Bu shunaqa bo'larkan-da!“ Bunday hayratni his qilishga hech qachon kech bo'lmaydi... Ammo ko'pchilik odamlar hayotlarida bir marta bo'lsa ham bo'sh kenglikda uchib yurganlarini o'ylab ko'rishmaydi. Bu yerda, pastda ularni juda ko'p

narsa band qiladi. Ularga fazoviy kengliklarsiz ham tashvish yetarli.

Biz yer sharimizning zarrasimiz. Men uni nimadir qilishimiz kerakligini nazarda tutmayapman. Shunchaki biz shu sayyora tabiatining bir qismimiz. Maymunlar va sudraluvchilar tufayli o'zimizning kelib chiqishimiz haqida bilib oldik, bu borada bahslashmayman. Boshqa tabiat sharoitida hammasi, hoynahoy, boshqacha bo'lar-di, lekin biz shu yerda yashaymiz. Takror aytaman: men hech nimadan voz kechmayapman. Faqat o'ylashimcha, bu bizning burnimizdan sal nariroqni ham ko'rishga urinishimizga xalal bermasligi kerak.

„Teleskop“ juda uzoqda bo'lgan biron narsaga qarashga imkon beradi. Ammo Apelsin qiz haqidagi ta'sirchan qissaning fazoviy teleskopga nima daxli bor?

Qani, dada, davomini so'zlang. Hozir shu kitobni o'qiyotgan hammaga so'zlab bering.

*„Keyingi gal Apelsin qizni arafada, ha-ha, aynan arafada ko'rdim. Bu gal u bilan gaplashdik. To'g'rirog'i, bir-birimizga bir necha so'z aytdik.*

*O'sha paytda men bir talaba bilan Adamstyuada kichkina kvartirada ijarada turardim. Ammo arafani Xyumleveyendagi uyda o'tkazmoqchi edim. Otam, onam va ukam, amaking Eynar bilan. Eynar mendan to'rt yosh kichik, o'sha yili gimnaziyaning oxirgi sinfida o'qirdi. Bu buving va buvang Tyonsbergga ko'chishlaridan ancha avval bo'lgan edi.*

*Apelsin qizni yana uchratishdan deyarli umidimni uzgandim, qolaversa, „Toyota“dagi erkakning kimligini bilolmay dovdirab qolgandim. Kutilmaganda Xyumleveyenga uyga ketishdan avval cherkovdagi ibodatga borish fikri tug'ildi. Men o'sha sirli qizga hali ham*



shunchalik maftun edimki, Rojdestvoni birga kutib oladigan odamlarining (Kim ular? Ha, kim ular?) yoniga ketishdan avval u ham cherkovga ibodat qilishga keladi degan fikrga yopishib olgandim. Uni soborda uchratsam kerak, aniqroq aytadigan bo'lsam, bu unchalik g'ayritabiiy emas, deb o'yladim.

Shuni ta'kidlab o'tishim kerakki, men Apelsin qiz haqidagi qissani bezash uchun hech nimani o'ylab topganim yo'q. Ruhlar aldamaydi, Georg, bundan ularga hech qanday foyda yo'q. Ammo, boshqa tomondan, men hammasini aytganimcha yo'q hali. Ayt-chi, qachonlardir kimdir shunday befoyda ish bilan mashg'ul bo'lganmi?

Apelsin qizni uchratish umididagi samarasiz urinishlarim haqida gapirishga hojat yo'q. Butun Frognerni aylanib chiqish uchun kunlar va haftalarni sarf qildim, ammo bu haqda gapirishning keragi yo'q. Bo'lmasa, hikoyam juda uzayib ketadi. Haftasiga kamida to'rt kun Frogneparkni aylanardim, uni ko'pincha goh katta ko'prik ustida, goh qahvaxonada, goh Monolit yonida ko'rgandek bo'lardim, lekin u doim boshqa bo'lib chiqadi. Tasodifan uni uchratib qolish umidida hatto kinoga ham bora boshladim. Filmlar meni deyarli qiziqtirmasdi. Reklamadan so'ng, Apelsin qizni topolmagach, kinoteatrdan chiqib ketardim, ba'zan esa boshqasiga kirardim. Men hatto o'z nazdimda uni qiziqtirishi mumkin bo'lgan filmlarni aniqlashga ham o'rganib qoldim, ulardan biri „O'zgarish davri“ deb atalardi, boshqasi, shveysarlarniki esa – „To'r to'quvchi ayol“. Lekin, va'da berganimdek, bunday narsalar haqida gapirib o'tirmayman. Mening qissamda faqat bitta qizil ip bor, Georg, sirli Apelsin qiz bilan haqiqiy uchrashuvlar,

xayoliy emas. Uni uchratmagan vaziyatlarga ahamiyat berishdan nima ma'no. Buning yutuq chiqmagan lotereya chiptalari haqida gapirishdan farqi yo'q. Sen bunday voqealarni ko'p eshitganmisan? Gazetada yoki biron haftanomada million yutolmagan odam haqida oxirgi marta qachon xabar o'qigansan? Bu ham shunday. Apelsin qiz haqidagi hikoya faqat yutuqlar e'lon qilinadigan ulkan lotereya haqidagi hikoyaga o'xshaydi. Bir haftaning o'zida qancha lotereya chiptalari to'ldirilishini tasavvur qilib ko'r. Ularni sig'ishtirish uchun katta xona, ehtimol, butun bir gimnastika zali kerak bo'lardi. Keyin milliondan kam yutuq chiqqan hamma chiptalar qayoqqadir g'oyib bo'ladi. Gimnastika zalining polida esa kichkina uyum qoladi, xolos. Gazetalarda biz ana o'shalar haqida o'qiymiz!

Demak, biz Apelsin qiz iziga tushishga urinamiz, faqat uni izlaymiz, bu hikoya ham faqat unga bag'ishlangan. Qolgan hamma narsani hozircha esdan chiqarish mumkin. Shahrimizning qolgan aholisi chegara ortida qoladi. Qolgan hamma ayollar qavs ichiga olinadi. Hammasi juda oddiy.

Men uni ibodatxonaga kirmagunimcha ko'rmadim, lekin u yerda, organchi Baxning prelyudiya<sup>1</sup>sini ijro qilayotganda... Muzlab qoldim, keyin isib ketdim.

Apelsin qiz bir qator narida o'tirardi, bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emasdi, ibodat paytida bir marta o'girilib, psalom<sup>2</sup>larning tovushlari quyilib kelayotgan xorlarga qarab qo'ydi. Bugun u olovrang anorakda emasdi, qo'lida apelsinli paketi ham yo'q

<sup>1</sup>Prelyudiya – kichikroq musiqiy asar.

<sup>2</sup>Psalom – psaltirdagi diniy qo'shiqlardan biri.

edi. Axir Rojdestvo-ku! U qora palto kiygan, sochlariga esa ko‘rinishdan kumushga, ha-ha, ertakdagi haqiqiy kumushdan yasalgan katta to‘qa qadalgandi. Balki, bu to‘qani ertakdagi Oppog‘oyning hayotini asrab qolgan yettita mitti odamdan biri yasagandir.

Ammo u ibodatxonaga kim bilan keldi ekan? Uning o‘ng tomonida bir erkak o‘tirardi, ammo ibodat davomida ular biron marta bir-birlari tomon egilishmadi. Aksincha, ibodat oxirida Apelsin qizning o‘ng tomonida o‘tirgan erkak boshqa ayolga egilib, qulog‘iga bir nima deb pichirladi. Bu manzara menga nihoyatda chiroyli ko‘rindi. Albatta, har kim o‘ngga va chapga o‘girilib qarashi mumkin, bunga haqi bor, o‘sha odam ham bundan istisno emasdi, lekin u o‘ngga – sen, balki, to‘g‘ri tomonga degan bo‘larding – o‘girildi. Qaysi tomonga o‘girilishni unga go‘yo men aytgandek edim.

Apelsin qizning chap tomonida semiz qari ayol o‘tirardi, ularning bir-birini tanishiga hech qanday ishora yo‘q edi, lekin ular Yungstorgetda uchrashgan bo‘lishlari ehtimoldan xoli emas, chunki keksa xonim menga sotuvchi ayollardan birini juda eslatayotgandi, kim bilsin, balki, u Apelsin qiz bilan Rojdestvo ibodatlariga birga borishni odatga aylantirgandir. Hamma narsa bo‘lishi mumkin, Georg, hamma narsa bo‘lishi mumkin! Apelsin qiz – bu sotuvchi ayolning sevimli xaridori, har qalay, apelsinlar xaridori. Unga hatto maxsus chegirma ham beriladi. Bir kilogramm Marokash apelsini uchun yetti krona – unchalik qimmat emas. Ammo Apelsin qiz uni olti yarimga sotib oladi, kamiga bir xalta bir-biriga o‘xshamagan, sara mevalarni saralab olishi uchun unga naq yarim soat apelsinlarni tanlashga ruxsat beriladi.

*Men pastorning gaplarini eshitmasdim, lekin, albatta, u Maryam, Yusuf va go'dak Iso haqida gapirardi, boshqacha bo'lishi mumkin emasdi. U bolalarga murojaat qilardi va bu menga yoqardi, axir bu kun ularning kuni edi. Ammo men faqat ibodatning tugashini kutib o'tirardim. Nihoyat, postlyudiya<sup>1</sup>ning ohanglari tinib, o'rindiqlardagi odamlar qimirlab gapga tushib qolishdi, men esa Apelsin qiz mendan oldin cherkovdan chiqib ketmasligi uchun jon-jahdim bilan urina boshladim. U mening o'rindig'im yonidan boshini biroz ko'targancha o'tib ketdi, meni payqaganiga ishonchim komil emasdi. Lekin u yolg'iz edi. Va men eslab qolgandan ham chiroyliroq edi. Menga Rojdestvoning hamma nurlari yagona, birgina qizda mujasam bo'lgandek tuyuldi.*

*Zalga yig'ilganlar orasida faqat men uning sirli jumboqlarga to'la haqiqiy Apelsin qiz ekanligini bilardim. Men uning biz o'rgangandan boshqa, butunlay boshqa qoidalar hukm suradigan ertakdan kelganiga ishonardim. Hayotimizni kuzatayotganini anglagandim. Ammo hozir u biz kabi ibodatxonaga keldi va biz bilan birga xaloskorimizning tavalludidan sevindi. Bu nihoyatda oliyjanob ish edi.*

*Men uning ortidan ketdim. Ibodatxona oldida odamlar to'xtab, bir-birlarini Rojdestvo bilan tabriklashardi, biroq mening nigohim Apelsin qizning gardanidagi sirli soch to'qasiga qadalgandi. Butun dunyoda faqat birgina Apelsin qiz bor edi, chunki faqat u bizning olamimizga boshqa olamdan kelgandi. U Grensen tomonga yurdi, men esa uning ortidan bor-*

<sup>1</sup>Postlyudiya – musiqiy asarning qo'shimcha bo'limi.

*dim. Qor gupillab yog'a boshladi, muzlagan qor parchalari havoda raqs tushardi. Apelsin qiz sochlariga qo'nayotgan qor parchalarini ko'rib, uning sochlari ho'l bolib ketadi, deb tashvishlandim. Biroq, unga yordam berishim uchun na soyabonim bor, hech bo'lmasa gazetam ham yo'q edi.*

*Buning telbalik ekanligini tushunardim, hali biroz bo'lsa-da fikrlay olardim. Ammo arafa edi-ku. Mo'jizalar davri allaqachon o'tib ketgan bo'lsa ham, bizda hamma narsa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bir sehrli kun qolgandi. Mutlaqo hamma narsa. Farishtalar panaga yashiringanda, apelsin qizlar hech nima bo'lmagandek ko'chalarda aylanib yurganda.*

*Evr Shlottsgatenga yetmay men uni quvib yetdim. Yonidan o'tayotib, o'girildim va quvnoq ovozda: „Rojdestvo muborak bo'lsin!“ dedim.*

*U sarosimalanib qoldi, shekilli, yoki o'zini shunday tutdimi, axir qizlarni tushunib bo'larmidi. Yuzida tabassum sezildi. Ayg'oqchiga o'xshamaydi. Men yaqinroq tanishishni istagan qizga o'xshaydi. U ham: „Rojdestvo muborak bo'lsin!“ – dedi.*

*Endi u yoyilib jilmaydi. Biz birga yurib borayapmiz. Menimcha, uning yonida yurishim uni sira xijolatga solayotgani yo'q. Bu meni asabiylashtiradi. Xijolat tortaman. Dumaloq shakllarga sira befarq qarolmaydigan bo'lib qolibman.*

*Bir narsa ma'lum: hoziroq bir nima deyish kerak, agar hech nima o'ylab topolmasam, o'zimni shoshayotgandek ko'rsatib, uni tark etishimga to'g'ri keladi. Ammo ixtiyorimda hali hech qachon bunchalik ko'p vaqt bo'lmagan. Vaqt manbayi yonida turib, so'zlash*

gobiliyatidan ayrilib, halokatga uchradi. Xayolimga daniyalik shoir Piet Xeyning misrasi keladi: „Hozir yashamayotgan ekansan, endi tirilolmaysan. Javob ber: sen yashayapsanmi?“

Ha, men yashayotgandim, ortiq cho‘zib bo‘lmasdi, chunki shu paytgacha umuman yashamagandim. Ich-ichimdan zavqqa to‘lganman. O‘ylab ulgurmay: „Grenlandiya nima bo‘ldi, u yerga bormoqchi emas-misan?“ dedim.

Bu ahmoqona eshitildi. Uning ko‘zlari pir-pir uchdi: „Lekin men butunlay boshqa tomonda yashayman“, — dedi u.

Nihoyat, u Osloning shunday nomlangan tumanini aytayotganini anglayman. Juda xijolat bo‘laman, lekin tanlagan yo‘limdan qaytmayman. „Men Grenlandiya muzliklarini nazarda tutyapman. Sakkizta it qo‘shilgan chana va o‘n kilogramm apelsin“, deyman.

U jilmaydimi yoki menga shunday tuyuldimi?

Shu daqiqada u, balki, tramvaydagi o‘sha voqeani allaqachon unutib yuborgandir degan o‘y keldi xayolimga. Hafsalam pir bo‘lib, oyog‘im ostidagi yer g‘oyib bo‘lgandek bo‘ldi, lekin shu bilan birga yengil tortdim. Atigi bir yarim oy oldin u meni deb apelsinli katta paketni tushirib yuborgandi, ilgari u bilan hech uchrashmagan, uchrashuvimiz bor-yo‘gi bir necha soniya davom etgan bo‘lsa ham.

Ammo Karl Yuxandagi qahvaxonada uchrashganimiz esida bo‘lishi kerak! Yoki u qahvaxonada har doim notanish erkaklarning qo‘lini ushlab o‘tiradimi? Bu o‘y menga zavq bag‘ishlamadi. U qizga gard yuqtirardi. Hatto haqiqiy Apelsin qiz ham duch kelganga e‘tibor qilavermasligi kerak.

„Apelsinlar?“ – so‘raydi u jilmayib.

„Xuddi shunday, – deyman men. – Chang‘ida ikki kishi bo‘lib Grenlandiyani kesib o‘tish“.

U to‘xtaydi. Men u bu suhbatni davom ettirishni xohlayaptimi-yo‘qmi, tushunmayman. Ishqilib, u meni Grenlandiya orqali xavfli safarga taklif qilyapti deb o‘ylamayaptimikan? Lekin shu payt u yana mening ko‘zlarimga qora ko‘zlarini tikadi va: „Axir sen o‘shasan, to‘g‘rimi?“ – deb so‘raydi.

Men bosh irg‘ayman, garchi savolini tushunganimga ishonchim unchalik komil bo‘lmasa ham, chunki mendan boshqa ko‘pchilik uni tramvayda apelsinlarga to‘la katta paket bilan ko‘rgandi. Ammo u o‘ziga o‘zi eslatayotgandek qo‘shib qo‘yadi: „Axir o‘shanda tramvayda meni sen turtib yubording, to‘g‘rimi?“

Men bosh irg‘ayman.

„Eh, sen, badbaxt nisse!“ – deydi u.

„Endi nisse senga apelsinlar haqini to‘lamoqchi“, – deb javob beraman men.

Apelsin qiz yurakdan kuladi, go‘yo voqeaning bunday tus olishi uning xayoliga kelishi mumkin bo‘lmagan kabi. U boshini bir yonga egib, „Buni unut. Sen juda yoqimtoy eding“, – deydi.

Yana chekinish qilayotganim uchun kechirasan, Georg, lekin sendan yana bir jumboqni yechishda menga yordam berishingni so‘rashim kerak. O‘zing bilib turgandirsan, bu voqeada nimadir mos kelmayapti. Apelsin qiz tramvaydagi o‘sha mash‘um sayr paytida menga g‘ashi kelib, hatto jahl bilan qaragandi. U xuddi liq to‘la tramvayning yo‘lovchilari yoki hatto yer yuzidagi barcha odamlar orasidan meni tanlagandek edi. Keyin,

bir hafta o'tgach, u meni qahvaxonadagi stol yoniga o'tirishga majbur qildi. Naq bir daqiqa ko'zlarimga tikildi va nihoyat qo'lini mening qo'limga qo'ydi. Uning qo'lida ajoyib tuyg'ularning sehrli ichimligi qaynayotgan edi. Mana, Rojdestvo qo'ng'iroqlari chalinishiga bir necha daqiqa qolganda yana uchrashdik. Shunda ham meni eslolmayaptimi?

To'g'ri, u bizga boshqa ertakdan, biznikiga o'xshamagan, bizdagidan butunlay boshqa qoidalar amal qiladigan ertakdan kelganini unutmazlik kerak. Zero, ikkita parallel voqelik mavjud, biri – quyosh-u oyli, boshqasi – Apelsin qiz menga eshigini birozgina ochib ko'rsatgan o'sha tushunib bo'lmas ertak. Shunday bo'lsa-da, faqat ikki taxmin mavjud edi, Georg: albatta, o'sha ikki uchrashuvdan so'ng, ehtimol, Yungstorgetdagi uchrashuvdan keyin ham, u meni juda yaxshi eslaydi, lekin o'zini meni tanimagandek tutyapti, shunchaki nayrang qilyapti. Bu birinchi taxmin. Ikkinchisi esa tashvishga soladi. Balki o'sha bechora qiz unchalik sog' bo'lmagandir, odamlar ta'biri bilan aytganda, biroz tomi ketgandir. Nima bo'lganda ham, xotirasida jiddiy muammolar bor. Ba'zi narsalarni eslolmasligi ehtimoldan xoli emas, olmaxonlarda shunaqa bo'lib turadi. Olmaxon shunchaki, goh bu, goh u joyda yashaydi, chunki „hozir yashamayotgan ekansan, endi tirilolmaysan. Javob ber: sen yashayapsanmi?“ Sho'x o'yinlar va daraxtlarda sakrab yurishlar olmaxonlarning xotirasida qolmaydi, u faqat o'zi bilan o'zi ovora. Apelsin qiz kelgan o'sha ertak qoidalari shunday. Darvoqe, men endi o'sha ertakning nomini esladim. U „Tushimga kir“ deb atalardi.

Ammo, Georg, boshqa tomondan: men haqimda unda qanday taassurot uygongan bo'lishi mumkinli-



gini eslash kerak. Men ham uning qo'lini o'zimnikiga qo'yib o'tirgandim, men ham uning ko'zlariga tikilgandim. Ammo ibodatxonadagi ibodatdan keyin nima qildim? Eng avvalo so'nggi uchrashuv uchun unga minnatdorchilik bildirish o'rniga, mening o'rnimda boshqa har qanday tarbiyali odam shunday qilardi, uni Rojdestvo bilan tabrikladim. Bu ham yetmagandek, undan Grenlandiyaga bormoqchiligi haqida ham so'radim! To'g'rirog'i, sakkizta it qo'shilgan chana va o'n kilogramm apelsin bilan Grenlandiya muzliklaridan kesib o'tmoqchiligi haqida. U men to'g'rimda qanday xayolga borishi mumkin edi? Balki u menda ikkita shaxs yashayapti deb o'ylagandir?

Nima bo'lganda ham, biz bir-birimizni eshitmay gaplashardik. Biz qoidalari juda murakkab bo'lgan to'p o'yinini o'ynardik. Biz to'xtovsiz koptok otardik, lekin ular nishonga borib yetmasdi.

Shu payt, kutilmaganda allaqayerdan bo'sh taksi kelib qoldi. Apelsin qiz qo'l silkidi, taksi to'xtadi va u taksiga qarab yugurib ketdi...

Men soat o'n ikkiga bong urishidan avval sehr tugamasligi uchun baldan chiqib ketishga majbur bo'lgan Zolushkani esladim. Saroy ayvonida qolgan bechora shahzodani o'yladim.

Ammo men shunday bo'lishini bilishim kerak edi. Apelsin qiz cherkov qo'ng'iroqlari Rojdestvo kirgani haqida xabar bermasdan avval uyga qaytishi lozim edi. Qoida shunday edi. Apelsin qizlar Rojdestvo qo'ng'iroqlari odamlarga o'z xabarini bergandan so'ng ko'chada yugurib yurmaydi. Aks holda, ularning chalinishidan nima ma'no? Bu qo'ng'iroq jarangi yigitning Apelsin qizni deb es-hushini yo'qotishiga xalal berishi kerak.

Chorakta kam besh edi, ko'p o'tmay Evr Shlottsgatenda mendan boshqa hech kim qolmasdi.

Men shoshib fikrlardim. Apelsin qiz meni butun umrga eslab qolishi uchun biron g'aroyib gap aytishim kerak, ixtiyorimda atigi bir soniya vaqt qoldi, xolos.

Undan qayerda yashashini so'rasam bo'lardi. Yo'limiz bir emasmi, deb so'rashim ham mumkin edi. Yoki o'sha o'n kilogramm apelsin, yana tug'dirgan noqulayligim uchun o'ttiz kronani qo'shib hisoblaganda, tezda yuz krona sanab bersam bo'lardi. Ammo men uning apelsinlarni chegirma bilan sotib olganini bilmasligim kerak edi. Hech bo'lmaganda, shaxsiy qiziqishimni qondirardim-ku, nima sababdan shuncha ko'p apelsin sotib olishini so'raganimda. Albatta, bunday zaxiraning hech qanday ajablanarli joyi yo'q.

Lekin nima uchun aynan apelsin? Nimaga olma yoki banan emas?

Ana shu soniya davomida men yana Grenlandiya orqali safar, Frognerda yashaydigan katta oila, bir dunyo apelsin jelyesi qo'yib, o'qishni bitirish sharafiga uyushtirilgan bayram, shu damda otasi, o'sha ikki hafta avval Iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil-lashtirish institutini tamomlagan, qolaversa, bir oy avval „Jasur va dovyurak“ yoshlar klubining raisi etib saylangan yigitning baquvvat qo'llarida yotgan emizikli go'dak, kichkina Ranveyg haqida ham o'yladim. Lekin yana to's-to'polon bolalar bog'chasiga bora olmasdim, menimcha. Bolalarni ko'rsam, rosa asabiylashaman.

Ammo men kerakli so'zlarni topolmadim, tanlov juda katta edi. Shuning uchun u taksiga o'tirayotganda, „Menimcha, seni sevaman!“ deb qichqirdim.

*Bu haqiqat edi, lekin shu so'zlarni aytganimdan afsuslandim.*

*Taksi ketdi. Ammo Apelsin qizsiz. U fikridan qaytdi. Nazokat bilan yo'lkadan asta chiqib, xuddi biz oxirgi besh yildan beri doim qo'l ushlab yurgandek, qo'limdan ushladi va yana olg'a yurmoqchiligini bildirib boshirg'adi. Biroq shu zahoti menga qarab, „Ammo hozir yana taksi kelsa, ketishim kerak. Meni kutishyapti“, – dedi.*

*Albatta kutishyapti, eri, mushakdor tog' va emizikli bola qiyofasidagi ajoyib troll. Yoki ota-onasi – otasi, menimcha, pastor yoki, ehtimol, biz hozirgina qatnashgan ibodatga aynan u rahbarlik qilgandir, – yana to'rt singlisi, ikki ukasi va yaqinda Petter ismli ukasi tilab olgan kuchukcha. Yoki o'sha archa tagida chiroyli o'ralgan boshmaldoqli qo'lqoplar, tryuger'lar, chang'i moyi va inuitcha-datcha hamda datcha-inuitcha lug'atni terib qo'ygan qotma, yumor hissidan mahrum Grenlandiyani zabt etuvchi erkak. Yo'q, Apelsin qiz bugun hech qanday imtihonni tamomlash sharafiga uyushtirilgan ziyofatga ketmayapti. Bugun u bolalar bog'chasidan ham ozod.*

*„Hademay qo'ng'iroqlar chalinadi, – deyman men. – Sen o'sha zahoti uyga ketishing kerak, to'g'rimi?“*

*U javob bermaydi, faqatgina qo'limni qattiq va mehr bilan siqadi, go'yo biz yerning tortish kuchidan qutulib, havosiz makonda uchib yurgandek, go'yo biz galaktikalararo sutni ichib olib, qarshimizda butun Koinot keng ochilgandek.*

*Biz tarix muzeyi yonidan o'tib, saroy bog'iga yaqin-*

---

<sup>1</sup>*Tryuger* – majnuntol novdalari yoki po'lat simlardan o'rilgan yog'ochrom ko'rinishidagi, qorda yurishga mo'ljallangan moslama.

lashamiz. Men istalغان daqiqada yangi taksi ko'rinib qolishi mumkinligini bilaman. Hademay qo'ng'iroq jarangi Rojdestvo kirganidan xabar berishini bilaman.

Men to'xtab, uning yo'lini to'saman. Nam sochlari-ni ohista silayman, qo'lim kumush to'qada to'xtaydi. To'qa xuddi yax kabi muzdek, shunday bo'lsa ham meni isitadi. Buni qara, men unga teginishga jur'at qildim!

Keyin: „Qachon ko'rishamiz?“ deb so'rayman.

U yerga qaraydi, keyin boshini ko'tarib menga boqadi. Qorachiq-lari bezovta alanglaydi, nazarimda, uning lablari titraydi. Shunda u menga keyin ancha bosh qotirishimga to'g'ri kelgan topishmoqni beradi. U: „Qancha kuta olasan?“ deb so'raydi.

Bu savolga men qanday javob berishim kerak edi? Balki, bu tuzoq bo'lgandir? Agar „ikki yoki uch kun“ desam, juda besabr bo'lib ko'rinardim. Agar „butun umr“ desam, uni yetarlicha samimiy sevmayman yoki, shunchaki, umuman nosamimiy deb o'ylardi. O'rtacharoq bir nimani tanlash kerak edi.

Men: „Yuragimning qoni qolmaguncha kutishim mumkin“, deb javob berdim.

U ishonmagan kabi jilmaydi. Barmoqlari bilan lablarimni siladi. Keyin: „Bu qanchalik uzoq?“ – deb so'radi.

Men qayg'urib bosh chayqadim va borini aytishni ma'qul ko'rdim: „Kim bilsin, balki, atigi besh daqiqadir, undan ortiq emasdir“, – dedim.

Javobim uni quvontirgani aniq, ammo u: „Biroz ko'proq sabr qila olsang, yaxshi edi...“ – dedi.

Endi men savol berdim. „Qanchalik ko'proq?“ deb so'radim.

„Meni yarim yil kutishingga to'g'ri keladi, – dedi u. – Agar yarim yil kuta olsang, biz yana ko'rishamiz“.

*Xo'rsindim, shekilli: „Nega bunchalik ko'p?“*

*Apelsin qizning yuzi tundlashdi. U o'zini qattiqqo'l bo'lishga majbur qilgandek edi. „Chunki sen meni shuncha vaqt kutishing kerak“, – dedi.*

*U hafsalam pir bo'lganini ko'rdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, „Ammo shuncha vaqt kuta olsang, keyingi yarim yil davomida sen bilan har kuni ko'rishamiz“, – deb qo'shib qo'ydi.*

*Nihoyat, qo'ng'iroqlar jarangladi, men uning nam sochlari va kumush to'qasidan qo'limni oldim. Xuddi shu daqiqada Vergelann-sveyenga taksi kirib keldi.*

*U ko'zlarimga qaraydi, go'yo bir nimani, eng avvalo, tushunishni iltijo qilib so'rayotgandek, u mendan bor kuchim va bor aqlimga zo'r berishni so'raydi. Yana uning ko'zlariga yosh qalqiydi. „Rojdestvo muborak bo'lsin... Yan Ulav!“ – dedi u zo'rg'a, keyin yo'lga yugurib chiqib, taksini to'xtatadi, o'tirib, xayrlashish uchun menga qo'l silkiydi. Bu taqdir ishorasi. Mashina tezlikni oshiradi, lekin Apelsin qiz orqa oynadan menga qarab qo'yish uchun o'girilmaydi. Menimcha, yig'laydi.*

*Men qotib qoldim, Georg. Hushim joyida emasdi. Lotereyadan million yutib oldim, lekin bu atigi bir necha daqiqa davom etdi, keyin chiptamda qandaydir nuqson borligini, yutuqni olmasligimni, olsam ham, ancha vaqt kutishimni aytishdi.*

*Kim o'zi u, o'sha sirli Apelsin qiz? O'zimdan bu haqda necha marta so'radim! Ammo endi yangi savol tug'ildi. U mening ismimni qayerdan biladi?*

*Qo'ng'iroqlar soborda ham, markazdagi boshqa cherkovlarda ham jom chalishda davom etar, Rojdestvodan xabar berardi. Ko'chalar kimsasiz edi, balki,*

*aynan shuning uchun dekabr osmoniga harab savolimni bir necha marta aytib qichqirgandirman, u xuddi qo‘shiqdek yangrardi: „U mening ismimni qayerdan biladi?“ Shu zahoti yana bir savol tug‘ilib, xayolimdan ketmay qoldi: nima uchun u men bilan yarim yildan keyingina uchrashmoqchi?*

*Xullas, boshimni qotiradigan narsalar bor edi. Ammo kunlar o‘tar, men esa mos javob topolmasdim, chunki qaysi javobni to‘g‘ri deb hisoblashim kerakligini bilmasdim. Taxmin qilishim uchun deyarli hech nima ma‘lum emasdi, garchi o‘shandayoq alomatlarini izohlashga berilib, tashxis qo‘yishni bilsam ham.*

*Apelsin qizning og‘ir kasalligi va unga apelsinli qattiq parhez buyurilganiga shubha yo‘q. Yarim yil Amerika yoki Shveysariyada davolansa kerak, chunki bu yerda, uyda unga ortiq hech qanday yordam bersholmaydi. Nima bo‘lganda ham, u har gal men bilan xayrlashayotganda yig‘ladi. Ammo, boshqa tomondan, u kirib kelayotgan yilning ikkinchi yarim yili davomida, ya‘ni iyuldan dekabrgacha har kuni ko‘rishishimiz mumkinligiga shama qildi. Apelsin qizni avval yarim yil kutishim kerak, keyin esa yarim yil davomida uni har kuni ko‘ra olaman. Bu xayoldan o‘zimni yettinchi osmonda his qilardim. Menga bunday kelishuv yoqardi, shikoyat qilishga asosim yo‘q edi. Bu kelgusi yil davomida kunora ko‘rishishimizni bildirardi. Aksincha – avval yarim yil davomida har kuni ko‘rishib, keyin hech qachon bir-birimizni ko‘ra olmaganimizda, yomonroq bo‘lardi.*

*Men yaqindagina tibbiyotni o‘rganishni boshladim, hammaga ma‘lumki, tibbiyotchi talabalarda ashaddiy badgumonlik tug‘iladi va ular o‘zlarining alomatlar-*

ni izohlash maqsadidagi detektivlarcha intilishlarida o'zlariga ham, boshqalarga ham tashxis qo'yishadi. O'zlarining Xudoga bo'lgan ishonchlarini shubha egallagan dinshunos talabalarda ham shunga o'xshash holat yuz beradi, huquqshunos talabalar esa, masalan, qonun va huquqqa tanqid bilan qarashni boshlashadi. Shuning uchun men irodali bo'lib, Apelsin qizning og'ir kasalligi, boshqa mamlakatda murakkab davolanish kursidan o'tishi kerakligi haqidagi o'ylarni xayolimdan chiqarib tashlashga urindim. Shusiz ham o'ylaydiganlarim yetarli.

Apelsin qizning hech qanday jiddiy kasali yoki shunchaki tobi qochishi ismimni qayerdan bilishiga izoh bo'lolmasdi. Keyin u nega har gal meni ko'rganda, yig'lay boshlardi? Uni nima bunchalik g'amga botirardi?

Senga Rojdestvoda meni ta'qib qilgan o'ylarimni hali uzoq aytib berishim mumkin. Frognerda yashaydigan katta oila haqida o'ylab topganimni gapirib bersammi? Yoki nima uchun Apelsin qizni yarim yildan keyingina ko'rishim mumkinligi to'g'risida tuzgan javoblaring ro'yxatini tuzib bera olardim. Javoblardan biri, bunday janr uchun eng oddiy javob shu ediki, Apelsin qiz bu olamdagilardan haddan tashqari yaxshi. Shuning uchun u Afrikaga, shu qit'adagi, ayniqsa, bezgak va boshqa dahshatli kasalliklar hukm surgan hududlarga eng kambag'al odamlar uchun oziq-ovqat va dori-darmon olib yashirincha jo'nagan. Bunday javob apelsinlar bilan bog'liq jumboqni izohlashi mahol edi. Biroq... Balki, ularni Afrikaga olib ketmoqchi bo'lgandir. Nega bu narsa avvalroq xayolimga kelmadi? Kim bilsin, balki, bor jamg'armasini biron yuk samolyotining charter reysiga sarflagandir?

Ammo, Georg, biz bir-birimizga Apelsin qizning fa-

qat haqiqiy izlaridan yurishga va'da berganmiz. Agar senga u haqdagi hamma o'y va tasavvurlarimni aytadigan bo'lsam, kompyuter qarshisida bir yil o'tirishimga to'g'ri keladi, menda esa buncha vaqt yo'q. Bu haqda o'ylash qanchalik og'ir bo'lmasin, hammasi juda oddiy.

Ammo tasavvur o'yiniga berilishning nima keragi bor? Apelsin qiz ko'p marta ko'zlarimga tikilganini, ikki marta qo'limdan ushlagani va bir marta barmoqlarini lablarimga tekkizganini hisobga olmaganda, bir-birimizga aytgan bir nechta so'zdan boshqa taskin bo'ladigan hech nima yo'q. Bundan chiqdi, bir-birimizga aytganlarimizni tartibga keltirib olish kerak. Men tezda gaplarimizni ro'yxatga terib, ularni izohlash uchun miyamga zo'r berdim.

Sen-chi, Georg, bu savollarga qanday javob bergan bo'larding? Birinchisi: unga nega shuncha apelsin kerak bo'ldi? Ikkinchisi: u nega mening ko'zlarim tubiga boqib, qo'limdan ushladi, ammo bironta ham so'z aytmadi? Uchinchisi: nima uchun Yungstorgetda apelsinlarni ikkita bir xili tushib qolmasligi uchun bunchalik sinchkovlik bilan tekshirib ko'rdi? To'rtinchisi: u bilan yarim yil ko'rishmasligimizda qanday sirli alomatni ko'ryapsan? Va nihoyat, beshinchisi, eng qiyin savol: u mening ismimni qayerdan bildi?

Agar sen bu rebusni yecha olsang, balki, eng asosiy savolga ham javob bera olarsan: kim u, o'sha Apelsin qiz? Bizlarning bittamizmi? Yoki boshqa dunyodan, ehtimol, hatto yana bizning oramizga qaytish imkoniga ega bo'lish uchun yarim yildan so'ng qaytishi kerak bo'lgan boshqa olamdan kelganmi?

Men bu alomatlarini izohlay olmasdim, Georg. Tashxis qo'ya olmasdim.



Apelsin qiz o'tirgan taksi Vergelannsveyda ko'zdan g'oyib bo'lib ulgurmay yangi taksi kelib qoldi. Uni to'xtatib, yaqinlarim bilan Rojdestvoni nishonlash uchun Xyumleveynga jo'nadim.

O'sha qishda Eynarning bitta ishqibozligi bor edi: Tyurivanskleyvda slalom<sup>1</sup>. Unga chang'i uchish uchun boshmaldoqli qo'lqop oldim va Rojdestvo tushligidan so'ng sovg'amni qanday ochishini tasavvur qilib sevindim. Bundan tashqari, mushugimizga bir banka eng qimmat konservadan sotib oldim. Onamga – keyingi paytlarda ko'p tilga olinayotgan shved-fin shoirasining she'rlar to'plamini. Shoiraning ismi Merta Tikkanen edi, to'plam esa „Asrimizning sevgi afsonasi“ deb nomlandi. Otamga „O'lik yugurish“ romani – norvegiyalik Erlin Yelsvikning birinchi romanini sotib oldim. O'zim uni yaqinda o'qib chiqdim va otamga ham qiziq bo'lsa kerak deb o'yladim. Aslida, yana bir sabab bor edi: o'sha paytda o'zim ham qachondir kitob yozishni orzu qilardim. Balki, aynan shuning uchun otamga yosh, hali tanilmagan muallifning kitobini sovg'a qilishni juda xohlagandirman.

U paytlarda men mehmonxona yonidagi kichkina xonada yashardim. Hozir, har qalay shu satrlarni yozayotgan paytimda, bu – sening xonang. Xatim senga yetib borgan-da, kimniki bo'lishi haqida esa, hech nima bilmayman.

O'sha yili Rojdestvoni qanday nishonlaganimizni gapirib o'tirmayman, axir biz bu hikoyada faqat bir voqea haqida gaplashishga kelishib oldik-ku. Faqat shuni aytishim mumkinki, Rojdestvo kechasi bir daqiqa ham ko'z yumganim yo'q“.

<sup>1</sup>Slalom – chang'ida tepalikdan tez tushish sporti.

Otamning xatini atigi yarmigacha o‘qib bo‘lganimda, tashqarilagim kelib qoldi. O‘zim aybdorman. Shuncha kola ichmasligim kerak edi.

Jin ursin, o‘yladim men. Endi men yaqinlarimning qiziquvchan nigohlari ostida mehmonxona, yo‘lak va dahlizdan o‘tishim kerak. Bu „saf orasidan o‘tish“ deyiladi, shekilli. Ammo boshqa choram ham yo‘q.

To‘rtovlon shu zahoti bosh ko‘tarib qaradi. O‘zimni menga qadalgan savolomuz nigohlarni sezmayotgandek tutishga urindim.

„Hammasini o‘qib bo‘ldingmi?“ – deb so‘radi oyim. U kattakon so‘roq belgisiga o‘xshardi: qiziq, nimalarni o‘qib chiqdi ekan?

„Biroz g‘amgin mutolaa, a?“ – dedi Yorgen. U xuddi otasiz qolganim uchun menga achinayotgandek edi, lekin u otamning o‘rnini bosish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qilardi. Boshqacha bo‘lishi mumkin ham emasdi, bu uning uchun ibodatga aylanib qolgan bo‘lsa ham kerak. Ammo u otamning o‘rnini, boshqacha aytganda, to‘shagini egallab turib, onamning eridan ayrilganiga achinishi mumkin emasdi-ku. Menimcha, Yorgen ko‘nglining tubida otam o‘lganidan xursand. Bo‘lmasa, onamga uylana olmasdi. Miriam ham qizi bo‘lmasdi. Eng asosiysi: uning hayotida men bo‘lmasdim. Ayti-shadi-ku, yomonlik bor joyda yaxshilik ham bo‘ladi.

Men uning o‘ziga katta qadahga viski quyganini payqadim. Yorgen ba‘zida viski ichardi, lekin faqat juma va shanba kunlari. Bugun esa dushanba edi.

Albatta uning mehmonxona o‘rtasida xijolatli qiyofada turishiga shu viski sabab emasdi, har qalay, men bu haqda viski tufayli yozmayapman. Menimcha, Yorgen uyimizda paydo bo‘lishidan ancha oldin, o‘z otam va-

fotidan biroz avval yozgan xatni o‘qish uchun xonamga qamalib olganimdan salgina dovdirab qolgandi. U paytda men hali nodon edim, ba’zan Yorgenni „ijarachi“ deb ataganman. Bu bolalarga xos edi. Lekin ba’zida uning g‘ashiga tekkim kelardi.

„Hali ko‘p o‘qiysanmi?“ – deb so‘radi bobom. U sigara chekardi. Bobom har doim masalaning mohiyatiga qarardi.

„Yana yarmi bor, – deb javob berdim. – Tashqariga chiqmoqchiman“.

„Senga yoqyaptimi axir?“ – deb aralashdi buvim.

„Izohga hojat yo‘q!“ – dedim. Siyosatchilar qiyin savollarga javob topa olishmaganda, jurnalistlarga shunday deyishadi.

Jurnalistlar va yaqinlarim o‘rtasidagi o‘xshashlik shunda ediki, ular ham, bular ham birdek qiziquvchan. Siyosatchilar va bolalarning o‘xshashligi esa – ularga javob berishlari unchalik oson bo‘lmagan nozik savollarni ko‘p berishlarida.

Sizlarni bu hikoya qahramonlari bilan yaqinroq tanishtirish vaqti yetganga o‘xshaydi, onamdan boshlayman, chunki har nima bo‘lganda ham, uni hammadan yaxshiroq bilaman.

Onam qirqni qoralab bo‘ldi, uni aqliraso, mustaqil ayol deyishim mumkin, har qalay, u o‘ylaganini aytishdan qo‘rqmaydi. Ba’zida bolalardek gapira boshlaydi, Miriamni o‘ynatganda demoqchiman. Men bilan ham bolalardek gaplashib qoladi, xuddi men hali ham kichkina boladek. Odatda, men bunga e’tibor bermayman, lekin ba’zan bundan jaqlim chiqadi, ayniqsa, sinfdoshlarim yonida shunday bo‘lsa. Onam do‘stlarimga mening kichkina bolaligimni namoyish qilishni yoqti-

radiganga o'xshaydi, vaholanki, aslida men undan bir necha santimetr balandman. Bir gal do'stim Martin bilan mehmonxonamizda shaxmat o'ynayotgan edik, kutilmaganda onam yonimizga taroq ko'tarib kelib, sochimni taray boshladi. Bu borada qanday fikrdaligimni ochiq aytishimga to'g'ri keldi. Aslida, onamga jahll qilishni yoqtirmayman, lekin o'sha safar shunchaki jahlim chiqqani yo'q, quturib ketdim – Martinning borligi meni bunday qiliqlarga xotima qo'yishim mumkinligini bildirishga majbur etardi. Onam oshxonaga qochib ketdi, lekin yigirma daqiqa o'tib, qaynoq kakao va bayram pirogini ko'tarib kirdi. Martin xursand bo'lganidan hushtak chalib yubordi, ammo undan avval bo'lgan voqeadan so'ng onamning g'amxo'rliги menga yoqmadi. Sovutkichimizda pivo yo'qmikan deb oshxonaga chopib kirishimga oz qoldi. Pivo topolmasam, hech bo'lmaganda, Yorgen viskisini qayerga berkitganini bilib olaman deb o'yladim hatto. Yaxshiki, Martin bunga hazil bilan yondashdi, keyin bo'lgan voqealarni gaplashib oldik, albatta. Menimcha, onam Badiiy akademiyada dars berishini bilib, Martinning unga hurmati nihoyatda oshdi. „Agar vaqt o'tib bizda yangi Pikasso paydo bo'lsa, uning qayerdan chiqqanidan xabaring bo'ladi“, – dedim men. Bo'lgan voqeadan so'ng onamning obro'sini biroz ko'tarib qo'yish burchim edi.

O'z onangni tasvirlash, uning didi, kamchiliklari va shu kabilarni muhokama qilish qiyin, lekin faqat unga xos bo'lgan ba'zi jihatlar bor. Onam shirinmiyani har qanday ko'rinishda yaxshi ko'radi. Hamma joydan shirinmiyali obakilarni topaman. Umuman, shirinmiyasi bor har xil konfetlarni. Oxirgi paytlarda onam ularni bizdan yashirincha yeydi, chunki Yorgen ikkimiz uning

mayliga qiziqsinib, buning yomon odatligini tushuntirdik. Yorgenning fikricha, shirinmiya odamlarda arterial qon bosimini oshiradi; albatta, u biroz mubolag'a qilyapti, lekin onam buni jiddiy qabul qilib, meni Yorgenga shirinmiyali obakilar va yana shirinmiyali qandaydir konfetlar solingan katta paketni ikkimiz shaharga boranimizda sotib olganini aytishga ko'ndirdi.

Agar onamning kuchli tomonlarini ikki so'zda ta'riflash kerak bo'lsa, buni „yaxshi kayfiyat“ degan bo'lardim. Ammo u holda, uning zaif tomoni – „yomon kayfiyat“ligini tan olishga to'g'ri keladi. Lekin, to'g'risi, bu ikki chegara orasidagi o'rtacha nimadirga ko'p guvoh bo'lmaganman. Onam, odatda, doim yaxshi kayfiyatda yuradi, ammo ba'zan tumshayib qoladi. Ya'ni u har doim bir yaxshi kayfiyatda bo'ladi, bir yomon, deyarli hech qachon „bular orasida“ bo'lmaydi. Oyimning sevimli iborasi: „Kelinglar, uxlashdan oldin qarta o'ynaymiz“.

Endi Yorgen haqida. Uning bo'yi atigi 170 santimetr, bo'yi onam bilan teng, bu esa, to'g'risini aytganda, erkak uchun kamlik qiladi. Ko'pchilik buni kamchilik deb hisoblagan bo'lardi, u holda, bu Yorgenning yagona kamchiligi emas, chunki u, bundan tashqari, malla ham. Yorgen oq-sariqdan kelgan, hech qachon oftobda toblanmaydi, yozda terisi pushti bo'lib qoladi, xuddi kuyib qolgandek. Xullas, u malla, hatto qo'llaridagi tuklari ham malla. Yorgenning modaga o'chligini aytgandim, biroz oliftaligi ham bor. Hamma erkaklar ham vannaxonasida uch xil dezodorant va soqol olish uchun to'rt xil loson saqlamaydi. Va hamma ham ko'chaga qora shoyi sharf va tuya junidan tikilgan och sariq kurtkada chiqishga botinavermaydi. Yorgen uchun esa bu hech gap emas. Asosiysi, bu unga yarashadi.

Bulardan tashqari, Yorgen KRIPOS (jinoyat politsiyasi)da tergovchi bo'lib ishlaydi. U doim onam ikkimizga „sir aytmasligi“ kerakligini eslatib turadi, ammo har doim ham o'zini tutolmaydi. Bir necha marta hali gazetada chiqmasdan turib katta jinoiy ishlar haqida xabar topganman. Yorgen menga ishonadi. Bu juda yaxshi xislat. U mening yugurib borib politsiya sirlarini sotmasligimni tushunadi.

Yorgen, ta'rif joiz bo'lsa, javon qayerda turishini aniq biladigan odamlardan, ammo bu uning har doim haq bo'lishini bildirmaydi. Yaqinda biz Ikeaga borib, yangi kiyim javoni sotib oldik, uni mening xonamga qo'ymoqchi edik. (Onam ikkisi anchadan beri narsalarim doim uyning hamma yog'ida sochilib yotganini aytaverib bezor qilishgandi. Bu mubolag'a edi, albat, chunki ularning ikkinchi qavatida men hatto paypog'imni ham tashlab ketmaganman. Gap shundaki, men u yerda deyarli bo'lmayman). O'sha javonni yig'ish uchun yarim kun, joyiga joylashtirish uchun oqshom bo'yi ovora bo'ldik. Yorgen javon eshik orqasida devor yonida turishi kerak deb hisoblardi, ammo men uning fikriga qo'shilmadim. Men javonni deraza yoniga qo'yishni xohlardim, garchi u salgina chiqib, derazani to'sib qo'ysa ham. Bu mening xonamligini, derazaning yarim santimetriga yopilib qolishi meni tashvishlantirmasligini aytdim. Unga bu uyda undan ancha avvaldan yashayotganimni, xona eshigi ochiq bo'lganda, eshigi ochilmaydigan javonga ega bo'lishdan ma'no yo'qligini eslatdim. Tabiiyki, gapimda turib oldim, Yorgen bilan bir sutka gaplashmadik, nihoyat gaplashib ketganimizda esa, buning uchun qanchalik zo'r berayotganini ko'rdim.

Yorgenning kuchli tomoni, menimcha, bor bo'sh vaqtini meni sportchi qilishga sarflashga tayyorligida edi. Hamma odamlarda mushak bor, ulardan foydalanish kerak deydi u. Kuchsiz tomoni esa, mening kelajak haqida tasavvurim boshqacha ekanligiga, sportchi bo'lmoqchi emasligimga tan berolmayotganida. U mening tinimsiz „Oy sonatasi“ni chalayotganimga ko'p e'tibor beradi deb o'ylamayman. Uning sevimli so'zlari: „Hammasi nuqtayi nazarga bog'liq“.

Bobom bilan buvim haqida hikoya qilishni boshlashimdan oldin aytishim kerakki, ularni juda yaxshi bilaman, har qalay, Yorgendan kam bilmayman, chunki ularnikida Tyonsbergda ko'p yashaganman. Ayniqsa, Yorgen onamning ko'nglini ovlab yurganda. O'shanda o'n yoshda edim. Meni bobom va buvimnikiga bir yoki ikki haftaga jo'natish imkoni bo'lmaganda, onamning Yorgen bilan munosabatlari yaxshilanib ketardi deb o'ylamayman. Faqat meni noliyapti deb o'ylamang, aksincha. Tyonsbergga borish menga har doim yoqqan. Qolaversa, onam va Yorgendan munosabatlarining boshlang'ich davri, ya'ni noz-karashma davrini tomosha qilishdan xalos etganlari uchun minnatdorman. Shusiz ham ko'nikishim kerak bo'lgan narsalar bor. Bir kuni ikkinchi qavatga ko'tarildim: ularga xayrli tun tilash uchun, shunda bir-birlariga chirmashib, parto'shak tagida yotishganini ko'rdim. Bu menga yoqmadi, shuning uchun burilib, sekin-asta pastga tushdim. Yorgen o'z otam bo'lganda, buni butkul boshqacha qabul qilarmidim. Ehtimol – yo'q. Men nafratlanmayotgandim. Lekin baribir ular yotoqxona eshigini yopishlari kerak edi. Menga uxlashga yotayotganlarini aytib qo'ysalar bo'lardi. O'shanda noqulay

vaziyatga tushmasdim. O‘zimni bunchalar yolg‘iz his qilmasdim ham.

Buvinim yaqinda yetmishga to‘ladi, deyarli butun umri davomida ashuladan dars bergan. U har qanday musiqani, ayniqsa, Puchchinini yaxshi ko‘radi. Hayotidagi asosiy maqsadi – meni „Bogema“ni sevishga majbur qilish, lekin, rostini aytganda, italyan operalari menga chuchmal tuyuladi, „Bogema“ ham bundan mustasno emas. Buvinim yana tabiatni, ayniqsa, qushlarni yaxshi ko‘radi. U hamma dengiz mahsulotlarini sevadi, hatto qisqichbaqasimonlardan maxsus salat ham kashf qilgan, uni „Tyonsberg salati“ deb ataydi (qisqichbaqa, dengiz qisqichbaqasi go‘шти va baliqli teftellar; buvinim yaratgan salatning o‘ziga xosligi ham teftellarda). Yana har kuzda meni qo‘ziqorin terish uchun Tyumega olib boradi (hali biron marta ham zaharlanganim yo‘q). Buvinimning kuchli tomoni: u hamma qushlarni va ularning qanday in qurishini biladi. Ojiz tomoni: afsuski, Puchchinining biron ariyasini xirgoyi qilmasdan ovqat pishirolmaydi. Men uni bundan qaytarishga urinib ham ko‘rmaganman, bundan foyda yo‘q, lekin buvinimning qo‘li juda shirin. Uning sevimli so‘zlari: O‘tiraqolsang-chi endi, Georg, kel, sen bilan gap sotamiz“.

Bobom nafaqaga chiqquncha Davlat meteorologiya xizmatida ishlagan va haligacha meteorologiyaga qiziqishini yo‘qotmagan – u Siri Kalvig beradigan ob-havo ma‘lumotlarini muhokama qilish uchun har kuni „Verdens Gang“ gazetasini sotib oladi. Buvinim sigara chekadi, lekin, o‘zining uqtirishicha, faqat bayramlarda. Aftidan, mening Tyonsbergga har kelishimni bayram deb hisoblaydi, qayiqdagi har bir sayrimizni ham. Bobom – quvnoq odam, hazilni yaxshi ko‘radi, quvnoqligi



buloqdek toshib turadi, keyin u hech qachon o'ylaganlarini aytishdan qo'rqmaydi. Agar unga buvimning turmagi yoqmasa, o'ylab o'tirmasdan aytadi. Turmagi yoqsa ham, o'ylab o'tirmasdan aytadi. Yilning yoz faslini bobom o'z jipiga bag'ishlaydi, unda orol va sohillarni aylanib yuradi, qishki vaqtni esa gazetalarga ajratadi. Ba'zida mahalliy gazetaga xabarlar yozib turadi, uni Tyonsbergning diqqatga sazovor kishisi deb hisoblasa ham bo'ladi. Buvamning kuchli tomoni: u dengizni juda yaxshi ko'radi. Kuchsiz tomoni: ba'zida u o'zini Tyonsberg hokimi deb his qilayotgandek ko'rinishi mumkin. Sevimli so'zlari: „Biz, boylarga yaxshi“.

Bir necha marta Eynar amakimni ham tilga oldim. Otam Apelsin qizni uchratgan o'sha kuzda Eynar amakim mening hozirgi yoshimda bo'lganini o'qish men uchun kulgili. Endi esa u katta savdo kemasida shturman, uylanmagan, lekin har bir portda bittadan sevimli ayoli bor degan mish-mishlar yuradi. (Bir vaqtlar kemada ham sevgilisi bor deb gumon qilardim. Har qalay, u bilan yarim yil birga suzgan, keyin qirg'oqda qolgan qandaydir Ingrid bor edi.) U menga ko'p marta o'zi bilan kemada xorijga olib ketishga va'da bergan, lekin hammasi quruq gap ekan, hech nima bo'lgani yo'q. Eynar amakimning kuchli tomoni: menimcha, u butun Norvegiyadagi eng zo'r amaki. Kuchsiz tomoni: hech qachon va'dasini bajarmaydi. Sevimli so'zlari: „Sen, hali dengizda bo'lmagansan, yigitcha“.

Va nihoyat, tasvirlash eng qiyin bo'lgan oxirgi shaxs mening o'zim, Georg Ryoed. Bo'yim 174 santimetr, demak, Yorgendan to'rt santimetrga balandman. Bu unga yoqadi deb o'ylamayman, ammo uning bundan baland (!) bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Tasvirlanayot-

gan Georgning ichida bo'lib, uni chetdan ko'rmayapman. To'g'ri, ba'zan uni yuzma-yuz ko'raman, ammo kamdan kam, faqat ko'zguga qaraganimda. Balki, bu buzuqlikdir, lekin, tan olishim kerakki, men o'z tashqi ko'rinishidan mamnun odamlar toifasiga mansubman. O'zimni chiroyli deb aytolmayman, ammo xunuk ham emasman. Bu masalada juda ehtiyotkor bo'lish kerak. Qayerdadir yigirma foizdan ko'proq ayollar o'zlarini mamlakatdagi eng chiroyli ayollarning uch foiziga kiritishini o'qigandim, o'zingiz ko'rib turganingizdek, bu borada hamma narsa mos kelmayapti. Necha foiz odamlar o'zlarini eng xunuk uch foizga kiritishini bilmayman, lekin, o'ylashimcha, butun umr o'z ko'rinishidan norozi bo'lish unchalik yoqimli emas. Yorgen mallaligidan va bo'yi atigi 170 santimetr ekanligidan qiynalmasa kerak deb o'ylashni istardim. Ammo undan to'g'ridan to'g'ri nimani his qilishini so'rashga botinolmayman.

Tashqi qiyofa bilan bog'liq qayg'um yaqinda peshanamda husnbuzar paydo bo'lgach boshlandi, ularning to'rt yoki sakkiz yillardan keyin yo'qolishi menga unchalik taskin bermayapti. Yorgenning uqtirishicha, u bilan yugurishni boshlasam, husnbuzarlar yo'qolar ekan, lekin men yugurmayman. Umuman buni bekor aytdi, chunki endi meni husnbuzardan qutulish uchun yuguryapti deb o'ylamasligi uchun yugurishni boshlamasligim aniq.

Ko'zlarim moviy, bu menga otamdan o'tgan, sochlarim sarg'ish, terim ancha oq, lekin oftobda yaxshi toblanaman. Kuchli tomonim: Georg Ryoed yer shari aholisining Somon yo'li tarkibiga kiradigan sayyorida yashayotganimizni tushunadigan qismiga mansub. Kuchsiz tomonim: hech qanday o'ziga xos belgim

yo‘q. Qandaydir alohida belgilarim bo‘lishini istardim. Sevimli iboram: „Rahmat, buni ham, unisini ham, uchinchisini ham xohlayman“.

Hojatxonadan chiqqach, yana mehmonxona orqali o‘tishimga to‘g‘ri keldi, lekin bu gal kattalardan hech kim menga bir so‘z aytmadi. Shunga qaror qilishgan, shekilli. Bir paytlar otam yashagan xonaning qulfidagi kalitni burab, orqamdan qulfladim-u, karavotga otildim. Endi o‘sha Apelsin qiz kim bo‘lganini hade-may bilib olaman. Agar otam u bilan yana uchrashgan bo‘lsa, albatta. Balki, u afsungar bo‘lgandir? Bo‘lmasa, qanday qilib otamni sehrlab ololgan? Balki, ular biron dahshatli voqeani birga boshdan kechirishgandir? Menga bu voqeani aytib berishni shunchalik muhim deb bilganini izohlovchi biron sabab bo‘lishi kerak. Otamni o‘limidan avval menga Apelsin qiz haqida hikoya qilib berishga undagan narsani tushunish uchun yana nimadir bilishim kerak.

Apelsin qiz qanaqasigadir Xabbl teleskopi yoki har qalay Koinot va fazo bilan bog‘liq degan o‘ydan hech qutula olmasdim. Otamning g‘alati so‘zlari xayolimga o‘tirib qolgandi. Men ortga varaqlab, yana bir marta o‘qidim: *...u faqat qo‘limni qattiq va mehr bilan siqadi, xuddi biz yerning tortish kuchidan xalos bo‘lib, havosiz makonda parvoz qilayotgandek, xuddi biz galaktikalararo sutdan ichib olib, qarshimizda butun Koinot keng ochilgandek.*

Balki, Apelsin qiz bizga boshqa sayyoradan uchib kelgandir? Axir otam uning boshqa olamdan kelganiga shama qildi-ku. Balki bironta NUJ<sup>1</sup>dandir? Yo‘q, albat-

<sup>1</sup>NUJ – noma‘lum uchar jism.

ta, men bunaqasiga ishonmayman, otam ham ishongan bo'lishi mumkin emas. Lekin, balki, u qiz ishongandir? Borgan sari og'irlashmoqda!

Xabbl teleskopiga yer atrofida soatiga 28 ming kilometr tezlikda bir marta aylanishi uchun 97 daqiqa kerak. Taqqoslash uchun, Xristianiya va Eydsvoll o'rtasida yurgan birinchi poyezdga 68 kilometr masofani bosib o'tish uchun ikki yarim soat kerak bo'lgan. Demak, Xabbl teleskopi Norvegiyada yo'lga qo'yilgan birinchi poyezddan ming karra tezroq harakatlanadi. (O'qituvchim bu taqqoslashni topqirlik deb baholadi!)

Soatiga yigirma sakkiz ming kilometr! Shunda chindan ham havosiz makonda parvoz haqida gapirsa bo'ladi! Balki „galaktikalararo sut“ haqida hamdir; har qalay, biznikidan million yorug'lik yil uzoqda bo'lgan galaktikalar suratlari haqida.

Xabbl teleskopining quyosh panelli ikkita qanoti bor. Har birining uzunligi o'n ikki metr, kengligi – ikki yarim, ular teleskopga 3 000 vatt elektr toki beradi. Lekin bizning sobordagi ikki kabutarimiz tarix muzeyi yonidan o'tib, saroy bog'iga yaqinlashishdan oldin har biri Xabbl teleskopidagi qanotga o'tirib, ko'z oldilarida namoyon bo'lgan Koinotni tomosha qilgan bo'lishi amrimahol.

Men qo'lyozmani olib, davomini o'qiy boshladim.

*„Rojdestvo va Yangi yil orasida Apelsin qizni izlashga urinmadim ham. Rojdestvo xotirjamlikni talab qilardi. Ammo yanvarda yana uni qidirishga kirishdim. Ahvolim juda yaxshi edi.*

*Ammo shuncha urinishlarimdan natija chiqmadi, shuning uchun u davr haqida aytadigan gapim yo'q. Sen hikoyamning ohangi va mantig'iga o'rganib qolgan bo'lsang kerak.*

Lekin baribir bir chekinish qilaman, u muhim holatga bog'liq, uni sen topishing kerak bo'lgan topishmoqlarim ro'yxatida tilga olmadim. Eski anorak! Uning bu hikoyaga qanday ahamiyati bor? Axir aynan u menda Grenlandiya muzliklari orqali qilinadigan xavfli chang'i safari haqidagi fikrni tug'dirgan. Aynan u meni Apelsin qiz balki, juda faqirdir deb taxmin qilishga majbur etgan. Ammo asosiysi, anorak, shubhasiz, qizning tabiat bag'rida bo'lishni yoqtirishidan darak berardi.

O'sha qishda necha marta chang'ida safar qildim! Balki, Osloning tog'li chekkalariga qilgan chang'idagi o'sha safarlarim mening chiniqqan jismimga bo'lajak xavfli kasallikni uzoqda tutishga yordam bergandir. Senga Apelsin qizni uchratolmagan chang'idagi safarlarim haqida ham, Kikut, Stryuken yoki Xarestyuadagi chang'i yo'llari haqida ham gapirib o'tirmayman. Mart boshida hamma Xolmenkollendagi mashhur yakshanba musobaqalarini kutardi. Traplindan sakrash to'g'risidagi o'y yuragimni zo'r quvonchga to'ldirardi. Xuddi mozaikaning hamma toshchalari o'z joyiga tushgandek, hammasi mos kelgandek. Xuddi men futbol bo'yicha sportlotoda o'n bitta pozitsiyani topgan, so'nggi, natijasiga deyarli shubha bo'lmagan o'n ikkinchi o'yin qolgandek.

O'sha yakshanba havo juda yaxshi bo'ldi, musobaqaga ellik mingdan ko'proq odam keldi. Oslo aholisining kattagina qismi yig'ildi o'sha kuni. Lekin, nima deb o'ylaysan, shundan necha foizi yilning istalgan faslida eski anorakda yuradi? Deyarli yuz foizi!

O'sha yakshanba Xolmenkollenga bordim, havo musobaqaga juda mos, shuning o'zi yarim muvaffaqiyat edi. Apelsin qizni uchratishimga ellik ming imkonim

bor, shuni aniq aytishim mumkin: u yerda, Oslodagi shu tomda eski anoraklar kam emasdi. Bu eski, turli-tuman rangdagi unniqib ketgan anoraklarning haqiqiy Eldoradosi edi. Shuning uchun tramplinga qiziqishim yo‘q, unga deyarli qaramasdim, anoraklarga tikilishning o‘zi yetarli. Bir necha marta Apelsin qizni ko‘rgandek bo‘ldim, ko‘ksimda quvonch hayqirig‘i tug‘ilayozgan ham edi, ammo u Apelsin qiz emasdi. Ikki marta sochga taqiladigan ertakdagidek kumush to‘qani ko‘rdim, lekin bu uning to‘qasi emasdi.

Musobaqada Apelsin qiz yo‘q edi! Bor hikoyam shu, Georg. Hamma urinishlarimning natijasi. O‘shanda kim g‘olib bo‘lganini eslolmayman ham. Apelsin qizni o‘sha yerda topolmaganimdan boshqa hech nimani eslolmayman. Men yo‘q narsani izlabman.

Shundan beri Xolmenkollenda faqat bir marta bo‘ldim. Bu so‘zlarni o‘qib, xotirangda biron nima uyg‘ondimi, bilmayman? Balki, uch yarim yoshingda sen bilan birga ko‘rganlarimizdan biron narsani eslab qolgan-dirsan?

Sen bilan pastda, polda turib sakrashlarni kuza-tardik. Aksiga olgandek, kam esadigan janub shamoli yozdagi kabi yerni yalab tashlagandi. Shu bois trassa uchun qorni butun Norvegiyadan yoki aniqroq aytgan-da, Finsedagi cho‘qqilardan yig‘ishga to‘g‘ri keldi. O‘shanda oltin medalni Yens Vayssflog oldi. Norvegiya-liklarning hafsalasi pir bo‘lgandi, albatta, biroq shov-shuv ko‘tarilmadi, chunki bundan bir yil avval ham Vayssflog g‘alaba qozongandi.

Senga bir sirni ochaman. O‘sha safar, yarim yil avval Xolmenkollenda bo‘lganimizda ham, odamlar orasidan Apelsin qizni qidirayotganimni sezganman. O‘n yildan

ko'proq vaqt o'tdi, lekin boshdan kechirilgan umidsizlik hali ham meni azoblaydi.

Mening vaqtim kam, bolaginam. Ammo bir necha haftani shu sababdan o'tkazib yubormayapman. Shunchaki aytishga arzirli gapim yo'q.

April oxirida bir kuni pochta qutisidan otkritka oldim. Shanba edi, Xyumleveyenga, ota-onamnikiga kelgandim. Otkritka menga jo'natilgandi, lekin men bir necha oydan beri Gyunnar bilan birga yashayotgan Adamstyundagi manzilga emas.

Endi e'tibor ber: otkritkada ertakdagi kabi apelsinzor tasvirlangan va katta harflar bilan „Patioo de los naranjos“ deb yozilgandi, ispanchani tushunishim bo'yicha, bu „Apelsinzor“ deganga o'xshash ma'noni anglatardi. Senga alomatlarni izohlashni yaxshi ko'rishimni ilgari ham aytgandim.

Apelsinzor! Yuragim gursillab urib ketdi. Sen endi qon bosimi nimaligini bilsang kerak, Georg? Ba'zi hollarda u birdan keskin ko'tarilib ketishi mumkin. Ammo bu kuchli tuygular va kechinmalardan voz kechishimizga asos bo'lolmaydi. Xullas, bunday holat xayfli emas (Lekin men baribir deltaplanda uchish yoki parashutdan sakrashga berilib ketmasligingni istardim. Hech bo'lmasa, batutda sakramagin!)

Otkritkani o'girib qaradim. Sevilya muhri va bir nechta so'z: „Sen haqingda o'ylayapman. Yana biroz kuta olasanmi?“

Shu xolos – na ism, na manzil bor, hech nima. Lekin, Georg, yuz chizilgandi, uning yuzi, olmaxonning yuzi. Uni xuddi haqiqiy, balki, hatto buyuk rassom chizgandek edi.

Deyarli ajablanmadim. Albatta, Apelsin qiz Apel-

*sinzorda bo'lishi kerak edi, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. U shunchaki o'z qirolligidagi uyiga, o'zining Apelsin mamlakatiga ketgan. Bu mening u haqdagi tasavvurlaringa mos edi.*

*Endi hamma narsa o'z joyiga tushdi. Hamma topishmoqlar yechildi. Hamma pasyanslar mos keldi. Apelsin qiz yarim yilga tanaffus qilgan, o'sha yerda, Sevilyada apelsinlardan ayrilish va menga yilning ikkinchi yarmida har kuni ko'rishishga bergan va'dasida turish uchun apelsinlarning mo'lligiga bo'lgan qiziqishini qondiryapti. Balki unga keyin yana tanaffus kerak bo'lar, lekin bu endi boshqa masala.*

*Juda hayajonga tushdim, miyam biz, tibbiyotchilar endorfin deb ataydigan moddani ortig'i bilan ishlab chiqara boshladi. Deyarli og'riqli bu hayajonni izohlaydigan maxsus ibora bor. Biz bemor eyforiyada deymiz. Men eyforiya holatiga tushdim. Oqibatda qishki bog'da o'tirgan ota-onamning yoniga yugurib kirdim – onam tebranma kursida, otam esa eski shezlong<sup>1</sup>da edi. Ularning oldiga uchib kirib, uylanmoqchiligimni aytdim. Bunday qilmasligim kerak edi, chunki o'n besh daqiqadan so'ng eyforiyam o'tib ketdi. Miyam endorfin ajratmay qo'ydi. Men hech nimani tushunmasdim. To'g'rirog'i, avvalgidan ham kamroq narsani tushunardim.*

*Apelsin qiz ismimni bilishini aytib qo'ydi. Endi esa familiyamni ham bilishi ma'lum bo'ldi. Undan ham ortiq, Georg, undan ham ortiq: kamiga Xyumleveyndagi eski uyimizning manzilini ham bilar ekan. Bunga nima deysan? Bu ajoyib edi, topishmoq nimani bildirishidan qat'i nazar, bu haqda o'ylash men uchun yoqimli edi.*

<sup>1</sup>Shezlong – yengil kreslning bir turi.



*Shu bilan birga Rojdestvo qo'ng'iroqlari chalinishidan va Zolushka kareta qovoqqa aylanib qolmasdan avval unga o'tirib ketishidan oldin birga qo'l ushlab Saroy bog'iga qarab yurgan o'sha sehrli daqiqalarda men-ga aytishni lozim ko'rmasdan Ispaniyaga ketib qolgani alam qilardi.*

*O'shandan so'ng, uning izini topishga urinishlarni hisobga olmaganda, uch yarim oy va yigirma beshta chang'i safari o'tdi.*

*Yoki Apelsin qiz Marokash, Kaliforniya va Braziliyada bo'lishga ulgurdi-mi? Endi apelsinlar butun yer yuzida foydali meva hisoblanadi va, mening fikrimcha, tabiatning muhim mevasi sifatida allaqachon tasdiqlanishi kerak edi. Balki Apelsin qiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Apelsin bo'limida maxfiy agent bo'lib ishlar? Qandaydir yangi, og'ir apelsin kasalligi tarqalmasa bo'ldi edi! U shuning uchun doim Yungstorgetga borib, u yerda hamma apelsinlarni ko'zdan kechirmaganmi? Har hafta sinov uchun olmaganmi?*

*Balki u hatto Xitoyda ham bo'lgandir? Apelsin so'zi „Xitoy olmasi“ degan ma'noni anglatishini allaqachon bilib olganman. Axir apelsinlar bizga Xitoydan kelgan. Lekin Apelsin qiz hozir bir paytlar ilk apelsin guli ochilgan Xitoyni ziyorat qilayotgan bo'lsa ham, men baribir unga „Apelsin qizga, Xitoyga“ degan manzil bo'yicha otkritka jo'natolmayman. Xitoy pochtasining Xitoyning milliarddan oshib ketgan aholisi orasidan uni topishi qiyin bo'lgan bo'lardi.*

*Mayli, Georg, hikoyaning davomiga o'taylik.*

*Men bir necha kunga darslardan javob oldim, ota-onamdan ming krona qarz olib, Madridgacha eng arzon chipta sotib oldim. U yerda bir maktabdosh*

do'stimning amakisinikida tunadim. Ertasiga ertalab-danoq Sevilyaga uchdim.

Uni o'sha yerdan topishimga ishonchim komil emas, lekin imkonim xuddi Xolmenkollendagidek edi. Yana bir farazim bor: agar uni Sevilyada, ya'ni yuzma-yuz uchratmasam ham, baribir uning yaqinda o'sha yerda bo'lganini, keyin, deylik, Marokashga jo'nab ketganini bilib olaman. Nima bo'lganda ham, Apelsinzorga borib, u to'yib nafas olgan o'sha betakror apelsin iforidan simiraman, u yurgan ko'chalardan o'taman va balki, u o'tirgan o'rindiqlarda ham o'tirarman. Sevilyaga borish uchun shuning o'zi kifoya edi. Qolaversa, uning izlarini, agar kira olsam, o'sha Apelsinzordan topishga umid qilardim. Men bunday muqaddas joyni chuqur jarliklar o'ragani, uni qopag'on it, qattiqqo'l qorovullar qo'riqlashi mumkinligini nazardan chetda qoldirmadim.

Ammo samolyot Sevilyaga qo'ngandan yarim soat o'tiboq, Apelsinzorga yetib bordim. U katta cherkovga tutashgan bo'lib, saranjom saqlanayotgan chiroyli apelsin bog'i ekan. Apelsin daraxtlari yetilib pishgan mevalarga to'lib, bir tekisda saf bo'lib turardi. Biroq u yerda Apelsin qiz yo'q edi. Aftidan, shaharga ketgan bo'lsa kerak. Hoynahoy, hademay qaytib keladi...

Men bama'ni fikr yuritishga urinardim. O'zimni Apelsin qiz bilan darrov, har qalay, ilk kunlari uchrashishga umid qilmaslikka ko'ndirishga harakat qilardim. Shuning uchun Apelsinzorda uch soatdan ko'p qolmadim. Keyin ketdim, ammo har ehtimolga qarshi daraxtlar orasidan otilib turgan eski favvorada unga xat qoldirdim. Shunday deb yozdim: „Men ham sen haqingda o'y-layapman. Yo'q, men ortiq kutolmayman“. Xat ustidan kichikroq tosh bostirib qo'ydim.

Xatga imzo qo‘ymadim, hatto kimga atalganini ham yozmadim, ammo yuzaki chiziqlar bilan unda o‘zimning yuzimni tasvirladim. Albatta, umuman o‘xshamaydi, lekin Apelsin qiz xatni topishi bilanoq unda kim tasvirlanganini tushunishiga shubha qilmasdim. U hademay bu yerga qaytishi kerak edi. Axir hech bo‘lmaganda, pochtoni olish uchun daraxtzorga kirib o‘tishi kerak-ku.

Xatni tosh ostiga qo‘yib, shaharda aylanib yurganimdan so‘ng bir soat o‘tib, birdan xato qilganimni anglab qoldim.

Apelsin qiz menga: „Meni yarim yil kutishingga to‘g‘ri keladi. Agar shuncha uzoq vaqt kuta olsang, biz yana ko‘rishamiz“, – degandi. Men nima uchun bunchalik uzoq kutishim kerakligini so‘ragandim. U oddiy va aniq javob bergandi: „Chunki sen meni xuddi shuncha vaqt kutishing kerak. Agar shu muddatga sabr qila olsang, unda keyingi yarim yil davomida sen bilan har kuni ko‘rishamiz“.

Tushunyapsanmi, Georg? Men qoidani buzdim. Uni yarim yil ko‘rmaslikka toqat qilolmadim. Shuning uchun keyingi yarim yilda endi uni har kuni ko‘rolmasdim.

Uning shartlarini tushunish oson, ammo bajarish qiyin edi. Har bir ertakning o‘z qoidalari bor, hoynahoy, aynan ular bir ertakni boshqasidan farqlab turadi. Bu qoidalarni tushunishga hech qanday hojat yo‘q. Ularga amal qilish kerak. Bo‘lmasa, va‘dalar bajarilmaydi!

Ana shunaqa, Georg. Nima uchun Zolushka baldan soat tungi o‘n ikkiga bong urmasdan avval uyga qaytishi kerak edi? Men bilmayman, Zolushka ham bilmasdi. Ammo o‘zingni ajoyib ertaklar mamlakatiga olib kirishga yo‘l qo‘yib berganingdan so‘ng bunday narsalarni so‘ramaysan. Shartlarni qabul qilish kerak, hatto eng

bema'nilarini ham. Shahzodaga yetishish uchun Zolushka baldan soat tungi o'n ikkiga bong urmasdan avval ketishi kerak edi. Qisqa va lo'nda. Qoida, bu – qoida, ularga amal qilish kerak. Bo'lmasa, u bal ko'ylagidan ayrilgan, aravasi esa qovoqqa aylanib qolgan bo'lardi. Shuning uchun u yarim tunda uyga qaytishga shoshildi va bunga erishdi, ammo yo'lda tuffisini yo'qotib qo'ydi. Va buni qarangi, shu tuffi shahzodaga Zolushkani topishga yordam berdi. Hasadgo'y opalari esa hamma qoidalarni buzishdi, shuning uchun ham oxiri xor bo'lishdi.

Mening ertagimda qoidalar boshqa edi. Agar menga Apelsin qizni qo'lida katta apelsinli paket bilan uch marta ketma-ket ko'rish nasib qilsa, u meniki bo'lardi. Menga uni Rojdestvo arafasida ko'rish va hatto undan ortig'i – Rojdestvo qo'ng'iroqlari chalinganda ko'zlariga qarash, qo'limni kumush to'qasiga tekkizish nasib qildi. Shundan so'ng faqat bitta sinovga bardosh berishim – uni yarim yil ko'rmasligim kerak edi. Negaligini so'rama, Georg, shunchaki qoidalar shunday. Agar shu oxirgi va hal qiluvchi sinovga – naq yarim yil Apelsin qizni ko'rmaslikka bardosh berolmasam, avvalgi barcha urinishlarim zoye ketadi, hamma narsani yo'qotaman.

Men Apelsinzorga yugurdim. Ammo xatim joyida yo'q, u Apelsin qizning qo'liga tushganiga ishonchim komil emasdi. Uni istalgan norveg sayyohi olgan bo'lishi mumkin.

Xat ustiga bostirib ko'ygan toshni ko'rib ulgurmasimdan, aytganimdek, xatning o'zi u yerda yo'q edi – xayolimga yangi o'y keldi. U garchi qoidalarni buzgan bo'lsam ham, menga biroz umid bag'ishladi. Bilasanmi, Georg, Apelsin qiz menga birinchi bo'lib xat yozdi, chunki unda mening manzilim bor edi. Men

unga javob yozdim, ammo javobni qaysi manzilga jo'natishni bilmaganim uchun xatimni o'zim, u menga salom yo'llagan joyga kuryerlik pochta bilan olib borishimga to'g'ri keldi.

Menimcha, hisob teng edi. Menimcha, u ham qoidani buzgandi. Nima deb o'ylaysan? Bu ertak qoidalarini sharhlashda mendan qolishmaysan.

To'g'ri, u nima bo'lganda ham, mendan sabr qilib, yana biroz kutishimni so'radi. Umuman olganda, u shunchaki kelishuvimizni yangiladi, xolos. Men esa taklif etilgan shartlarga ko'nolmasligimni, to'g'rirog'i, ortiq qoidalarga amal qilishni xohlamasligimni aytdim.

U: „Sen haqingda o'ylayapman. Yana biroz kuta olasanmi?“ deb yozdi.

Ammo unga ortiq kuta olmasligimni aytgan bo'lsam, seningcha, uning javobi qanday bo'lishi kerak edi?

Yo'q, men bularning barini tushunolmasdim. Men haddan tashqari manfaatdor shaxs edim. Faqat uni topishim qolgan edi.

Men hech qachon Sevilya, umuman, Ispaniyada bo'lmaganman. Ammo ko'p o'tmay sayyohlar guruhi bilan shaharning ko'hna qismiga borib qoldim. U Santa Cruz deb ataladi va apelsin daraxtlari mo'l bo'lgan katta ibodatxona maydoniga o'xshaydi.

Apelsin qizni qidirib bir maydon ketidan ikkinchisini ko'zdan kechirib, nihoyat ochiq havodagi qahvaxonaga kirdim va katta apelsin daraxti soyasida bo'sh joy topdim. Santa Cruzdagi hamma maydonlarni aylanib chiqdim va shu, eng chiroylisini topdim. U Plaza de la Alianza deb atalardi.

Men o'tirib shunday mulohaza qildim: agar katta shaharda bir kishini izlasang va uning qayerdaligi haqi-

da hech qanday taxminga ega bo'lmasang, butun shaharni izlab sarson bo'lgandan ko'ra, markazning biron joyida o'tirib, izlayotgan odamingning o'zi yoningga kelmaguncha kutgan ma'qul.

Xulosa chiqarishdan avval oxirgi gapni ikki marta o'qib ko'r, Georg. Men esa bunday deb o'ylardim: Sevilyaning eng chiroyli joyi Santa Cruz deyiladi, u yerda esa eng chiroyli maydon – Plaza de la Alianza bor. Agar Apelsin qiz menga biroz o'xshasa, ertami-kechmi men o'tirgan joyga keladi. Bir gal u bilan Oslodagi qahvaxonada uchrashgandik. Yana bir marta – ibodatxonada. Bizga eng ko'p nasib qilgani, tasodifan bir-birimizni uchratish edi.

Men maqsadga yetgunimcha qahvaxonada o'tirishga qaror qildim. Soat uchdan oshmagan, Plaza de la Alianzada yana kamida sakkiz soat o'tirishim mumkin edi. Bu menga ko'p tuyulmasdi. Oslodaligimdayoq o'zimga yaqinroqda joylashgan kichik pansiondan joy buyurtirgandim. U yerda meni o'n ikkigacha qaytishim kerakligi to'g'risida ogohlantirishdi, chunki keyin ular eshiklarni tambalashar ekan. (Hatto ispan pansionlarida ham hamma amal qiladigan o'z qoidalari bor!) Apelsin qiz maydonda soat o'ngacha paydo bo'lmasa, o'sha yerda ertaga kun bo'yi – quyosh chiqqandan to botgunga qadar kutishga qaror qildim.

O'tirib kutdim. Kelib-ketayotgan odamlarni, mahalliy aholini ham, musofirlarni ham kuzatdim. Va bizning olam – chiroyli joy deb xulosa qildim. Meni yana atrofmni qurshab turgan hamma narsadan tug'ilgan eyforiya egallab oldi. Biz, bu dunyoda yashayotganlar kimimiz? Bu maydondagi har bir odam o'y va xotiralarga, orzu va intilishlarga to'la boylik koni edi. O'zim yerdagi

hayotim markazida edim, lekin bu maydondagi boshqa hamma odamlarga ham tegishli edi. Masalan, ofitsiant bu qahvaxonaga kelgan hammaga xizmat ko'rsatishi kerak edi, to'rtinchi finjon qahvani buyurganim uchun, uning nazarida stolni uzoq vaqt egallab turganimni tushunardim, axir bu yerga o'tirganimdan beri uch yoki to'rt soat o'tdi. Yarim soatdan keyin to'rtinchi finjon qahvam bo'shab qolgach, u tezda yonimga kelib, xushmuomalalik bilan haqini to'lash-to'lamasligimni so'radi. Lekin men hali ketolmasdim, axir Apelsin qizni kutayotgandim, shuning uchun katta ispancha yengil assorti gazak va kola buyurdim. Apelsin qiz kelmaguncha hech qanaqa vino yoki pivo ichmayman, kelganda shampan ichamiz, deb o'ylardim men. Ammo Apelsin qiz kelmadi. Soat yettiga bong urdi, hisobni so'rashim kerakligini sezdim. Birdan qanchalik soddaligimni tushunib qoldim. Men uyda, Xyumleveyenda pochta qutisidan Sevilyadan jo'natilgan otkritkani olganimdan beri ancha kun o'tdi, bu yerga kelishimga ham shuncha kun ketdi. Apelsin qiz hali ham avvalgidek qo'l yetmas edi, shubhasiz, uning men bilan mushuk-sichqon o'ynashdan ko'ra muhimroq ishlari bor edi, u hozir Salamankadami yoki Madriddami ispanchani o'rganyapti. Men hisob bo'yicha pul to'lab, qahvaxonadan chiqib ketishga shaylandim. O'zimning to'g'ri xulosa chiqarishga qodir emasligimdan hafsalam pir bo'ldi, ertagayoq Norvegiyaga qaytib ketishga qaror qildim.

Bilmadim, sen biron marta urinishlaring besamar ketganidan o'kinganmisan? Masalan, qor va pilchilagan loyda biron zarur narsani xarid qilish uchun shaharga yo'l olding, ammo do'konga yopilganidan so'ng yetib bording. Bunday narsalar asabiylashtiradi, ammo

hammasidan ham ko'proq o'z nodonligingdan jig'ibiyron bo'lasan. Aynan shu urinishlar bekor ketganidan uyalishga o'xshash tuyg'u meni qamrab oldi. Ammo men tramvayda shaharga kelganim yo'q-ku. Men pochta otkritkasidan boshqa hech bir ma'lumotsiz Sevilyaga keldim, bu yerda hech kimni tanimasdim, o'sha isqirt pansiondan boshqa boradigan joyim yo'q edi, ispan tilida ham gapirmasdim. O'zimni urib yuborgim keldi, lekin bu yanada ahmoqona ko'rinar va meni battar xijolatga solgan bo'lardi. Men o'zimni boshqacha jazolashga so'z berdim, hayotimda nima bo'lishidan qat'i nazar, endi hech qachon o'sha Apelsin qiz bilan ishim bo'lmaydi.

Shunda u kelib qoldi, Georg! U kutilmaganda Plaza de la Alianzada paydo bo'lganda soat yetti yarim edi!

Uning egnida ertakdagidek yozgi, men qarab turgan baland devor bo'ylab o'sgan bugenvilleya gullaridek yorqin qizil ko'ylak bor edi. Balki, u ko'ylakni uyqudagi malikadan qarz olgandir, deb o'yladim men yoki biron paridan o'g'irlab olganmi?

U meni payqamadi. Maydonda qorongi cho'ka boshladi. Havo issiq edi, hatto judayam issiq, ammo mening birdan etim uvisha boshladi.

Shu onda – sendan hech narsani yashirishni istamayman – shu onda uning yonida yigirma besh yoshlardagi yigitni ko'rdim. U baland bo'yli, kelishgan, oqish soqolli edi. Ko'rinishdan qutb tadqiqotchisiga o'xshardi. Ayniqsa, uning ko'rkamligi meni xavotirga solib qo'ydi.

Shunday qilib, men yutqazdim. Lekin bunga o'zim aybdor edim. Men qoidalarni buzdim. Tantanali va'dani ham buzdim. O'zimga tegishli bo'lmagan narsaga, qoidalari mening hukmimda bo'lmagan ertakka bostirib



kirdim. „Meni yarim yil kutishingga to‘g‘ri keladi, – degandi u. – Agar shuncha uzoq vaqt kutolsang, biz yana ko‘rishamiz...“

Nihoyat, ular meni payqashdi, shahzoda o‘gay onasi va yovuz opalarining jabridan xalos qilguncha, Zolushka kulini sidirib oladigan pechkaga o‘xshagan bo‘lsam kerak. Ular deyapman, chunki birinchi bo‘lib meni Apelsin qiz payqagani yo‘q. Birinchi bo‘lib meni soqolli erkak sezdi. (Biron narsani tushunyapsanmi, Georg? Men – tushunmayapman.) U Apelsin qizning qo‘lidan tutib, meni ko‘rsatdi va butun maydon eshitgudek baland ovozda: „Yan Ulav!“ dedi. Uning talaffuzidan daniyalik ekanligini sezdim. Uni ilgari sira ko‘rmaganman.

Bularning bari bir necha soniyagina davom etdi, ammo shu sahnani o‘zing tasavvur qilishga urinib ko‘r. Apelsin qiz meni apelsin daraxti tagida ko‘radi. U maydon o‘rtasidagi katta favvora yonida qotib qolib, mendan ko‘zini uzmaydi, u qotib qoldi, bu holatdan yana bir yoki ikki soatgacha qutulolmaydigandek tuyuladi. Biroq u o‘ziga keladi. Uyqudagi malika yuz yil uxladi, ammo endi uyg‘onadi, xuddi bir daqiqa avval uyquga ketgandek. U yonimga yugurib kelib, bo‘ynimdan quchadi va daniyalik aytgan gapni takrorlaydi: „Yan Ulav!“

Endi daniyalikning navbati. U beso‘naqaylarcha yurib, stolim yoniga keladi, menga baquvvat qo‘lini uzatib, ochiq chehra bilan: „Seni sog‘-omon ko‘rganimdan xursandman, Yan Ulav!“ – deydi. Apelsin qiz stolim yoniga o‘tirib bo‘lgan, daniyalik qo‘lini uning yelkasi-ga qo‘yib: „Men sizlarga xalal bermay“, – deganicha bizga qo‘l silkiydi, ortga tislanib buriladi va og‘ir qadam bosib, maydon orqali sudralib ketadi. Nihoyat, u ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Omadim chopganga o‘xshaydi.

U stol yonida mening qarshimda, qo'llarini qo'llarimga qo'yib o'tiribdi. Samimiy, balki, biroz istehzoli jilmayadi.

„Sabring chidamabdi, – deydi u. – Meni kuta olmanding!“

„Kutolmadim, – tan olaman men. – Yuragim qon bo'lib ketdi“.

Men unga qarayman, u esa hamon jilmayadi. Men ham jilmayishga urinaman, lekin eplolmayman.

„Bundan chiqdi, men kelishuvni buzdim“, – qo'shib qo'yaman men.

U o'ylanib qoladi, keyin: „Ba'zan hayot bizni kutishga majbur qiladi. Senga xat yozdim. Yana biroz kutishga sabring yetishini xohlagandim“, – deydi.

Yelkalarim titrab ketadi. „Bundan chiqdi, men yutqazdim“, – deyman men.

„Har qalay, quloqsiz bo'lib chiqding, – deydi u nim tabassum bilan. – Ammo, ehtimol, hali biron narsani saqlab qolish ham mumkindir“.

„Qanday qilib?“

„Hammasi o'z kuchida qoladi. Faqat hamma gap shundaki, bunga sening sabring yetadimi?“

„Tushunmadim“, – deyman men.

U mehr bilan qo'limni siqadi. „Nimani tushunmayapsan, Yan Ulav?“ – so'raydi u pichirlab, bu so'zlarni ichidan go'yo puflab chiqaradi.

„Qoidalarni, – deb javob beraman men. – Men qoidalarni tushunmayapman“.

O'rtamizda uzoq suhbat boshlanadi.

Georg! O'sha oqshom bir-birimizga aytgan hamma so'zlarni gapirib berishga hojat yo'q, ularni eslolmadim ham. Bundan tashqari, hozir tilingda ko'p savollar

aylanayotganini tushunaman, sen ularga tezroq javob olishni istaysan.

O'zim ham birinchi navbatda Apelsin qiz qanday qilib ota-onamning manzilini topganini bilishni istardim. Men unga savolomuz qarab o'tirardim, kutilmaganida u mehr bilan: „Yan Ulav... Nahotki, chindan ham meni eslolmaysan?“ – deb so'radi.

Men ajablandim. Unga ilgari hech qachon ko'rimgandek qarashga urinib ko'rdim. Qora ko'zlar, yuzdagi nozli ifoda. Keyin nigohim uning yalang'och yelkalaridan – u e'tiroz bildirmadi – va yengil ko'yligidan sirg'aldi. U menga murakkab topishmoq berdi, men Apelsin qizni faqat qishda bo'lgan ahyon-ahyondagi o'sha uchrashuvlarimiz orqali eslardim. Agar uni yana qachondir uchratgan bo'lsam, butunlay unutibman, hozir men faqat uning nihoyatda chiroyliligini o'ylay olardim. Xuddi farishtadek, deb o'ylardim men yoki Pigmalion, afsonaviy yunon haykaltaroshi orzusidagi ayolni marmardan yo'nib ishlagan, shundan so'ng muhabbat ma'budasi unga rahm qilib, haykalga jon ato qilgan. Apelsin qizni oxirgi marta ko'rganimda, uning egnida qora qishki palto bor edi. Endi esa u shunday yengil kiyingandiki, bu meni xijolat qilardi, nazarimda, men unga haddan tashqari yaqinlashib qolgandim. Shunday bo'lsa-da, unda hech qanday tanish jihatni ko'rmasdim, ammo, balki, xuddi shu narsa meni xijolatga solgandir?

„Meni eslashga urinib ko'r, – takrorladi u. – Eslashingni judayam xohlayapman“.

„Hech bo'lmasa bironta eslatuvchi so'z ayt“, – so'radim men.

U: „Xyumleveyen, tentak!“ – dedi.

Xyumleveyen. Men Xyumleveyenda katta bo'lgan-

man. O'sha yerda tug'ilganman. Butun umr yashaganman ham. Adamstyunda so'nggi yarim yil davomida yashadim, xolos.

„Yoki Irisveyen“, – dedi u.

Bu ham o'sha yerda edi. Xyumleveyen Irisveyendan boshlanardi.

„Unda Klyoverveyen!“

Bu ham qo'shni joy edi. Bolaligimda ko'pincha Klyoverveyenda villalar orasidagi katta tepalikda o'ynardim. Tepalik daraxt va butalarga to'lib ketgan. U yerda yana qum solingan yashik va arg'imchoq ham bor edi, shekilli. Bir necha yil oldin u yerga bir nechta o'rindiqlik qo'yishdi.

Men yana Apelsin qizga tikilib qaradim. Va chuqur gipnozdan so'ng o'zimga kelgandek, butun vujudim bilan titrab ketdim. Uning qo'llarini mahkam-mahkam siqdim. Yig'lab yuborishimga bir bahya qoldi. „Verunika!“ dedim nihoyat.

U yoyilib jilmaydi. Nazarimda, uning ham ko'zlarida yosh qalqqandek bo'ldi.

Men uning ko'zlariga tikildim va endi nigohim chetga og'masdi. Endi meni hech nima qaytarolmasdi. Jur'atsizlik yo'qoldi. Men uning qarshisida ojiz edim. Hech qanday shartlarsiz uning marhamatiga taslim bo'ldim. Bu menga zo'r yengillik bag'ishladi.

Jigarrang ko'zli qiz Irisveyenda yashardi. Biz yurishni o'rganganimizdan beri, har qalay, gapirishni o'rganganimizdan beri u bilan har kuni birga o'ynardik. Birinchi sinfga birga chiqdik, lekin birinchi sinfda o'qiyotganimizda, Rojdestvodan keyin Verunika oilasi bilan Oslodan ko'chib ketdi, o'shanda yetti yoshda edik. Bunga o'n uch yil bo'ldi. O'shandan beri biron marta ko'rishmadik.

Biz u bilan Klyoverveyendagi o'sha tepalikda, butalar, gullar va daraxtlar orasida o'ynardik. O'sha yerda ikkimizning olmaxonlarcha, ha-ha, haqiqiy olmaxonlarcha hayotimiz o'tardi. Agar o'shanda Verunika Irisveyendan ko'chib ketmaganda ham, beg'ubor bolaligimiz baribir ko'p o'tmay tugardi. Maktabda meni shundoq ham qizlar bilan o'ynashni ma'qul ko'radi deb mazax qilishardi.

Men ikkimizdan qaysidir birimiz uyda eshitib qolgan va o'yinlarimiz davomida xirgoyi qilgan qo'shiqni esladim: „Qiz bilan bola yashardi – ikkov o'zining kichkina saltanatida...“

„Lekin sen meni tanimading“, – dedi u, shunda uning hafsalasi pir bo'lganini, hatto ranjiganini tushundim. Birdan qarshimda yigirma yoshli bo'y yetgan qizni emas, yetti yoshli qizaloqni ko'rdim.

Men yana unga qaradim. Qizil ko'ylak tasvirlab bo'lmaydigan darajada nafis va jozibali edi.

Boshimni ko'tarib, apelsin daraxti barglari orasida sariq kapalakni ko'rdim. Bu men shu kuni ko'rgan birinchi kapalak emasdi. Ular ko'p edi.

Kapalakka ishora qilib, „Qanday qilib kapalakka aylangan kichkina qo'g'irchoqni tanishim mumkin?“ dedim.

„Yan Ulav!“ – dedi u jiddiy. Shu bilan qizaloqning ulg'aygani haqida ortiq bir so'z aytilmadi.

Hali ham unga beradigan savollarim ko'p edi. Apelsin qiz bilan uchrashuv meni hushimdan ayirdi, har qalay, butun borlig'imni beqaror qilib qo'ydi. Men darrov asosiy masalaga o'tdim.

„Biz Osloda ko'rishdik. Deyarli uch marta. Shundan beri boshqa hech nimani o'ylamadim. Keyin sen

g'oyib bo'lding, uchib ketding desa ham bo'ladi. Seni ushlab qolish kapalakni tutishdan ham qiyinroq edi. Lekin yana ko'rishish uchun olti oy kutishning nima keragi bor?"

Tabiiyki, u Sevilyaga ketishi kerak – bu menga tushunarli. Ammo unga Ispaniyada yarim yil yashash nimaga kerak bo'ldi? Anavi daniyalik deb emasmikan?

Sen uchun-ku, javobni topish oson, Georg. Men esa topolmasdim, axir sen onang nima ish qilishini bilasan-ku. Umid qilamanki, apelsin daraxtlari tasvirlangan katta kartina hali ham xollda osig'liq turibdi? Onang, odatda, – albatta, buni yozayotgan paytimda – allaqachon bu kartinani chizgan davrida ulg'ayganini aytdi, ammo sen uchun umid qilamanki, uni hech kimga berib yubormagan, chordoqqa ham tiqib qo'ymagan. Agar kartina xollda bo'lmasa, qayerdaligini onangdan so'ra.

Menga esa shunday javob berdi: „Meni badiiy maktabga, to'g'rirog'i, tasviriy san'at maktabiga qabul qilishdi. Shu kursni tamomlashga qat'iy qaror qildim, bu men uchun juda muhim“.

„Tasviriy san'at maktabiga? – deb takrorladim. Buni qara! – Ammo nega bu haqda menga arafada ayt-mading?“

U biroz gangib qoldi, men gapimni davom ettirdim: „Qor yog'gani esingdami? Sochlaringni silaganim-chi? Birdan qo'ng'iroqlar chalinib, taksi kelib qolgani yodingdadir? Sen jo'nab qolganding!“

U: „Hammasi esimda. Xuddi romantik filmning birinchi sahnasidek“, – dedi.

„Unda o'zingni shunchalar sirli tutishingning nima keragi bor edi?“

Uning yuzi jiddiylashdi. U: „Menimcha, sen menga o‘shanda, tramvayda yoqib qolding. Yanayam yoqib qolding desa ham bo‘ladi, lekin butunlay boshqachasiga. Keyin biz yana bir necha marta uchrashdik. Ammo yarim yil sabr qila olamiz deb o‘ylagandim. Bu bizga faqat foydali bo‘ladi deb bilibman. Bolalikda juda yaqin edik. Ammo endi bola emasmiz-ku. Meni qayta kashf etishingni xohlagandim. Shuning uchun kimligimni aytmadim“, – dedi.

Nima deb javob berganim esimda yo‘q, Apelsin qizning menga aytgan hamma gaplari ham esimda qolmadi, lekin suhbatimiz uzoq davom etgani sari bir mavzudan ikkinchisiga o‘tib ketardik.

„Daniyalik-chi?“ – so‘radim men qulay fursat yetganda. Savolim xuddi iltijodek eshitildi. Bu ahmoqona edi. O‘zimni tentakdek his qildim.

U jiddiy javob berdi: „Uning ismi Mogens. Tasviriy san‘at maktabida o‘qiydi. Juda qobiliyatli. Bu yerda Skandinaviyadan yana kimningdir borligi menga dalda beradi“.

Ko‘z oldim qorong‘ilashdi. U ismimni qayerdan bilishini so‘radim.

Nazarimda, u qizardi, lekin qasam ichmayman, balki, bu shunchaki qizil ko‘ylakning aks etgan shu‘lasi bo‘lgandir, chunki qorong‘i cho‘kib qolgan, atigi ikkita fonus maydonga sarg‘ish nur sohib turardi. Biz „Ribera del Duero“ sharobini buyurdik.

U tushuntirdi: „Men sening portretingni chizdim. Esimda qolganicha, lekin o‘xshaydi. Mogensga portret yoqdi. Vaqti kelib o‘zing ko‘rasan. Portret „Yan Ulav“ deb ataladi“.

Demak, otkritkada yuzini o‘zi chizgan ekan-da! Endi

bu menga ayon edi. Ammo meni yana bir savol kemirayotgandi. „O‘sha safar oq „Toyota“ da kim o‘tirgandi? U Mogens bo‘lishi mumkin emasdi!“ deb so‘radim.

U kulib yubordi. Va gap mavzusini o‘zgartirishga uringandek bo‘ldi.

„Seningcha, o‘shanda seni Yungstorgetda ko‘rdimmi? Axir u yerga faqat sen uchun borgandim-ku“, – dedi u.

Hech nimani tushunmasdim, nazarimda, u mujmal gapirayotgandi. Ammo u davom etdi: „Avval tramvayda uchrashdik. Keyin shahar kezib, odatda, qaysi qahvaxonalarga kirishingni bilib oldim. Ilgari hech qahvaxonaga bormagandim, ammo bir kuni endigina sotib olganim ispan rassomi Velaskesning suratlari jamlangan albom bilan kirdim. O‘tirib uni varaqladim. Va kutdim“.

„Menimi?“

Ahmoqona savol berganimni tushunardim. U biroz achchiqlanib javob berdi: „Nahotki faqat men izladim deb o‘ylayotgan bo‘lsang? Men ham shu qissaning bir qismiman. Keyin men sen tutishni xohlagan kapalakkina emasman“.

Ortiq bu mavzuga qaytishni istamasdim, bu xavfli bo‘lishi mumkin edi. Faqat: „Yungstorget-chi?“ deb so‘radim.

„Bola bo‘lmasang-chi, Yan Ulav! Axir tushuntirdim-ku. Yan Ulav qayerda bo‘lishi mumkin deb o‘yladim. Meni ikki marta apelsin to‘la katta paket bilan ko‘rgandan keyin topish uchun, ya‘ni agar topishni xohlasa, qayerga borgan bo‘lardi deb o‘yladim. Ishonchim komil emasdi, lekin meni eng katta meva bozoridan izlasang kerak degan qarorga keldim. Seni uchratish umidida u yerga ko‘p marta bordim. Ammo boshqa joylarda ham



bo'ldim. Klyoverveyenda bo'ldim, Xyumleveyenda ham. Bir marta hatto ota-onangnikiga kirdim. Eshikni ochishlari bilan borganimdan pushaymon bo'ldim, ammo bo'lar ish bo'lgan edi. Bolaligim, eski joylar haqida bir nimalar dedim. O'zimni tanishtirishga hojat bo'lmadi. Bunga e'tibor ber. Ular meni darrov tanishdi. Uyg'a taklif qilishdi, ammo vaqtim yo'qligini bahona qildim. Keyin ularga Sevilyadagi tasviriy san'at maktabiga qabul qilinganimni aytdim“.

Bularning bari haqiqat ekaniga ishonishim qiyin edi. „Ular menga hech nima deyishmadi“, – deya qistirdim men.

Endi uning lablarida sirli tabassum o'ynadi. U Mona Lizaga o'xshaydigandek tuyuldi, hali ham tasviriy san'at maktabi esimdaligidan bo'lsa kerak. „Ota-onangdan men haqimda senga gapirmaslikka so'z berishlarini so'radim. Hatto nima uchun bilmasliging kerakligi haqida qandaydir sabab o'ylab topishimga to'g'ri keldi“, – dedi u.

Men qotib qoldim. Atigi bir necha kun oldin ota-onamga Sevilyadan kelgan otkritkani ko'rsatdim. O'shanda ularning yoniga otilib kirib, uylanmoqchiligimni aytdim. Endi nima uchun ular shunchalik tez va jon deb chiptaga pul berib turishganini angladim. Hatto imtihon o'rtasida Sevilyaga Osloda bir necha marta uchratgan qizni topish uchungina borish mantiqqa to'g'ri kelarmikan, deb so'rashmadi ham.

Apelsin qiz gapida davom etdi: „Katta shaharda izlagan odamingni topish har doim qiyin, ayniqsa, buni juda xohlayotgan bo'lsang, u bilan tasodifan uchrashib qolishing yanayam mushkul. Vaholanki, ko'pincha, aynan shu narsa kerak. Men Ispaniyaga o'qishga ketmoqchi edim, erkin bo'lishim kerak edi. Ammo ikki kishi

bir-birini tinmay qidirs, goh-gohida uchrashib qolishlarining hech qanday ajablanarli tomoni yo'q“.

Men mavzuni o'zgartirdim. Nazarimda, voqea joyini almashtirdim, xolos.

„Ilgari biron marta cherkovdagi ibodatga borganmisan?“ – deb so'radim.

U yo'q ma'nosida bosh chayqadi: „Hech qachon. Sen-chi?“

Men ham yo'q ma'nosida bosh chayqadim. U: „O'sha kuni ikki soatli ibodatga bordim. Keyin ko'chalarni kezib, keyingisini kutdim. Bu safar sen endi kelishing kerak edi. Axir Rojdestvo kirib kelayotgandi, men esa mamlakatdan jo'nab ketmoqchi edim“.

Nazarimda, biz uzoq jim qoldik. Ammo men qaytishim kerak bo'lgan bir noaniqlik bor edi. Men: „Demak, „Toyota“dagi Mogens emasdi?“ deb so'radim.

„Yo'q“, – dedi u.

„Unda kim?“

U javob berishga shoshilmadi. „Hech kim“, – dedi nihoyat.

„Hech kim?“ – deb qayta so'radim men.

„Sobiq muhabbatga o'xshash. Biz gimnaziyada bitta sinfda o'qiganmiz“.

Men jilmaydim, shekilli. Chunki u: „Yan Ulav, bir-birimizning o'tmishimiz bizga tegishli emas. Asosiysi, birgalikdagi kelajagimizning bor-yo'qligi“, – dedi.

Shunda men bir qo'rslikka yo'l qo'ydim va shu tufayli birgalikdagi kelajagimizga ishonchdan mahrum bo'layozdim. Men: „To be two or not to be two? That is the question<sup>1</sup>“, dedim.

<sup>1</sup>To be two or not to be two? That is the question – Ikkovlon bo'ladimi yoki yo'qmi? Masala shunda. (ingl.).

Menimcha, so'zlarim unga biroz ahmoqona tuyuldi. Bu kayfiyatni yo'qotish uchun boshqa narsa haqida gapira ketdim. „Lekin o'sha apelsinlar-chi? Senga shuncha apelsin nimaga kerak bo'lib qoldi? Ularni nima qilding?“ dedim.

U kulib yubordi. Keyin: „Ular baribir seni qiziqtirib qo'yibdi-da! Apelsinlar menga seni Yungstorgetga chorlab olishga yordam berdi. Apelsinlar seni Grenlandiya orqali chang'idagi safar haqida gapirishga majbur qildi. Chanaga qo'shilgan sakkizta it va o'n kilogramm apelsin“, – dedi.

Men buni inkor qilolmasdim. Biroq: „Ularni nima qilding?“ deb takror so'radim.

U ko'zlarimga tikildi, Osloda ham ko'zlarimga xuddi shunday tikilgandi. Keyin juda cho'zib: „Ularni chizmoqchi edim“, – dedi.

Apelsinlarni chizish? Lol bo'lib qoldim. „Hammagini birdanigami?“

U bosh irg'adi. Keyin: „Sevilyaga ketish oldidan apelsinlarni chizishni o'rganib olishim kerak edi“, – dedi.

„Axir qanday qilib shuncha apelsinni?..“

„Ha, mashq qildim-da“.

Taajjub bilan bosh chayqadim. Balki, u meni ahmoq qilayotgandir? „Ammo bitta apelsin sotib olib, uni ko'p marta chizishing ham mumkin edi-ku“, dedim.

U alamli qiyofada boshini bir tomonga egdi: „Sen bilan yaqin o'rtada ko'p narsa haqida gaplashishimiz kerak, bir ko'zing ko'rmaydi deb qo'rqaman“.

„Qaysi?“

„Ikkita bir xil apelsin bo'lmaydi, Yan Ulav. Hatto maysalar ham bir-biridan farq qiladi. Sen bu yerga shuning uchun kelding“.

*Men o'zimni tentakdek sezardim. Uning nimani nazarda tutayotganini tushunmasdim. „Demak, hamma-si bu dunyoda ikkita bir xil apelsin bo'lmagani uchun ekan-da?“*

*U: „Sen Sevilyaga shunchaki bir qizni uchratish uchun shuncha yo'l bosib kelmading. Agar shunday bo'lsa, sen daraxtlar tufayli o'rmonni ko'rmayapsan. yevropada qizlar to'lib yotibdi, o'rmonlar ham yetarli. Sen bu yerga meni topish uchun kelding. Men esa – bit-taman, yagonaman. Men Sevilyadan salom xatni Os-lodagi qandaydir odamga jo'natmagandim. Uni senga jo'natdim. Sendan meni ushlab qolishingni, menga isho-nishingni so'radim“, – dedi.*

*Kutilmaganda menga apelsin daraxtining tepasida ikkita quvnoq olmaxon o'ynayotgandek tuyuldi. Ular qanday o'yin o'ynashardi, bilmadim, ammo, aftidan, ularni bu yerdagi bir nima qiziqtirib qo'ygandi.*

*Senga ortiq o'sha oqshom haqida yozmayman, Georg, bundan seni xalos qilaman. Ammo o'sha kecha qanday tugaganini eshit.*

*Men yarim tungacha pansionimga qaytishga ulgur-madim. Apelsin qiz bir keksa ayolnikida oshxona bilan kichkina xonani ijaraga olgan ekan. Devorlarida apelsin gullari va daraxtlari tasvirlangan akvarellar osilgandi. Xona burchagida esa mening u eslab chizgan katta por-tretim turardi. Men bu portret haqida hech nima de-madim. U ham. Bu ertak sehriga haddan tashqari ya-qin borgimiz kelmasdi. Hamma narsani ham so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Qoidalar shunday. Ammo menga portretda ko'zlarim g'oyat katta va aslidagidan ham ko'kdek tuyuldi. Xuddi u mendagi bor narsani ko'zla-rimda jamlagandek edi.*

*Tunda men yotib, Verunikaga ko'plab qiziq tafsilotlari bilan har xil voqealarni aytib berdim: to'rt opa-singlisi, ikki ukasi va Labradori bor pastorning kasalmand qizi haqida. Grenlandiya muzliklaridan chang'ida qilingan dramatik safar haqidagi uzun qissani. Sakkizta it qo'shilgan chana va o'n kilogramm apelsin haqida. BMTning Apelsin bo'limida maxfiy agent bo'lgan serg'ayrat qiz va uning xavfli apelsin virusiga qarshi mardonavor yolgiz kurashgani haqida. Bolalar bog'chasida ishlaydigan va har kuni o'ttiz oltita mutlaqo bir xil apelsin sotib olish uchun bozorga boradigan qiz haqida va hokazo. Iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkillashtirish institutining yuzlab talabalariga apelsin jelyesini tayyorlaydigan yosh xonim haqida ham. Garchi ko'pchilik uni ko'rimsiz deb hisoblasa ham, o'sha talabalardan biriga turmushga chiqqan va undan farzand ham ko'rishga ulgurgan o'n to'qqiz yoshli qizning hayoti to'g'risida ham. Yana Afrikadagi kasal bolalarga apelsin va dorilarni yashirincha yuborgan jasur fidoyi qiz haqida ham.*

*Verunika Xyumleveyen va Irisveyendagi bolaligi haqida bir nechta voqeani so'zlab berdi. O'zim bularning barini deyarli unutgan ekanman, ammo uning hikoyasi davomida esladim.*

*Uyg'onganimizda quyosh ancha tik ko'tarilib qolgandi. Birinchi bo'lib u uyg'ondi, meni uyg'otganida nimani his qilganimni hech qachon unutmayman. Men haqiqat qayerda-yu, xayol qayerdaligini anglolmay qolgandim, balki, bular o'rtasida ortiq chegara qolmagandir. Faqat endi Apelsin qizni izlab yurishimga hojat yo'qligini bilardim. Men uni topdim“.*

*Men ham uni topdim. Endi o'sha Apelsin qiz kim-*

ligini bilardim, uning ismi Verunika ekanligini bilishim uchun buni anglashim kerak edi...

Shu yergacha o'qib bo'lganimda, oyim yana eshigimni taqillatdi. U: „Soat o'n bir bo'lib qoldi, Georg. Dasturxon yozdik. Hali ko'pmi?“ – dedi.

Men biroz tantanavor javob berdim: „Qadrli Apelsin qiz, men sen haqingda o'ylayapman. Yana biroz kuta olasanmi?“

Men uning eshik ortidagi yuzini ko'rmadim. Ammo jim bo'lib qolganini eshitdim. „Ba'zan hayotda kutishni bilish kerak“, dedim.

Hech qanday javob olmagach, kuylagandek: „Qiz bilan bola ikkov...“ dedim.

Eshik ortida hamon jimlik hukm surardi. Ammo ko'p o'tmay oyim eshikka juda yaqin kelganini sezdim. U asta xirgoyi qildi: „...yashardi ertakdagi saltanatida...“

U yog'iga o'tolmay yig'lab yubordi. U unsiz yig'lardi.

Men yopiq eshikdan unga pichirladim: „Uzzukun ertakdagi o'z saltanatida o'ynashni istashardi ular...“

U og'ir nafas olardi, keyin hiqillab so'radi: „Nahotki u... shuni ham yozgan bo'lsa?“

„Ha, yozgan“.

U jim edi, ammo qulf teshigidan eshikka yopishib turganini ko'rdim.

„Hozir boraman, oyi, – deb pichirladim. – Atigi o'n besh sahifa qoldi“.

U yana indamadi, gapirolmadi, shekilli. So'zlarim nimaga sabab bo'lishi mumkinligini unchalik tushunmasdim.

Bechora Yorgen, deb o'ylandim. Bu safar ikkinchi darajali rolga ko'nishiga to'g'ri keladi. Miriam uxlayot-

gandi. Hozir suhbat otam, onam va mening o'rtamda edi. Bir paytlar biz Xyumleveynda yashaydigan kichkina oila edik. Mehmonxonada esa bizni ancha yillar oldin shu uyni qurgan bobom bilan buvim kutardi. Yorgen biznikida faqat mehmon edi.

Men o'qiganlarimning hammasini yaxshilab o'ylab ko'rdim. Muhim bir nimalar aniq bo'ldi. Otam meni hecham ahmoq qilmayotgandi. U Apelsin qiz haqida ertak to'qimagandi. Balki, u hammasini aytib bermagandir. Ammo aytib berganlari haqiqat edi.

Nimagadir xollda biron marta apelsin daraxtlari tasvirlangan suratni ko'rganimni hech eslay olmadim. Umuman, apelsinli bironta kartinani ko'rmaganman. Bizning uyda onam chizgan boshqa kartinalar osig'liq edi. Akvarellar – bog'imizdagi nastarin va olcha.

Onam bilan ko'p narsa haqida gaplashishni istardim. Yoki chordoqni o'zim titkilab ko'rsammikan. Ammo onam bolaligida Irisveynda yashaganini har doim bilardim. Hatto bir marta o'sha uyga borib, bizning pochta qutimizga adashib tushib qolgan xatni berganman.

Balki, xatni oxirigacha o'qisam, barcha apelsinli kartinalar haqida ko'proq narsa bilib olarman? Meni yana bir narsa qiziqtirardi: otam Xabbl teleskopi haqida yana biron narsa yozarmikan?

Bu teleskop astronom Edvin Pauell Xabbl sharafiga nomlangan. Koinot kengayishini isbotlagan astronom sharafiga. Avval u Andromedaning tumanliklari faqat galaktikamizdagi gaz va changli bulut emas, balki, Somon Yo'lidan tashqaridagi mustaqil galaktika ekanligini kashf qildi. Somon Yo'li – ko'plab galaktikalardan biri ekanligi astronomlarning kosmos haqidagi hamma qarashlarini o'zgartirib yubordi.

Xabblning eng muhim ixtirosi 1929-yilda galaktika Somon Yoʻlidan qanchalik uzoq boʻlsa, shunchalik tez harakatlanishi kerakligini aniqlaganidir. Bu yangilik biz Vig Vang yoki Katta Portlash deb ataydigan nazariyaga asos boʻldi. Hozirda koʻpchilik astronomlar yoqalayotgan ushbu nazariyaga asosan, bizning Koinot 14 milliard yil avval sodir boʻlgan juda kuchli portlash natijasida paydo boʻlgan. Yaʼni juda ham ilgari, juda-juda ilgari.

Agar kosmos tarixida sodir boʻlgan hamma narsani sutkaga qadar bitta vaqt chizmasiga ixchamlashtirilsa, yer kechga borib yaralgan deyish mumkin. Dinozavrlar yarim tunga yaqin paydo boʻlgan. Insoniyat esa soʻnggi ikki soniyadan beri mavjud.

*„Hikoyamni kuzatyapsanmi, Georg? Mana, hozirgina seni bolalar bogʻchasiga olib borib, yana kompyuter yonida oʻtiribman. Bugun dushanba.*

*Sevilyada Verunikanikida ikki kun boʻldim. Keyin uyga qaytaman, Verunika ham, u yashayotgan uy bekasi ham shunday fikrda edi. Verunika tasviriy sanʼat maktabini tamomlaguncha yana uch oy kutishim kerak. Ammo endi men kutishni oʻrganib oldim. Apelsin qizga ishonaman.*

*Albatta, uning ikkinchi yarim yillikda har kuni koʻrishimiz haqidagi vaʼdasining oʻz kuchida qolish-qolmasligi haqida soʻramasam boʻlmasdi. Qoidalar-ni buzganimdan soʻng bu, oʻz-oʻzidan boʻladigan ish emasdi. U darrov javob bermadi. Menimcha, uning bi-ron qiziqarli javob oʻylab topgisi keldi. Nihoyat, jilmayib: „Oʻylashimcha, sen shu yerda oʻtkazgan ikki kunni chiqarib tashlash bilan kifoyalanaman“, – dedi.*

*Meni poyezdga kuzatib qoʻyayotganda, yoʻl boʻyidagi zovurda oʻlib yotgan oq kaptarni koʻrib qoldi. U toʻxtab,*



seskandi. Uning munosabati meni hayron qoldirdi. Menga o'girilib, bo'ynimdan quchgancha yig'lab yubordi. Men ham. Biz juda yosh edik. Biz ertakda yashardik. Ertaklarda o'lik kabutarlar yo'l bo'yidagi zovurlarda yotmaydi. Har qalay, oppoq kabutarlar emas. Qoidalar shunday. Ikkimiz ham yig'lardik. Oq kabutar yomon alomat edi.

Osloda e'tiborimni darslarga qaratdim. Ko'p narsaning o'rnini to'ldirishim kerak edi, chunki oxirgi haftada ikkita muhim ma'ruzani – umuman, oxirgi oylarda o'zimning chang'idagi sayrlarim va shaharda tinmay daydishim tufayli ko'p narsani o'tkazib yubordim. Lekin endi menda bo'sh vaqt topildi – axir endi sirli Apelsin qizni izlab sarson bo'lib yurishimga hojat yo'q. Umuman, o'zimga qiz o'rtoq topishni o'ylashga ham. Kursdoshlarim bunga ko'p vaqtlarini sarflashardi.

Men hali ham qora palto yoki qizil ko'ylakli ayollarni – axir, endi kun ancha ilib qolgandi – ko'rganda, titrab ketardim. Apelsinlarni ko'rganda har doim Verunika haqida o'ylardim. Oziq-ovqat uchun do'konga kirganda, apelsinlar peshtaxtasi oldida xayolga berilib turib qolardim. Ammo endi ularning bir-biriga o'xshamasligini ko'rardim. Apelsin sotib olganda esa, uzoq, shoshilmay eng chiroyllilarini tanlardim. Ba'zan o'zimga apelsin sharbati tayyorlardim, bir gal esa apelsinli jelye tayyorladim va u bilan Gyunnarni hamda boshqa do'stlarimni mehmon qildim. O'sha oqshom mening uyimda o'tirib, brij<sup>1</sup> o'ynadik.

Gyunnar o'sha yili siyosiy iqtisodiyot bilan shug'ullanayotgandi, bizning oshpazimiz edi. U har kuni bizga

---

<sup>1</sup>Bridj – qarta o'yinining bir turi.

tushlikka bishfteks yoki treska<sup>1</sup> tayyorlardi. Garchi u hech qachon hech qanday minnatdorchilikni kutmagan bo'lsa ham, uni o'zim tayyorlagan apelsinli jelye bilan hayron qoldirish men uchun yoqimli edi. Men o'sha jelyega butun mehrimni bag'ishladim. Eski oshpazlar kitobidan apelsinli jelyeni tayyorlash yo'riqnomasini topishimga onam, sening buving yordam berdi. Hatto men uchun o'zi tayyorlab berishni taklif qildi. Maqsadim uni mustaqil tayyorlash ekanligini u bilmasdi-da. Onam bu g'oyaning Verunikaga daxli borligini taxmin qilgan deb o'ylamayman.

Nihoyat, Verunika Sevilyadan Norvegiyaga qaytdi. Iyul oyining o'rtasi edi. Uni kutib olish uchun Fornebyu aeroportiga bordim. U bojxona nazoratidan ikkita katta jomadon va suratlar solingan papka bilan chiqqach, bizning buyuk topishuvimizga ko'pchilik guvoh bo'ldi. Yarim daqiqa shunchaki bir-birimizga qarab turdik, balki, yana bir necha soniya kuta olishga irodamiz yetishini isbotlash uchundir. Keyin bir-birimizning quchog'imizga singdik, nazarimda, aeroportda bu ancha erish ko'ringan. Yonimizdan o'tib ketayotgan keksa xonim quchoqlashishimizni o'zicha baholadi. „Odamlardan uyalsanglar bo'lardi!“ – deb to'ng'illadi u. Biz esa kulardik. Biz uyaladigan ish qilmayotgandik. Axir, bir-birimizni yarim yil kutdik.

Verunika chiqish zalining o'zidayoq papkani ochib, menga ishlarini ko'rsatdi. U Yan Ulav portretini tez varaqlab o'tkazib yubordi, lekin men uni payqashga ulgurdim va yana ko'zlardan taralayotgan yorqin ko'k nurdan hayratga tushdim. Men bu portret haqida hech

<sup>1</sup>Treska – shimol dengizlaridagi baliqning bir turi.

nima deyolmasdim, ammo Verunika o'zining boshqa ishlariga xursand holda izoh berardi. So'zlar og'zidan no'xatdek to'kildirdi. U menga ko'rsatgan kartinalaridan g'ururlanishini yashirmasdi. Shu yarim yil davomida o'rganganlaridan mamnun edi.

Yozning qolgan qismida bir joydan ikkinchi joyga uchib yurdik desam bo'ladi. Oslo ko'rfazining hamma orollarida bo'ldik, shimolga safar qildik, muzey va badiiy ko'rgazmalarga bordik, iliq yoz oqshomlarida Tosen villalari orasidagi yo'llarda sayr qildik.

Uni o'sha paytda ko'rsang edi! Shaharda qanday yugurib yurishini tomosha qilsang edi! Badiiy ko'rgazmalarda o'zini qanday tutishini! Qanday kulishini ham eshitsang edi! O'zim ham shunday jo'shqin kulardim. Men bilgan narsalardan eng yuqumlisi – bu kulgi.

Biz tobora ko'proq „biz“ olmoshini ishlatardik. Kulgili so'z. Ertaga men u yoki bu ishni qilaman, deydi odam. Yoki boshqadan nima ish qilishini so'raydi. Buni tushunish oson. Biroq biz hech bir gumonsiz „biz“ deb gapirardik. „Langyoyenda cho'milishga boramizmi?“, „Uyda qolib, kitob o'qiganimiz yaxshiroqmi?“, „Biz bu pyesani maza qilib ko'rdik“. Va nihoyat: „Biz baxtlimiz!“

„Biz“ olmoshi ishlatilganda, uning ortida har doim ikki kishi bo'ladi, go'yo ular bir mavjudotdek. Ko'p tillarda ikki – faqat ikki – kishi haqida gap ketganda, maxsus raqam bor. Bunday raqam dualis yoki ikkilik deyiladi va bu gap faqat ikki kishi haqida ekanligini bildiradi. Menimcha, bu foydali raqam, axir odamzod yolg'iz yoki ko'pchilik bo'lib yashaydi. Ammo „biz ikkimiz“ deyilganda, ana shu „biz“ni ajratib bo'lmaydigandek tuyuladi. Bu ertakona qoida ana shu olmosh nutqimizda kutilmaganda paydo bo'lgandagina kuchga

kiradi. „Biz tushlik tayyorlayapmiz“ „Biz may ichyapmiz“, „Biz uxlashga yotyapmiz“. Seningcha, bunda biroz uyatli nimadir yo'qmi? Har qalay, bu uyga avtobusda ketishingni aytish degani emas, chunki uxlashga yotmoqchisan.

Meni tanish olmoshning yangi ma'nosi qattiq ta'sirlantirdi. „Biz“ – doira birdan yopildi. Butun dunyo qandaydir ancha yuksak birlik hosil qildi.

Yoshlik, Georg, yoshlikka xos yengiltaklik!

Avgustning iliq bir oqshomi esimda qolgan, o'shanda biz Byugdyoda fiord'ga qarab o'tirardik. Bu gapni qayerdan olganimni bilmayman, ammo kutilmaganda: „Biz bu dunyoda faqat shu gal yashaymiz“, deb yubordim.

„Ha, hozir“, – deya javob berdi Verunika, xuddi buni eslab qolish kerak deb hisoblagandek.

Ammo u men ifodalamoqchi bo'lgan ma'nodan qochmoqchidek tuyuldi, shuning uchun: „Men o'zim ortiq bu dunyoda bo'lmaydigan oqshomlar haqida o'ylayapman...“ dedim. Ulav Bull<sup>2</sup>ning she'ridagi bu satr Verunikaning esidaligini bilardim. Uning she'rlarini ko'p marta ovoz chiqarib o'qiganmiz.

U menga shartta o'girilib, qulog'imni ushlab oldi. „Lekin baribir sen shu yerda eding, Lucky you!“<sup>3</sup>

Kuzda Verunika Badiiy akademiyada o'qiy boshladi, men esa tibbiyot darslarimni davom ettirdim. Ilk tayyorlov kurslaridan keyin bu darslar chinakamiga qiziqarli bo'lib qoldi. Oqshomlarni birga o'tkazishga, har qalay, har kuni ko'rishishga harakat qilardik.

<sup>1</sup>Fiord – Qirg'oqlari qoyali, tor va chuqur dengiz ko'rfazi.

<sup>2</sup>Ulav Bull (1883–1933) – norvegialik shoir.

<sup>3</sup>Lucky you – baxtiyor (ingl.).

Garchi Apelsin qiz men undan qarz bo'lgan ikki kunni chindan ham hisobdan chiqarib tashlagan bo'lsa-da. Asosan, mening qitiq-patimga tegish, ehtimol, o'z maqomini mustahkamlab olish uchun bo'lsa kerak. Biz hali ham qoidalarga amal qilishimiz kerak edi, chunki ertak hali tugamagandi, unda har doim yangi qoidalar paydo bo'lardi. Bunday qoidalar haqida nima deb yozganim esingdami? Bular juda muhim narsalar, ularni bajarish yoki bajarmaslik kerak, ammo tushunish shart emas. Ular haqida hatto gapirmaasa ham bo'ladi.

Verunika Osloda ham bir keksa ayolnikidan osh-xona bilan bir xonani ijaraga oldi. To'lov evaziga yozda o'tloqni qirqib tekislashi, qishda qorni tozalashi va haftada ikki marta bekaga oziq-ovqat, jumladan, may do'konidan musallas sotib olishi kerak edi. Ammo beka, uning ismi Fru Movinkel, bu ishlarni ba'zan men qilishimga e'tiroz bildirmasdi. Bu juda yaxshi, chunki uning, ba'zida Verunikaning kichkina xonasida tunab qolishimga ko'nikishi osonroq kechdi. Axir tunaydigan joy uchun haq to'lardim-da.

Rojdestvo keldi, biz Rojdestvo ibodatiga bordik, bu masalada bir-birimizdan qarz edik. Verunikaning egnida o'sha qora palto, sochlariga esa ertakdagidek kumush to'qa taqilgandi. Bu yil biz, tabiiyki, bitta o'rindiqa o'tirdik, cherkovdagi odamlarni ko'zdan kechirishimga hojat yo'q. Endi ular Verunikaga qarash uchun alanglashlari kerak edi, ba'zilar shunday qilishardi ham. Men mag'rur edim. Verunika esa yashnab ketgandi, u baxtli. Men ham baxtli edim, albatta. Balki, u ham mendan biroz g'ururlangandir.

Ibodatdan so'ng biz yana o'sha, o'tgan yilgi yo'ldan ketdik. Avvaldan shunga kelishib olgandik. Endi

an'analarining qanchalik muhimligi bizga ravshan edi. Saroy bog'iga deyarli yetib bordik. Jimlik haqida avvaldan kelishib olmagan bo'lsak ham, u o'z-o'zidan cho'kdi.

Bir yil avval u taksiga o'tirgan joyda sayr qildik, chunki bu yil ham ayrilamiz. Verunika Skillebekkda, qari ammasinikida yashaydigan otasi bilan ko'rimoqchi ekan, o'sha yerdan ota-onasi turadigan Askarga ketishmoqchi emish. Men esa bu Rojdestvoni ham Xyumleveyendagi uyda otam, onam va amakim Eynar bilan nishonlashim kerak edi.

Bu sahna xuddi o'tgan yilgidek. Biz shu yerda, Verge-lannsveyenda, bo'sh taksi kelishi bilan xayrlashishimiz lozim edi. Ammo taksi bu yerga kelganda nima bo'ladi? Sehr birdan buziladimi? Biz bu haqda gaplashmagan-dik. So'nggi yarim yil davomida biz, men jazolangan o'sha ikki kunni hisobga olmaganda, har kuni ko'rishib turdik. Apelsin qiz va'dasini bajardi. Ammo yangi yilda qanday qoidalar amalda bo'ladi?

Bu Rojdestvo o'tgan yilgidan sovuqroq edi, Verunika sovqotdi. Men uni quchoqlab oldim. Shunda beixtiyor unga Yangi yilda Gyunnar biz birgalikda ijaraga olgan kvartiradan ketmoqchiligini aytdim. U o'qishni Bergenda davom ettirmoqchi, dedim men. Ijara haqini bo'lishish uchun yangi talaba topishim kerakligini ham qo'shib qo'ydim.

Qo'rqqoqlik qildim, Georg. Menimcha, Verunika ham shunday deb o'yladi. U hatto hayajonlanib ketdi. Gyunnar ketyaptimi? Men uning o'rniga yangi talaba topmoqchimanmi? Nahotki men avval u bilan gaplashmasdan shunday rejalar tuzgan bo'lsam? Uning jahli chiqdi. Rojdestvoda arazlashib qolishimizdan qo'rqib ketdim. Ammo u: „Yaxshisi, o'zim senikiga ko'chib o'taman.

*Birga yashasak, nima bo'ladi? Sen qarshi emasmisan, Yan Ulav? " – dedi.*

*Men bunday narsani hatto orzu qilishga ham jur'at etmasdim. U mendan jasurroq edi. Men esa hali ham qoidalarni buzishdan ko'rqardim.*

*Biz Verunikaning yanvar boshida Adamstyunga ko'chib o'tishiga kelishdik, u xuddi Plaza de la Alianza-dagi apelsin daraxtidek yashnab ketdi. Bundan chiqdi, biz kelayotgan yilda har kuni birga bo'lishimiz mumkin edi! Yangi qoidalar shunday edi.*

*Kutilmaganda Verunikaning qovog'i uyildi. Uni shubha qiynamayotganmikan, deb o'yladim, balki, bari-bir, unga biror narsa xalal berayotgandir? Yoki aytishni xohlamagan boshqa rejalari bormi? „Nima gap, Verunika?“ – deb pichirladim. Endi men uni yaxshi bilardim.*

*U: „Demak, Gyunnarning xonasi bo'sh?“ – dedi.*

*Men bosh irg'adim, lekin uning nimani nazarda tutayotganini tushunmadim. Axir Gyunnar xonani bo'shayotganini aytdim-ku.*

*U davom etdi: „Axir sen bilan boshqa-boshqa xonada uxlamaymiz-ku!“*

*„Yo'q albatta! „Men hali ham uning nima demoqchiligini tushunmasdim.*

*Nihoyat, uning shubhalari tarqadi. U nimani o'ylayotganini ochiq aytdi. „Uning xonasidan ustaxona sifatida foydalansam bo'lsa kerak“, – dedi bunga qanday munosabatda bo'lishimni bilish uchun menga bir nazar tashlab olarkan. Men qo'limni uning kumush to'qasiga qo'yib, rassom bilan birga yashashdan faxrlanishimni aytdim.*

*Ikki daqiqadan so'ng taksi ko'rindi. Verunika qo'l siltab uni to'xtatdi. Bu yil mashinaga o'tirgach, u men-*

ga o'girilib, ikkala qo'lini silkidi. Buni qara, oradan atigi bir yil o'tibdi!

Nima deb o'ylaysan, Georg, inson kim o'zi? Uning bu hayotda o'rni bormi? Biz shamol aylantirib, sohib yuboradigan chang emasmikanmiz?

Men bu satrlarni bitayotganda, Xabbl teleskopi o'z orbitasi bo'ylab yer atrofida aylanmoqda. U to'rt oydan ko'proq vaqtdan beri o'sha yerda, may oxiridan esa bizga Koinotning, ya'ni biz tegishli bo'lgan o'sha cheksiz makonning ko'plab qimmatli suratlarini jo'natdi. Ammo ko'p o'tmay teleskopning jiddiy nuqsoni borligi aniqlandi. Unga hatto biz olam bo'shlig'i haqida ko'proq bilishimiz uchun bu nuqsanni to'g'rilaydigan fazogirlar kemasini ham jo'natmoqchi bo'lishdi.

Xabbl teleskopi bilan bog'liq ish qanday tugaganini bilasanmi? Uni to'g'rilay olishdimi?

Ba'zan bu kosmik teleskop menga Koinotning ko'zidek tuyuladi. U butun Koinotga nazar soladi, shuning uchun bunday nomga ega bo'lishga haqli. Umid qilamanki, sen nimani nazarda tutayotganimni tushunyapsan? Koinotning o'zi aql bovar qilmas asbobni yaratdi. Xabbl teleskopi – tuyg'ularning samoviy hamrohi.

Biz, garchi har birimizga qisqa muddatga berilgan bo'lsa ham, qanday buyuk ertakni yashab o'tamiz? Balki, vaqt o'tib kosmik teleskop bizga bu ertakning tabiatini biroz tushunishga yordam berar? Balki u yerda, galaktikalar ortida inson kim o'zi degan savolga javob yashirindir?

Bu xatda men „jumboq“ degan so'zni ko'p ishlatdim. Koinotni tushunishga urinishlarni, toshlarni katta mozaikaga yig'ishga taqqoslash mumkin. Ammo xuddi shunday mushohadaga asoslangan yoki ma'naviy jum-



boq haqida gapirish ehtimoldan xoli emas va, balki, uning javobi bizning ichimizdadir. Hammamiz shu yerda yashaymiz. Koinot asli bizning o'zimiz.

Men insonning yaralishi hali tugamagan deb o'ylayman. Uning jismoniy taraqqiyoti aqliy rivojlanishidan oldinda bo'lishi kerak. Balki fazomizning jismoniy tabiati ham tashqi bir narsa – Olam Koinotining o'zini anglashi uchun kerakli materialdir.

Ko'z oldimdan g'alati lavhalar lipillab o'tadi: Nyuton kutilmaganda yerning tortishish kuchini yaratadi. Ajoyib! U yog'iga ketdik. Eynshteyn og'irlik, quvvat va yorug'lik tezligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Juda soz! 1953-yilda Krik va Uotson DNK, ya'ni o'simliklar va tirik organizmlarning irsiy material tuzilishi modelini yaratishdi. Ammo, Georg, shunday bo'lishi ham mumkinki, bir kuni – ajoyib kunlarning birida! – qandaydir sinchkov kishi Koinot jumbog'ini yechadi. Men shunday bo'lishi mumkin deb o'ylayman (o'sha kuni bironta katta gazetada sarlavhalar ustida ishlashni xohlardim).

Esingdami, xatni senga bir savol bermoqchiligimdan boshlagandim? Unga qanday javob berishing men uchun juda muhim. Ammo avval yana bir narsani aytib berishim kerak“.

Xabbl teleskopi! Yana o'sha teleskop. Endi otam menga bermoqchi bo'lgan muhim savolning butun borliqqa qandaydir aloqasi borligiga shubha qilmasdim.

Derazadan qaradim. Hali ham qor gupillab yog'ardi. Ammo buning ahamiyati yo'q, deb o'ylardim. Garchi yer bulutlar bilan qoplangan bo'lsa ham, Xabbl teleskopi biznikidan ko'p milliard yorug'lik yili uzoqda bo'lgan galaktikalarning aniq suratlarini olishi mumkin. Qolaversa, u sutkasiga yigirma to'rt soat ishlaydi. U

bizga yuz minglab suratlarni yuborib, o'n mingdan ortiq samoviy jismlarni tadqiq qilishga ulgurdi. Xudo bergan kuni Xabbl teleskopi butun bir kompyuterni to'ldirishga yetadigan ma'lumot jo'natadi.

Ammo kosmik teleskop haqida yozish otamga nega kerak bo'lib qoldi? Men bu teleskop va Apelsin qiz o'rtasidagi bog'liqlikni tushunmasdim. Umuman olganda, bu unchalik muhim emasdi. Eng muhimi, otamning Xabbl teleskopi haqida bilishi edi. Bu teleskopning insoniyat uchun qanday ahamiyatga egaligini ham tushunardi. U kasal bo'lib qolib, o'lmasidan avval u haqda bilib olgandi. Bu uni qiziqtirgan oxirgi narsa edi.

Koinot ko'zi! Men hech qachon Xabbl teleskopi haqida Koinot ko'zi sifatida o'ylamaganman. Men uni o'zimcha samoga qaragan insoniyat derazasi deb tasavvur qilardim. Ammo endi uni „Koinot ko'zi“ deb atashda hech qanday mubolag'a ko'rmasdim.

O'z vaqtida Xristianiya va Eydsvoll orasidagi Norvegiya temiryo'lidan hayratlanish, hoynahoy, biroz oshirib yuborilgan. Norvegiyada yer yuzi aholisining mingdan bir qismi yashaydi, Xristianiyadan Eydsvollgacha bo'lgan hududda 1850-yilda o'n mingdan bir qism aholi yashagan bo'lsa kerak. Xabbl teleskopi bilan esa yer aholisining hammasi borliq makonida bo'lishi mumkin.

Bu teleskop otam vafotidan yarim yil avval o'z orbitasida aylana boshlaganda, uning narx ko'rsatkichida 2,2 milliard dollar ko'rsatilgan edi. Men yer aholisining har bir kishisiga, taxminan, to'rt kronadan to'g'ri kelishini hisoblab chiqdim va bu Koinotimizni ko'zdan kechirish imkoni uchun unchalik qimmat bo'lmagan baho deb hisobladim. Qiyoslash uchun: bugun Oslodan Eydsvollga va Eydsvolldan Oslogacha chipta, taxminan,

o'n krona turadi. Menimcha, unchalik arzon emas, agar kimdir fikrimga qo'shilsa, Norvegiya temiryo'llari boshqarmasiga shikoyat yozsin. (Norvegiya temiryo'llari haqida ham, Xristianiya va Eydsvoll o'rtasida qatnaydigan liliput-poyezd haqida ham hech qanday yomon gap aytmoqchi emasman. Men faqat Xabbl teleskopi insoniyat, jumladan, Romerika aholisi uchun ham o'sha temiryo'ldan ko'ra muhimroq ekanligini ta'kidlamochiman. Xabbl teleskopini Koinot ko'zi deb atashda hech qanday mubolag'a ko'rmayapman ham. Otam ham shunday deb o'ylardi, garchi teleskop yangi ko'zoynakka ega bo'lganini bilmagan bo'lsa ham!).

„Xabbl teleskopi – hissiyotlarning samoviy hamrohi“, – deb yozgan u. Bu bilan nima demoqchi bo'lganini tushunsam kerak deb o'ylayman. Balki insoniyat yer kurrasi atrofida Xabbl teleskopi aylana boshlaganida hech qanday katta voqeani ko'rmas, 1990-yilda kuchli teleskoplar va kosmik kemalar ko'p bo'lgan. Ammo bu borliq makoniga katta sakrash edi! Odamlar butun Koinot qiyofasida bir savolga javob olishga urinib ko'rishdi: bu Koinot o'zi qanday? Xuddi shunday. Koinotga o'zini hozirgidek ko'z holatida ko'rish, shunday mukammal darajada tuzilishi uchun o'n besh milliarddan ko'proq vaqt kerak bo'ldi. (Bu gapni yozish uchun naq bir soat vaqtimni sarfladim. Shuning uchun uni shunday ajratib qo'ydim).

„Nishonga aniq urdim, shekilli!“ deb o'yladim men. U yog'ini tez o'qiy boshladim. Ko'p o'tmay o'zimning tug'ilishimga yetib bordim. Bu – hech nima bilan solishtirib bo'lmaydigan tuyg'u. Axir hamma bolalarni ham tug'ruqxonaning o'zidayoq shampan qadahi bilan qarshi olishmaydi.

So‘zlang, so‘zlang, dada! Men gapingizni bo‘lmoqchi emasdim. O‘zingiz mendan Xabbl teleskopi bilan bog‘liq ishlar qanday ketayotganini so‘radingiz, endi men hech bo‘lmasa shu savolga javob berdim.

*„Bundan buyon qisqa bayon qilaman, tobora o‘tib bo‘rayotgan vaqt meni shunga majbur qilyapti. Ertaga muhim uchrashuvim bor. Seni bog‘chaga oying olib boradi.*

*Biz Adamstyundagi kichkina uyda to‘rt yil yashadik. Verunika Badiiy akademiyani tamomladi va o‘zing bilganingdek, kartinalar chizishni davom ettirdi. Vaqt o‘tib boshqalarga bu san‘atni o‘rgata boshladi, yuqori sinflarda shakl va rang qoidalaridan dars berardi. Men o‘qishni endi tugatgan shifokor sifatida belgilangan joyda ishlashim kerak edi. Boshqacha aytganda, ikki yil kasalxonada ishlashim zarur.*

*Sen otam ham, onam ham Tyonsbergda tug‘ilganini bilasan, albatta. Aynan shu paytda ular nafaqaga chiqib, ko‘hna orzularini ro‘yobga chiqarishni, o‘z shaharlariga ko‘chib kelishni xohlab qolishdi. Bir kuni bizga Nurdbyuenda kichkina romantik uy sotib olishganini aytishdi. Ukam, amaking Eynar yaqinda oddiy dengizchi bo‘lib ishga, menimcha, u yerga baxtsiz muhabbatdan qochib ketgandi. Shu tariqa biz Verunika bilan Xyumleveyendagi uyga ega bo‘ldik. Katta qarz olishimizga to‘g‘ri keldi, lekin barqaror daromadimiz bor edi.*

*Xyumleveyendagi turmushimizning birinchi yilida bog‘da ko‘p ishladik. Ikkita olma, nok va olchani saqlab qoldik, albatta, ularni faqat ozgina kesib, o‘g‘it solish kerak edi. Malina butalarini ham saqlab qoldik, qorag‘at va rovochni olib tashlashga ko‘zimiz qiymadi. Nastarin va boshqa gullardan ekdik. Verunika shuni xohladi. Men deyarli butun umr shu bog‘da yashaganman. Endi esa*

bog' unga tegishli edi. Iliq kunlarda u molbertini boqqa qo'yib, u yerda o'sayotgan va gullayotgan hamma narsani chizardi.

Bir kuni malina terayotganimizda, yo'ng'ichqa gulidan tushib, tez uchib ketayotgan katta tukli arini ko'rib qoldik. Xayolimga bunday arilar reaktiv samolyotlardan ham (va o'z vazniga nisbatan) tezroq uchadi, degan o'y keldi. Bu haqda Verunikaga aytdim, u bilan shunday masala tuzdik. Tukli arining vazni, taxminan, yigirma gramm, u soatiga o'n kilometr tezlikda uchadi. Reaktiv samolyot soatiga sakkiz yuz kilometr tezlikda, ya'ni tukli aridan sakson karra tezroq uchadi. Biroq yigirma grammni saksonga ko'paytirsa, bir kilogramm-u sakkiz yuz grammdan oshmaydi. „Boing“ esa, masalan, 747, ancha og'ir. Tukli ari tezligini o'z vazniga nisbatan „Boing“ tezligidan bir necha ming karra ko'proq oshiradi. Vaholanki, „Boing-747“ning tukli arida bo'lmagan naq to'rta motori bor. Tukli ari, bu – parrakli jo'n samolyot! Xyumleveyenda, ma'nosi Tukli ari yo'li bo'lgan joyda yashaganimiz uchun ham tukli arilarning bunchalik tez uchishidan kulgimiz qistadi.

Tabiat olamidagi eng mayda tafsilotlarga e'tibor berishni menga Verunika o'rgatdi, ular juda ko'p ekan. Biz qo'ng'iroqgul yoki binafshani uzib, bu mitti mo'jizaga uzoq tikilib o'tirishimiz mumkin edi. Axir dunyoning o'zi bitta katta ajoyib ertak emasmi?

Bugun, ya'ni shu satrlarni yozayotgan paytimda, tukli arining boqqa malina terish uchun borgan oqsho-mimizdagi oniy parvozi haqida ma'yus o'ylayman.

Biz bir-birimizni juda sevardik, Georg, juda ochiq va beg'am edik! Umid qilamanki, onangdan tabiatning kichik sirlariga bo'lgan samimiy qiziqishini meros qilib

olasan. Bu sirlar yulduzlar va borliq galaktikalaridek ajoyib. Menimcha, tukli arini yaratish uchun qora tuyenuk<sup>1</sup>ni hosil qilishdan ko'ra ko'proq aql kerak.

Men uchun olam har doim, erta bolalik yillarimdan, Oslo ko'chalarida Apelsin qizni uchratishimdan ancha avval sehrlil bo'lgan. Meni hozir ham hech kim ko'rmagan narsalarni ko'rish zavqi qamrab olgan. Bu tuyg'uni so'z bilan ifodalash qiyin, ammo dunyomizni tabiat qonunlari haqidagi zamonaviy bahslar: evolutsiya, atom, DNK molekullari, biokimyoy, asab hujayralari haqidagi nazariyalar, umuman, yer sharimiz aylanishidan, Koinotda esa sayyoraga aylanishidan va insonning mag'rur vujudi yurak, o'pka, buyrak, jigar, miya, qon aylanish tizimi, mushaklar, oshqozon va ichakka bo'linishidan oldin avvalgi holda tasavvur qilib ko'r. Men inson inson bo'lgan, undan ortiq ham, kam ham bo'lmagan davr haqida gapiryapman. U paytda olam yarqiragan yagona ertak edi.

O'rmon chetiga kutilmaganda bug'u yugurib chiqdi va menga diqqat bilan tikilib qoldi, so'ng g'oyib bo'ldi. Hayvonni qochishga kim majbur qiladi? Qanday kuch yerni kamalakning barcha ranglaridagi o'simliklar bilan qoplab, tungi osmonni miltillagan yulduzlarning be-takror to'ri bilan yoritadi?

Tabiatning sof va sodda hissini faqat xalq ijodida, masalan, aka-uka Grimmlarning ertaklarida topish mumkin. Ularni o'qib chiq, Georg. Irlandlarning avlod-dan avlodga o'tib kelgan dostonlari, yunon va qadimgi skandinav afsonalarini o'qib chiq, Tavrotni o'qi.

Dunyodan zavqlan, Georg, fizika va kimyoni quruq yodlab olmasdan avval undan zavqlan.

<sup>1</sup>Bermud uchburchagi nazarda tutilmoqda.

*Shu daqiqada Xardangerviddning shamolli kengliklari bo'ylab katta yovvoyi bug'ularning to'dalari yugurib yuribdi. Rona etagida Kamarg orollarida minglab pushti flamingolar uya qurmoqda. Nozik g'izollarning sehrli to'dalari ertakdagi kabi Afrika savannalarida yelmoqda. Antarktikaning muzli sohillarida ming-minglab qirollik pingvinlari tinmay bijirlamoqda, u yer ularga yoqadi. Ammo gap faqat sonda emas. Yolg'iz o'ychan bug'u Estlanddagi qoraqarag'aylar o'sgan tepalikda boshini ko'taradi. Bir yil avval ulardan biri adashib qolib, Xyumleveyendan chiqdi. Qo'rquv ichidagi lemming Fellstyolendagi omborxonada taxtalar orasida zir chopadi. Semiz tyulen Tyonsberg yonidagi orolchada shaloplab suvga tushadi...*

*Menga tabiat mo'jiza emas deya ko'rma. Olam ertak emas deya ko'rma. Buni tushunmagan odam ertak tugaguncha hech nimani tushunolmasligi mumkin. O'shanda u ko'zpanasini olib tashlab, xayrlashishi va butun umrga ayrilish kerak bo'lgan mo'jizaga so'nggi daqiqada maftun bo'lishning yo'qolib borayotgan imkonini tutishga uringancha hayratdan ko'zlarini ishqalay boshlaydi.*

*Umid qilamanki, Georg, senga nima demoqchi bo'layotganini tushunasan. Hech kim Evklid geometriyasi va Davriy tizim bilan ko'zda yosh ila xayrlashmaydi. Hech kim internetdan yoki ko'paytirish jadvalidan ayrilishini o'ylab, ko'zyosh to'kmaydi. Dunyo bilan, xayot bilan, ertak bilan xayrlashishadi. Va o'zgacha sevimli bo'lgan sanoqli qadrdonlar bilan ham.*

*Ba'zan ko'paytirish jadvali kashf qilingunga qadar, hech bo'lmaganda, zamonaviy fizika va kimyo paydo bo'lgan, biz go'yoki hamma narsani anglagan payt-*

dan avval bo'lgan davrda yashagim kelardi – haqiqiy ertakdagidek olamda yashagim kelardi demoqchiman! Ammo hayot o'zicha qaror chiqardi va men shu daqiqada kompyuter qarshisida o'tirib, senga shu satrlarni yozyapman. Men o'zim ilmi odamman, fandan voz kechmayman, lekin shu bilan birga dunyoni sirli, deyarli animistik tushunishga moyilman. Hech qachon Nyuton yoki Darvinga hayotning asroridan sirlilik pardasini olib tashlashga yo'l bermayman. (Agar bironta so'zni tushunmasang, ularni lug'atdan qarab ko'r. Xoll-da katta zamonaviy lug'at turibdi. Ya'ni u hozir, men yozayotganimda o'sha yerda turibdi, bilmadim, balki, u senga allaqachon eskirib ketgandek ko'rinar).

Senga bir sirni ochaman: tibbiyotni o'rgana boshlashimdan avval menda ikkita imkoniyat bor edi. Shoir bo'lgim va biz yashayotgan olamning sehrini so'zda madh etgim kelardi. Lekin bu haqda avval yozgandim. Yana shifokor, ya'ni hayot uchun xizmat qiladigan inson bo'lgim kelardi. Har ehtimolga qarshi, avval shifokor bo'lishga qaror qildim.

Shoir bo'lishga endi ulgurmayman. Ammo bu xatni yozib bitirishim kerak.

Kasalxonadan uyga, bog'da molbert qarshisida turib, gullayotgan olchani chizayotgan Apelsin qizning yoniga qaytishning o'ziyoq qalbimni juda teran – hatto orzu qilishga ham botinmagan hislarga to'ldirardi. Bir kuni uyga qaytib, uni bog'da ko'rgach, chidolmadim va uni yotoqxonaga olib kirdim. U kulardi, e Xudo, o'shanda u rosa kulgandi! O'sha yerda uni bag'ringa bosdim. Seni baxtimizning bu tomonidan voqif qilishdan uyalmayman. Nimadan uyalishim kerak? Voqeamdagi asosiy g'oya shu-ku axir.



*Sen bir yarim yildan so'ng Xyumleveyenda tug'il-ding. Seni birinchi marta qo'lga olganimda, qanchalik g'ururlandim. O'g'il bola! Qiz tug'ilganda, unga Ran-veyg deb ism qo'yardik. Onasi Apelsin qiz bo'lgan kich-kina qizchaniing ismi shunday edi.*

*Tug'uruqdan so'ng rangi ketib, holsizlanib qolgan Verunika baxtli edi. Bizdan baxtiyorroq odam yo'q o'sha onda. Yangi qoidalariga ega yangi ertak boshla-nayotgandi.*

*Senga yana bir sirni ochaman. Sen tug'ilgan tug'ruq-xonada mening institutdagi o'rtog'im ishlardi. U yangi ota-ona uchun shampän vinosi ko'tarib tug'ruq bo'limi-ga keldi. Aslida, bunga ruxsat yo'q, hatto qat'iy taqiqla-nadi. Ammo yo'lakka qaragan derazada kichkina parda bor edi, uni surib qo'ysa bo'lardi, uchovlon hozir shu yerda o'z yo'lini boshlagan hayot uchun ichdik. Senga shampän berishmadi, albatta, lekin ko'p o'tmay Veruni-ka senga ko'kragini tutdi, u esa shampandan bir necha qultum ichgandi!*

*Apelsin qiz meni Sevilyada, vokzalda kuzatayot-ganda, yo'ldagi zovurda o'lik oq kaptarni ko'rganimiz esingdami? Bu yomon alomat edi.*

*Balki, bu ertakning barcha qoidalariga amal qilma-ganim uchun shunday bo'lgandir.*

*Fellstyolendagi Pasxa esingdami? Sen deyarli uch yarim yoshda eding. Yo'q, sen buni eslolmaysan, albat-ta. Institutda psixologiyani ham o'rganganmiz. Shuning uchun odam to'rt yoshigacha bo'lgan voqealardan de-yarli hech nimani eslolmasligini bilaman.*

*Sen bilan uy devori yonida o'tirib, bitta apelsinni ikkiga bo'lganimiz esimda. Verunika, yo'l oxiri yaqin-ligini sezgandek, videoga tushirdi. Undan so'rab ko'r,*

*kasseta saqlanib qolganmikan? Balki, o'tmishni xotirlash unga og'ir bo'lar, lekin baribir so'rab ko'r.*

*Pasxadan keyin jiddiy kasalligimni tushundim. Verunika menga ishonmasdi, lekin men yaxshiroq bilardim-ku. Men doim alomatlarni puxta ta'bir qilganman.*

*Men hamkasbim, sen tug'ilganingda, tug'ruqxona-da bizga shampan olib kelgan shifokor yoniga bordim. Avval u mendan bir necha marta qon tahlili oldi, keyin rentgen tekshiruvini o'tkazdi, oxir-oqibat fikrimni tasdiqladi. Tashxislarimiz mos tushdi.*

*Shundan keyin ish kunlarining tabiati o'zgardi. Verunika ikkovimiz uchun bu fojia edi, lekin biz uni iloji boricha ortga surardik. Kutilmaganda hayotimiz yangi qoidalarga bo'ysuna boshladi. Intilish, sabr, sog'inch singari so'zlar yangi ma'noga ega bo'ldi. Biz endi har kuni birga bo'lishimiz haqida so'zlashmasdik. Umuman, endi bir-birimizga hech nimani va'da qilolmasdik. Ik-kimiz ham birdan baxtsiz va himoyasiz bo'lib qoldik. Samimiy „biz“ olmoshi mash'um ma'no kasb etdi. Endi bir-birimizga hech handay talablar qo'yolmasdik, endi umumiy orzu-umidlarimiz yo'q edi.*

*Bu xatni o'qiyotib, mening hissamni oz-ozdan bilib olyapsan. Tushunyapsan. Bu haqda o'ylash men uchun yoqimli.*

*Sen o'zingcha boshqa birovdan ko'ra meni yaxshiroq bilishing kerak, garchi to'rt yoshga to'lganingdan beri so'zlashmagan bo'lsak ham. Ammo hech kim bilan bu xatdagidek ochiqchasiga gaplashmaganman. Shuning uchun yangi qoidalarni qabul qilish menga qanchalik og'ir bo'lganini tushunishing kerak. Men hammasi nimaga qarab ketayotganini bilardim, ko'p o'tmay*

seni va Apelsin qizni tark etishim kerakligiga asta-sekin ko'nikishim kerak edi.

Ammo sendan bir narsani so'rashim kerak, Georg. Ortiq kutishga kuchim qolmadi hisob. Biroq avval senga bu yerda, Xyumleveyenda bir necha hafta oldin sodir bo'lgan voqea haqida aytib bermoqchiman.

Verunika har kuni ertalab badiiy maktabda yoshlarga apelsinlarni chizishni o'rgatadi. Unga uyda men bilan kun bo'yi o'tirishga hojat yo'qligini aytdim. Nonushtani sen bilan birga qilaman. Keyin seni bog'chaga olib borib, bir necha soat xollda kompyuter qarshisida senga shu uzun xatni yozaman.

Ba'zan kunduzi biroz uxlayman, ammo o'zimni yomon his qilganim uchun emas, balki kechasi, meni har xil xayollar qiynayotganda uxlolmaganimdan, kechasi ulardan qochib ketolmayman. Hozir uyquga ketadigandeksan, ammo birdan mehribon parilar bo'lmagan, faqat shum alomatlar, yovuz ruhlar va badniyat elflar mavjud bo'lgan katta, qo'rqinchli ertaklarning azobli jumboqlarini o'ylab qolasan. U holda kechasi umuman uxlamagan durust, kunduzi divanda, atrof yorug' bo'lganda mudrab olganing yaxshiroq.

Sen va Verunika shirin uxlayotganingda, menga uxlamay yotish og'ir botmaydi. Qolaversa, Verunikani uyg'otishim qiyin emas, bir necha marta shunday qildim ham, u men bilan o'tirdi. Ba'zan esa, tun bo'yi. Biz deyarli gaplashmadik. Shunchaki yonma-yon o'tirdik. Choy ichdik. Bir burda non bilan pishloq yedik. Endi hamma narsa boshqacha edi, Georg. Yangi qoidalar shunday edi.

Biz soatlab bir-birimizning qo'limizni ushlab o'tirardik. Ba'zan uning qo'liga, shunday mayin va bejirim

qo'liga, keyin o'zimmikiga, faqat bitta barmog'imga, faqat tirnog'imga qarab o'tirardim. Bu barmog'im hali ancha vaqt omon qoladimi deb o'ylardim men. Yoki uning qo'lini o'pardim.

Hozir men ushlab turgan qo'lni umrimning so'nggi daqiqasida ham, balki, kasalxona karavotida, balki, uzluksiz bir necha soat davomida, toki quvvatim ketib, qo'yib yubormagunimcha ushlab o'tiraman deb o'ylardim. Biz hammasi shunday bo'ladi deb kelishib oldik, u menga va'da berdi. Bu haqda o'ylash yoqimli. Va benihoya qayg'uli. Bu dunyo bilan xayrlashganim – Apelsin qizning iliq va jonli qo'lini qo'yib yuborganimdir.

Georg, seningcha, u tomonda kimningdir qo'lidan ushlab tura olamanmi? Aslida, men hech qanday u tomon yo'q deb o'ylayman. Bunga deyarli aminman. Bor narsamiz faqat oxirigacha bor. Ammo inson ushlaydigan oxirgi narsa ko'pincha qo'l bo'ladi.

Men dunyoda eng yuqumli narsa, bu – kulgi deb yozgandim. Lekin qayg'u ham yuqumli bo'lishi mumkin. Qo'rquv boshqa gap. Uni yuqtirib olish, kulgi yoki qayg'uni yuqtirishchalik oson emas va bu yaxshi. Qo'rquvga odam deyarli hamisha yakkama-yakka duch keladi.

Men qo'rquyapman, Georg. Bu dunyodan siqib chiqarilish – qo'rqinchli. Men, umrim tugayotganini bilgach, bu kabi kechalardan qo'rqaman.

Ammo bir kuni kechqurun sen uyg'onib qolding, o'sha kecha haqida senga aytib bermoqchiman. Qishki bog'imizda o'tirgandim, kutilmaganda xonangdan mehmonxonaga shipillab o'tayotganingni ko'rib qoldim. Sen ham menga qarading. Odatda, kechasi uyg'onsang, ikkinchi qavatga bizning yotoqxonamizga ko'tarilarding, ammo hozir to'xtab qolding, balki, chiroqni ko'rganing

*uchundir. Men qishki bog'dan chiqib, seni ko'tarib oldim. Sen uxlo olmayotganingni aytding. Onang bilan bir necha marta uxlo olmayotganim haqida gaplashganimizni eshitgan bo'lsang kerak.*

*Tan olishim kerak, shunday damda, menga juda kerak bo'layotganingda, uyg'onib, yonimga kelganingdan juda ham sevinib ketdim. Shuning uchun seni o'rningga yotqizmadim.*

*Sen bilan hamma narsa haqida gaplashgim kelardi, ammo buning iloji yo'qligini, hali juda kichkinaligingni tushunardim. Ayni paytda menga taskin beradigan darajada katta bo'lib qolganding. O'sha kecha sen bilan bir necha soat o'tirishim mumkin edi. Axir aynan shunday kechalarda Verunikani uyg'otardim. Endi u xotirjam uxlashi mumkin.*

*Osmon nihoyatda tiniq, buni qishki bog' derazasidan ko'rdim. Avgustning ikkinchi yarmi edi, sen, hoynahoy, bunchalar yulduzga to'la osmonni ko'rmagansan, har qalay, o'tgan yozda sen hali juda kichkina eding. Senga ust-bosh kiydirdim, o'zim esa kurtkamni kiyib oldim, ikkovimiz ayvonga joylashdik, faqat sen va men. Uydagi chiroqni va tashqi fonuslarni o'chirdim.*

*Senga avval juda ham ingichka hilolni ko'rsatdim. U kunchiqarda, pastda edi. O'ngga qayrilib turardi, ya'ni ingichkalashayotgandi. Senga buni tushuntirdim.*

*Sen tizzamda o'tirib, atrofingni qurshab turgan osoyishtalikni o'zingga sindirayotganding. Men esa sendan tarqalayotgan osoyishtalikni o'zimga singdirayotgandim. Keyin senga olis osmon gumbazidagi yulduzlar va sayyoralarni ko'rsata boshladim. Senga hamma narsa haqida aytib berishni juda xohlardim, biz bir zarrasi bo'lgan buyuk ertak haqida, biz bor-yo'g'i mayda tosh-*

cha bo'lgan ulkan mozaika haqida aytib bergim kelardi. Bu ertakning ham biz tushuna olmaydigan, ammo yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar bo'ysunishimiz kerak bo'lgan o'z qonun-qoidalari bor edi.

Yaqinda seni tark etishimni bilardim, ammo bu haqda gapiroldim. Hozir ko'z oldimda ochilgan bu buyuk ertakdan chiqib ketish yo'lida ekanligimni bilardim, ammo senga hech nimani tushuntirib berolmasdim. Buning o'rniga senga yulduzlar haqida gapira boshladim, avval senga tushunarli bo'lishi uchun oddiy qilib, ammo keyin gapga berilib, xuddi sen katta odamdek Koinot haqida gapirib ketdim.

Sen gapimni bo'lmasding. Senga gaplarimni eshitish yoqardi, garchi men aytayotgan hamma jumboqlarga javobni bilmasang ham. Balki, sen hikoyamdan taxmin qilish mumkin bo'lganidan ko'proq narsani tushungandirsan. Har qalay, sen gapimni bo'lmading, uxlab ham qolmading. Go'yo bunday tunda menga pand berishing mumkin emasligini bilgandek. Go'yo men sen bilan emas, sen men bilan o'tirganingni sezgandek. Bugun otangning oldida navbatchilik qilayotgandek.

Senga yer shari o'z o'qi atrofida aylanishini, hozir quyoshga teskari burilib olganini, shuning uchun tun cho'kkanini tushuntirib berdim. Faqat quyoshning chiqishi va botishi bizga yer shari aylanishini bildirib turadi, deb tushuntirdim senga. Balki, mening izohimni tushungandirsan, chunki ba'zida sen bilan tunlari shunday qo'shiq aytardik:

Quyosh ko'zlarini yumdi,

axir u uxlashi kerak,

Endi men ham ertalabgacha ko'zlarimni yumaman...

*Shu ashula esingdami?*

*Senga Venerani ko'rsatdim va bu yulduz – xuddi yer singari Quyosh atrofida o'z orbitasida aylanadigan sayyora ekanligini aytdim. Yilning bu paytida Venera kunchiqar tomonda ko'rinadi, chunki Quyosh unga ham xuddi yerga nur sochgandek nur sochadi. Keyin senga yana bir sirni ochdim. Bu sayyoraga qaraganimda, har gal Verunika haqida o'ylashimni aytdim, chunki „Venera“ so'zi qadimda „muhabbat“ ma'nisini bildirgan.*

*Ammo biz osmonda ko'radigan deyarli hamma nurli nuqtalar haqiqiy yulduzlar, dedim men, ularning o'zi quyoshdek nur sochadi, chunki osmondagi har bir, hatto eng kichkina yulduz ham, bu – qaynoq quyosh. O'shanda nima deganingni bilasanmi? „Ammo yulduzlar bizni kuydirmaydi“, deding. O'sha yoz juda issiq kelgandi, Georg, oftob kuydirmasligi uchun senga yog'upa surishimizga to'g'ri kelardi. Seni qattiq quchib, shivirladim: „Chunki yulduzlar bizdan juda ham uzoq“.*

*Men bularni yozayotgan paytda sen polda emaklab, temiryo'lingni qayta qurib chiqyapsan.*

*Bu yerda qancha narsani qoldirib ketishim kerak! O'zimizdan keyin juda ko'p narsa qoldiramiz.*

*Bir necha daqiqa oldin sen yonimga kelib, kompyuterda nima yozayotganimni so'rading. Men eng yaxshi do'stinga xat yozayotganimni aytdim.*

*Senga eng yaxshi do'stim haqida bunchalik g'amgin gapirganim g'alati tuyuldimi, „Onamga yozyapsizmi?“ – deb so'rading.*

*Men rad etib bosh chayqadim. „Onang – mening sevgilim, – dedim. – Bu esa butunlay boshqa“.*

*„Unda men kimman?“ – so'rading sen.*

*Sen meni mot qilib qo'ydim deb o'ylading. Seni tiz-*

zamga ko 'tarib, mahkam bag 'ringa bosdim va eng yaxshi do 'stim – sensan, dedim.

Yaxshiyam, boshqa savol bermading. Senga xat yozayotganimga ishonolmasding. Menga ham qachondir, ehtimol, bu xatni o 'qishingni tasavvur qilish og 'ir edi.

Vaqt, Georg. Vaqt nima?

Men hikoya qilishda davom etardim, garchi hali gaplarimni tushuna olmasligingni bilsam ham.

Koinot nihoyatda keksa, dedim, kamida o 'n milliard yoshda. Shunday bo 'lsa ham, uning qanday paydo bo 'lgani bizga haligacha noma 'lum. Biz hammamiz o 'zimiz yaxshi bilmaydigan bitta katta ertakda yashaymiz. Uning kelib chiqishi haqida tasavvurga ega bo 'lmay turib, dunyoda raqs tushamiz, o 'ynaymiz, gaplashamiz va kulamiz. Bular hayot raqslari, o 'yinlari va musiqasi, dedim men. Sen ularni odamlar mavjud bo 'lgan hamma joydan topasan, xuddi zummer<sup>1</sup>ning g 'o 'ng 'illashi hamma telefonlarda eshitilgani kabi.

Sen boshingni ortga tashlab, menga qarading. Sen go 'shakni ko 'tarib, unga quloq solishni yaxshi ko 'rarding.

O 'shanda senga hozir, uni tushunishga qodir bo 'lgan paytingda bergan savolimni aytdim, Georg. Shu savol tufayli senga Apelsin qiz haqidagi uzun hikoyani so 'lab berdim.

Men: „Tasavvur qil, sen milliardlab yil avval, hammasi endi boshlangan paytda shu ertak bo 'sag 'asida turibsan. Senda qachondir kelajakda tug 'ilish va bu sayyorada yashash yoki yashamaslikni tanlash imkoni bor. Bu qachon sodir bo 'lishi senga ma 'lum emas, qan-

<sup>1</sup>Zummer – tovush beradigan elektr asbob.



*cha umr ko'rishing ham ma'lum emas, ammo katta muddat haqida gapirishga hojat yo'q. Sen faqat, agar qachondir yoki biz aytgandek, oy-kuni yetib dunyoga kelish imkonini tanlasang, uni tark etishing kerak bo'lgan dam ham keladi. Balki, bu senga azob berar, axir ko'pchilik bu buyuk ertakdagi hayot shu qadar jozibaliki, uning oxiri haqida o'ylagandayoq ko'zga yosh keladi deydi. Ha, bu yer shunday ajoyibki, bularning bari tugashi mumkinligi haqidagi o'y chidab bo'lmas azob berishi mumkin", dedim.*

*Sen tizzamda sichqondek jimgina o'tirarding. Sendan: „Georg, senga shunday tanlov qilish imkonini bergan oliy kuch mavjud bo'lganda, nimani tanlarding? Axir bu katta va sirli ertakda fazoviy pari mavjud deb tasavvur qilish mumkin-ku. Sendan yuz million yildan keyin, qisqa bo'ladimi yoki uzun, farqi yo'q, hayotni tanlarmiding?“ deb so'radim.*

*Bir necha marta og'ir xo'rsindim, keyin esa qat'iy ohangda: „Yoki qoidalari senga yoqmagani uchun bu o'yinda ishtirok etishdan bosh tortarmiding?“ dedim.*

*Sen hamon tizzamda harakatsiz o'tirarding. Kim bilsin, nima haqida o'ylarding? Sen tirik mo'jiza eding. Och sariq sochlaringdan mandarin hidi kelayotgandek tuyuldi menga. Sen jonli oppoq farishta eding.*

*Sen uxlab qolmading. Lekin jim eding.*

*Balki, senga juda og'ir savol berayotgandirman? Balki, bunga haqim bo'lmay turib senga juda ko'p narsani oshkor qilayotgandirman. Lekin men uchun javobingni bilish juda muhim, chunki men hozir o'sha yerdaliging uchun javobgarman. Agar men buning baridan voz kechsam, sen bo'lmasding.*

*Dunyoga kelishingga sabab bo'lib, ma'lum ma'noda*

men ham aybdorman. Ammo, bundan chiqdi, uni qachondir sendan tortib oladigan ham o'zim. Bolaga hayot berish – unga butun dunyoni tortiq qilishgina emas. Bu undan shu aql bovar qilmas tuhfani tortib olish degani ham.

Men Apelsin qizga ko'ngil qo'yishdan o'zimni tiyolmadim, muhabbatga asir bo'lishdan o'zimni tiyolmadim, bola haqida orzuga berilishdan o'zimni tiyolmadim. Endi afsus va o'z aybimni yuvish ehtiyoji tug'ildi. Qayerda xato qildim, deb o'ylayman. Men uchun bu savol, o'zimdanda keyin tartib o'rnatish ehtiyoji tug'ilganda, o'z vijdonim bilan qonli to'qnashuvga teng. Agar sen hech nimaga qaramay, qisqa bo'lsa ham, hayotni tanlashingni aytsang, unda tug'ilganimdan afsuslanmasam ham bo'ladi.

Unda bizning masalamizda nisbiy muvozanat yuzaga keladi, hammasi hali javobga mos kelishi mumkin. Tabiiyki, men shunga umid qilyapman. Aslida, shuning uchun ham yozyapman.

Mening og'ir savolimga bevosita javob bermasliging mumkin. Ammo unga bilvosita javob bersang bo'ladi. Sening javobing Verunika, men va o'sha itoatsiz shifokor tug'ruqxonada sening sog'lig'ing uchun ichganda boshlangan hayotingni qanday yashab o'tishing bilan ma'lum bo'ladi. O'sha shampan ko'tarib kirgan shifokor sening mehribon pariying edi, bunga aminman.

Endi xatimni bir chetga olib qo'ysang bo'ladi. Chunki yashash uchun navbating keldi.

Ertaga men kasalxonaga yotaman. O'sha muhim uch-rashuv – shu. Endi seni bog'chaga olib borish oyingga qoladi.

*Seni bu haqda ogohlantirishim kerak edi. Yana bir gapni qo'shimcha qilmoqchiman: Xyumleveyenda endi hech qachon paydo bo'lmaslikka va'da berolmayman.*

*Georg! Senga oxirgi savol: bu mavjudlikdan keyin boshqa hech nima yo'qligiga amin bo'lish mumkinmi? Bu xatni o'qiyotganingda, men boshqa biron joyda bo'lmasligimni ishonch bilan aytib bo'ladimi? Menda bunday ishonch yo'q. Chunki olam mavjudligining o'zi g'aroyiblik chegaralari buzilganidan darak beradi. Nimani nazarda tutayotganimni tushunyapsanmi? Bu olam mavjudligidan hayratlanishdan shunchalik to'yganman-ki, agar birdan bizning olamdan so'ng boshqa biron-tasiga tushib qolsam, undan hayratlanishga kuchim yetmaydi.*

*Ikki kun oldin sen bilan kompyuter o'ynab, ikki soatni o'tkazib yuborganimiz esimda. Bu o'yin meni sendan ko'ra ko'proq ovuntirgan bo'lsa kerak, noxush xayollardan chalg'ishim kerak edi. Ammo har gal bu o'yinda „o'lganimizda“, darrov toza maydon paydo bo'lar va biz o'yinni boshqatdan boshlardik. Bizning ruhlarimiz uchun ham shunday „toza maydon“ yo'q deb bo'ladimi? Men bunga ishonmayman, to'g'risi, ishonolmayman. Ammo ushalmaydigan narsalar haqidagi orzularning o'z nomi bor. Biz uni umid deb ataymiz“.*

*Men ayvondagi o'sha kechani yaxshi eslardim! U xayolimda mahkam o'rnatilib qolgan. Yuragimga muhr-langan. Bu haqda o'qiganimda, bir necha marta etim jimirlab ketdi.*

*Shu paytgacha men go'yo hech nimani eslolmasdim, bu haqda gap ochilmaganda, o'sha oydin oqshomni hech*

qachon xotirlamagan bo'lardim, ammo hozir hammasi yodimga tushdi, hatto juda aniq. Balki, bu mening otam haqidagi yagona haqiqiy xotiramdir.

Uning Fellstyolenda qanday bo'lgani esimda yo'q. Qanchalik urinmay, Sognsvann ko'li atrofidagi sayrlarimizni eslay olmayman. Ammo ayvondagi o'sha sehrli kechani eslayman. To'g'rirog'i, o'zimcha eslayman. Er-takdek yoki bo'yoqlar bilan tovlanuvchi tushdek.

Men uyg'onib ketdim. Otam oynavand ayvondan mehmonxonaga kirdi va meni tepaga ko'tardi. Parvoz qilishga borishimizni aytdi. Yulduzlarni tomosha qilishga. Biz koinotda parvoz qilamiz. Shuning uchun issiq-roq kiyinib olishim kerak, axir koinot juda sovuq. Otam menga yulduzlarni ko'rsatmoqchi edi. Bizda boshqa bunday imkoniyat bo'lmaydi, undan foydalanib qo'lishimiz kerak, dedi u.

Men otam kasalligini bilardim! Ammo u mening bundan xabardorligimni bilmasdi. Bu sirni onamdan eshitgandim. U otam kasalxonaga yotishi kerakligini aytgan, shuning uchun mana shunday g'amgin, degandi. Balki, shu haqda o'ylab uyg'onib ketgandirman, balki, shuning uchun uxlolmagandirman.

Endi o'sha uzoq tunni va ayvonda o'tirib otam bilan qilgan parvozimizni yaxshi eslayman. Menimcha, otam bizni tashlab ketishi mumkinligini tushungandim. Ammo hozir u menga bizni tashlab, qayerga ketishini ko'rsatishga shoshardi.

O'shanda – bu haqda yozayotganda, etim jimirlab ketyapti – koinotdagi parvozimiz paytida otam birdan yig'lab yubordi. Men uning nimaga yig'lab yuborgani-ni tushundim, ammo u mening tushunganimni bilmasdi. Shuning uchun unga hech nima deyolmasdim. Men

sichqondek jimgina o'tirishim kerak edi. Bo'lishi kerak bo'lgan ish haqida gapirish juda xavfli.

Yana bir gap: o'sha kechadan yulduzlarga ishonib bo'lmasligini bilib olgandim. Har qalay, ular bizni hech nimadan asray olmaydi. Bir kuni biz ularni tark etamiz.

Otam bilan birga koinotda sayr qilayotganimizda va u birdan yig'lab yuborganda, dunyoda hech nimaga ishonib bo'lmasligini tushunib yetgandim.

Otam yozgan so'nggi sahifalarni o'qib bo'lgach, meni nima uchun fazo doim bunchalik qiziqtirganini tushundim. Uni menga otam ko'rsatgan ekan. Pastda jimirlayotgan narsalardan nigohimni uzishni u o'rgatgan ekan. Koinotga nima uchun qiziqishimni tushunishdan ancha avval havaskor-astronom bo'lgandim.

Ikkimizni Xabbl teleskopi bunchalik qiziqtirganining hech qanday ajablanarli joyi yo'q. Bu menga otamdan o'tgandi! Men shunchaki u to'xtagan joydan davom ettirdim. O'ziga xos meros. Ammo har doim xuddi shunday bo'ladi-ku? Xabbl teleskopiga ilk tayyorgarlik tosh asridayoq boshlangan. Umuman olganda, yo'q: eng birinchi tayyorgarlik makon va zamon paydo bo'lgan Katta Portlashdan keyingi o'sha bir necha mikrosoniyalarda ko'rilgan.

„Urug' sepmoq“ degan ibora bor. Otam o'limidan avval urug' sepishga ulgurgandi. Insho uchun menga mavzuni u topib bergan desa ham bo'ladi.

U ingliz futboliga qiziqqan deb o'ylamayman. Yaxshiki, u „Spice girls“ni eshitmagan. Uning Roald Dalga munosabatini ham bilmayman.

Men o'qishni tugatdim. Va xayolga berildim. Onam yana eshigimni taqillatdi. „Georg?“ – deb chaqirdi u.

Unga tugatganimni aytdim.

„Unda hozir chiqasan-a?“ – dedi u.

„Yaxshisi, o‘zingiz kira qoling“, – dedim.

Eshikni ochib, uni xonaga kirgizdim. Yaxshiyamki, u tezda eshikni yopdi.

Ko‘zimdagi yoshlardan uyaldim. Otam bilan endi uchrashishni boshlaganda, onamning ham ko‘zlarida yosh bor edi. Endi u bilan men uchrashdim.

Men Apelsin qizning bo‘ynidan quchib, „Otam bizni tashlab ketdi“, dedim.

Onam meni bag‘riga bosdi. U ham yig‘lardi.

Biz karavot chetiga o‘tirdik. Keyin otam nimani yozganini so‘radi. „Qanchalik qiziqayotganimni tushunasana-ku, – deya qo‘shib qo‘ydi u. – Bu meni hatto cho‘chityapti. Uning xatini o‘qishdan qo‘rqaman“.

Men otam uzun muhabbatnoma yozganini aytdim, onam, albatta, bu muhabbatnoma menga atalgan deb o‘yladi, uning uchun boshqacha bo‘lishi mumkin emasdi ham. Men otam bu muhabbatnomani unga, Apelsin qizga yozganini tushuntirdim.

Yana: „Men otamning eng yaxshi do‘sti edim. Siz esa – sevgilisi. Bu butunlay boshqa narsa“, – dedim.

U karavot chekkasida uzoq jim o‘tirdi. Onam hali juda yosh ko‘rinadi. Apelsin qiz haqidagi uzun qissani o‘qib chiqqach, uning chiroyliligini ko‘rdim. U chindan ham olmaxonga biroz o‘xshardi. Ammo hozir u hammasidan ham tumshug‘i titrayotgan polaponni eslatardi.

Men: „Otam kim edi?“ – deb so‘radim.

U titrab ketdi. Axir u shuncha vaqt nimani o‘qiganimni bilmasdi. „Bilasan, uning ismi Yan Ulav edi“, – dedi.

„Ha, lekin u kim edi? Qanday edi demoqchiman?“

„Ha-a...“

Asta-sekin uning lablarida Mona Liza tabassumi o'ynay boshladi. U menga xira nigohlarini tikib o'tirardi. Men endi otam bir necha marta takrorlagan narsani sezdim. Uning diqqatini qanday jamlashini ko'rdim. Uning jigarrang ko'zlari xuddi qandaydir raqsga tushayotgandek bezovta alanglardi...

Onam: „U juda, juda yaxshi edi... bunday odamlar kam uchraydi. Yana u xayolparast, hatto afsona to'quvchi edi... U doim hayot ertak deb takrorlardi, menimcha, u hayotni... deyarli xayolotdek his qilardi. Keyin u ashaddiy romantik edi... umuman olganda, ikkalamiz ham romantik edik. Undan keyin u kasal bo'lib qoldi, yashirmayman, bundan cheksiz qayg'uga tushdi. Buni ko'rish og'ir, juda og'ir edi. U seni shunday yaxshi ko'rardiki... senda... ha, u senga topinardi. U seni ham, meni ham yo'qotishga bardosh berolmasdi.

Ammo kasallikka qarshi turolmasdi ham, xastalik uni beayov va beshafqatlarcha bizdan tortib oldi. U o'z taqdiriga tan berolmadi, hech qachon, oxirgi daqiqagacha. Shuning uchun undan keyin qolgan bo'shliq shunchalar katta... Men hali ham mos so'zni qidirayman...“ dedi.

„Men shoshmayapman“.

„U biz xayolparast, deb ataydigan odam edi. Shunday demoqchi edim“.

Endi men jilmaydim. Va: „Yana u rostgo'y edi. U o'zini yaxshi bilardi. O'ziga istehzo bilan qaray olardi. Bunday xususiyat hammaga ham xos emas“, dedim.

Onam menga savolomuz qaradi: „Ha, hoynahoy, sen haqсан. Lekin sen buni qayerdan bilasan?“

Men bir dasta qog'ozni ko'rsatdim. „Buni o'qib chiqishingizga to'g'ri keladi, – dedim. – O'shanda nimani nazarda tutayotganimni tushunasiz“.

Apelsin qiz yana ko'zyoshlarini artishga majbur bo'ldi. Ammo biz ortiq xonamda yig'lab o'tirolmasdik. Yorgen nima deb o'ylaydi? Unga havas qilolmasdim.

„Hammaning yoniga chiqaylik“, – dedim.

Mehmonxonaga kirgach, o'zimni bir necha soat avval otamning xatini olib, o'z xonamda o'qiy boshlagan paytimdan ancha yoshga ulg'aygandek sezdim. O'zimni shunchalik katta his qilardimki, hatto meni qarshi olgan qiziquvchan nigohlarga ham e'tibor bermadim.

Katta oshxona stolida sovigan kechki ovqat tortilgandi. U yerda jo'ja, vetchina, apelsin parraklari qo'shilgan valdorf salati va katta idishda ko'k salat bor edi. Beshovimiz stol yoniga o'tirdik, men stol boshida o'tirardim.

Biznikida mehmonlar ko'p bo'lganda, onam, odatda, „kimdir bosh bo'lishni o'z zimmasiga olishi kerak“, deydi. Hozir esa shunga o'xshash vaziyat edi, bu ish mening zimmamga tushgandi. Har qalay, hamma menga qarab o'tirardi. Shunday qilib men bosh bo'lib qoldim.

Hammaga qarab chiqib: „Otam menga o'limidan avval yozgan uzun xatni o'qib chiqdim. Unda nima yozilganini bilishga hammangiz qiziqayotganingizni tushu-naman...“ dedim.

Xonada sovuq sukunat cho'kdi. U nima demoqchi? Qanday davom ettiradi?

Men: „Bu xat menga yozilgan. Lekin hammamiz otamni yaxshi ko'rardik. Sizlar uchun ikkita xabarim bor, yaxshi va yomon. Yaxshisidan boshlayman. Hammangiz xatni to'liq, boshidan oxirigacha o'qish imkoniga ega bo'lasizlar. Yorgen ham. Yomon xabar shundaki, hech kim uni bugun kechqurun o'qimaydi“, dedim.



Buvim asabiy intiqlik bilan stol ustiga egildi. Uning yuzidan hafsalasi pir bo'lgani sezilib turardi. Bu uning otamning xatini hozir topganidan keyin ham, o'n bir yil avval ham o'qimaganidan dalolat berardi. Shuncha yillardan beri xat chindan ham eski poyga avtomobilining qoplamasi orqasida yotgan ekan.

Men: „Otam yozgan narsalarni muhokama qilishni boshlashimizdan oldin xat bilan bog'liq hamma narsa biroz tinchishini xohlardim. Bundan tashqari, uning muhim bir savoliga javob topish uchun menga vaqt kerak. Unga qay tariqa javob berishim haqida gapirma ham bo'ladi“, dedim.

Hamma so'zsiz rozi bo'ldi. Hech kim menga xat haqidagi savollari bilan ortiq tirq'almadi. Yorgen hatto joyidan turib, yonimga keldi. U yelkamga do'stona qoqib: „To'g'ri o'ylabsan, menimcha, sen haqsan, Georg, hammasi avval tinchishi kerak“, dedi.

„Hademay tun yarim bo'ladi. Hammamiz uxlashimiz kerak“, dedim.

So'zlarim salobatli, kattalarga xos ohangda yangradi. Men endi ulg'aygandim.

Biroq o'sha kecha men umuman ko'z yummadim. Uyda allaqachon hammasi tinchigan edi, men esa karavotda deraza ortidagi oq manzaraga qarab yotardim. Qor allaqachon yog'ishdan to'xtagandi.

Tun yarmida turib, kiyindim. Issiq kurtka, qalpoq, sharf va hatto boshmaldoqli qo'lqop kiydim. Keyin oynavand ayvondan ochiq ayvonga chiqdim. Tunuka qoplangan o'rindiqdan qorni sidirib tashlab, o'tirdim. Tashqi fonuslarni o'chirib qo'ydim.

Charaqlagan yulduzli osmonga qarab, shu yerda otamning tizzasida o'tirgan o'sha kecha kayfiyatini

eslashga urinardim. Meni mahkam bag'riga bosgani esimda. Fazoviy kemadan tushib qolmasligim uchun meni qanday quchoqlagandi-ya. Jarangdor ovoqli bu kap-katta odam birdan yig'lashni boshladi.

Otam bergan jiddiy savol haqida o'ylanib qoldim. Ammo unga qanday javob berish haqida bir qarorga kelolmadim.

Birinchi marta men ham qachondir bu dunyoni va o'zimga qadrli hamma narsani tashlab ketishim ayon bo'ldi. Bu haqda o'ylash alamli edi. Chidab bo'lmas darajada alamli. Bularning barini menga otam anglatdi. Bu esa boshqa gap. Odam o'zini nima kutayotganini bilishi kerak. Bu bankdagi hisob raqamingda qancha puling borligini bilishdek gap. Ammo hali o'n besh yoshdaligim menga taskin berardi.

Shunga qaramay: balki, nima bo'lsa ham, umuman, hech qachon dunyoga kelmaganim yaxshiroq bo'larmidi, axir qachondir bularning barini tashlab ketishim kerakligini o'ylash hozirdanoq chidab bo'lmas darajada azobliku. Ammo men otamning maslahatiga quloq tutib, bunday jiddiy savolga javob berishga shoshilmaslikka qaror qildim.

Boshimni ortga tashlab, yulduzli osmonni tomosha qila boshladim. O'zimning fazoviy kemada uchayotganimni tasavvur qilishga urindim. Bir necha yulduz uchdi. Ayvonda uzoq o'tirdim.

Anchadan keyin eshik qarsillab, ayvonga oyim chiqdi. Tong yorisha boshlagandi.

„Shu yerdamisan?“ – xuddi meni ko'rmagandek so'radi u.

„Uxlolmadim“.

„Men ham“, – dedi u

Men unga qarab: „Biron issiqroq kiyim kiyib, men bilan biroz o‘tiring“, – deb so‘radim.

U tez qaytib chiqdi. Uning egnida esimni taniganimdan beri kiyadigan qora qishki paltosi bor edi. Ammo o‘shanda cherkovda aynan shu paltoda bo‘lganiga ishonchim komil emasdi. Shunday bo‘lsa-da, yonimga o‘tirganda, „Endi sizga faqat kumush to‘qa yetishmayapti“, dedim.

U og‘zini kafti bilan yopdi. Keyin: „U to‘qa haqida ham yozibdimi?“ deb so‘radi.

Javob berish o‘rniga unga Sharqdan chiqayotgan katta sayyorani ko‘rsatdim. Buning qanday sayyoraliigi so‘zsiz ham ma‘lum edi, u boshqa yulduzlardek miltillamasdi va men uning Venera ekanligiga amin edim.

„Anavi sayyorani ko‘ryapsizmi? Bu Venera, uni Tong yulduzi deyishadi. Har gal uni ko‘rganda, otam siz haqingizda o‘ylagan“, – dedim.

Odamni og‘ir o‘ylar qiynaganda, gaplashgisi keladi, ammo ba‘zan sukutni ma‘qul ko‘radi. Oyim sukutni ma‘qul topdi.

Ammo men jimlikni buzdim: „Kasalxonaga yotqizishlari arafasida otam bilan kechasi shu yerda o‘tirganmiz. Uning xatidan qolganini ham bilib olasiz. Endi esa bu yerda biz o‘tiribmiz“.

„Georg, – dedi nihoyat oyim. – Men bu xatni kutyapman, shu bilan birga qo‘rqyapman. Uni o‘qiyotganimda uyda bo‘lishingni xohlayman. Meni yolg‘iz qo‘ymaslikka so‘z ber“.

Men uning qo‘lini siqdim. Otamning xatini o‘qiyotganda, onamning yonida bo‘lishim menga muhimdek tuyuldi. Yan Ulavning uzun xatini o‘qiyotganda, Apel-

sin qizga Yorgen taskin berishi noto'g'ri bo'lardi. Ammo unga ham otamning xatini o'qishga ruxsat beriladi. U osongina qutulolmaydi.

Men: „O'sha tunda, bu yerda, ayvonda otam menga bizni tashlab ketishi kerakligini aytgan“, dedim.

Oyim menga keskin o'girildi: „Bilasanmi, Georg... bu haqda yana gapira olamanmi, bilmayman. Sen hurmat bilan qarashing kerak bo'lgan bir narsa bor. Eski yarani tirnayotganingni tushunyapsanmi? Yoki tushunmayapsanmi?“

Uning jahli chiqdi hisob. Jahli chiqqani aniq.

„Albatta, tushunaman“, – dedim.

Biz uzoq, bir so'z aytmasdan o'tirdik. Balki, bir soatdir. Men hayratda qolgandim. Oyim doim tezda sovgotib qolardi.

Yangi yulduz yoki sayyorani ko'rib qolib, uni oyimga ko'rsatardim, ammo ko'p o'tmay yulduzlar oqara boshladi, tong yorishganda esa, butkul g'oyib bo'ldi.

Uyga kirishdan avval unga yana osmonni ko'rsatib, „U yerda – yuksakda katta ko'z aylanyapti. Uning og'irligi o'n bir tonna, u ham parovozdek katta, ikkita qanoti yordamida o'zini tutib turadi“, dedim.

Onam seskanib ketdi, nimani nazarda tutayotganimni tushunmadi.

Men uni ko'rqitmoqchi emasdim, arvoq haqida qandaydir voqeani aytib berish ham xayolimda yo'q edi. Uni tinchlantirish uchun tezda: „Bu Xabbl teleskopi. Koinot ko'zi“, dedim.

U onalarga xos tabassum bilan jilmayib, boshimni silash uchun qo'lini cho'zdi. Ammo men o'zimni chetga olishga ulgurdim. U meni hali bola deb o'ylardi. Balki, meni inshosini esladi deb o'ylagandir.

„Bir kun kelib buning nima ekanligini aniqlaymiz“, – dedim.

Ertasi kuni menga maktabga bormaslikka ruxsat berishdi. Faqat hammasini boricha o‘qituvchimga aytish kerak, deb hisoblardi buvim. Men o‘n bir yil avval vafot etgan otamdan xat olganimizni aytishim kerak edi. Bunday vaziyatlarda har doim tanaffus kerak bo‘ladi, deb qo‘shib qo‘ydi u.

Ancha oldin vafot etgan otadan xat olishga o‘xshash bunday vaziyatlar bo‘lishi mening xayolimga ham kelmagandi.

Bobom bilan buvim otamning xatini o‘qimayoq Tyonsbergga ketishga majbur bo‘ldi. Men uni kechi bilan bir haftadan keyin o‘qishlariga va‘da berdim. Buvim bunchalik uzoq kutishi kerakligidan ozgina xafa bo‘ldi. Axir xatni u topgan, bobomni Oslo ga kelishga u majbur qilgan. Ammo bobom unga Yorgenning so‘zlarini eslatdi.

O‘sha kuni ertalab Yorgen ishga erta ketdi, men uni deyarli ko‘rmadim, ammo oyim ikkimiz uyda qoldik. Choshgohda sariq divanda uxlab qoldim, chunki kechasi bilan uxlamagandim. Uyg‘onganimga chordoqda kichkina tomosha boshlandi.

Oyimdan Sevilyada chizgan hamma eski kartinalarini topishni so‘radim. Yaxshiyam, u birontasini tashlab yubormagan ekan, garchi ulardan „ulg‘ayib“ qolganini takrorlagan bo‘lsa ham. U bu so‘zlarni otamning esida qolgani bo‘yicha chizgan eski portretini so‘rayotganimga aytdi. Bu haqda hech nima demadik, ammo portretni ko‘rib, titrab ketdim. Boshqa bironta kartina boshqa bunchalik ko‘k ko‘zlarni ko‘rmagandim. Oyimga ko‘p kobalt kerak bo‘lgan bo‘lsa kerak, yana bu ko‘zlar boshqa hech kim ko‘rmagan narsalarni ko‘rgan, deb

ham o‘yladim.

„Siz baribir otamdek o‘ylay olmagansiz“, – dedim men. Bu savol emasdi. Bu xuddi ta’kiddek yangradi.

Oyimni apelsin daraxtlari tasvirlangan eski kartinani yana xollga osib qo‘yishga majbur qildim. Boshqa kartinani olib, otam o‘tirib, o‘z kompyuterida yozgan paytda qayerda turgan bo‘lsa, xuddi o‘sha joyga osib qo‘ydik.

Apelsin daraxtlari chizilgan kartinani osib qo‘yganimiz menga yoqdi, unga qarash yoqimli edi. Qisqa vaqt o‘tmishga qaytishga Yorgen rozi bo‘lsa kerak, menimcha. Xuddi shunday dedim ham.

Chordoqdagi katta qutidan temiryo‘limni topdik. Eski kompyuterni ham topdik. Men uni xollga olib kirdim, monitorni ulab, ishga tushirishga urinib ko‘rdim. Bu eski dastur bo‘lib, Word Perfect deb atalardi. Maktabdagi bir o‘rtog‘imning otasi haligacha shu almisoqdan qolgan dasturdan foydalanadi, unga ko‘p marta kirganman.

Ammo otam yozgan hujjatlarni ochishim uchun kompyuter mendan ko‘pi bilan sakkizta harfdan iborat maxfiy so‘z – parolni kiritishimni so‘radi. Qarindoshlarim o‘n bir yil oldin aynan shu parolni topisholmagan.

Men kompyuter bilan kuymalanayotgan paytda oyim orqamda turdi. U ko‘plab har xil so‘zlar va raqamlar, masalan, tug‘ilgan kun, mashina raqami, shaxsiy raqamlarni qo‘llab ko‘rishganini aytdi.

Menda hammasi ancha oddiyroq bo‘lsa kerak degan taxmin tug‘ildi. Shunda sakkizta harfdan iborat so‘zni terdim: Apelsin. Kompyuter „din“ deb ovoz chiqardi-da, qarshimda qattiq diskda yozilgan direktoriyalarining ro‘yxati ochildi. Yumshoq qilib aytganda, oyim lol bo‘lib qoldi. U peshonasini ushlab, hushidan ketib qolayozdi.

Enterni bosdim. Va kecha kechqurun o‘z xonamda o‘qigan matnga tikilib qoldim: „Qulayroq o‘tirib ol, Georg. Qulayroq joylashib olishingni istayman, chunki senga ta’sirli bir voqeani aytib bermoqchiman...“ Ikki marta Nomeni bosib, butun matnni ko‘rib chiqish uchun vertikal strelkani pastga tushura boshladim. Bunga o‘n soniyacha vaqt ketdi. Ha, matndagi eng oxirgi jumla shunday edi: „Ammo ushalmaydigan narsalar haqidagi orzularning o‘z nomi bor. Biz uni umid deb ataymiz“.

Men otamning xatini eski kompyuterdan topdim va bu ajoyib edi: axir bu kitobni u bilan birga yozishga qaror qilib, qaychi va yelim bilan tirishib ishlashga tayyorlandim. Endi mening ishim yengillashgandi, endi faqatgina kompyuterga kirib, otam yozgan matn boshida, ichida va oxirida o‘z matnimni yozishim qolgandi. Menda bu kitobni birga yozyapmiz degan fikr tug‘ildi.

Biroz urinishlardan so‘ng eski printerni ham sozladim. Bu shunchalik qadim buyum ediki, texnika muzeyining biror maxfiy agenti uni mendan o‘g‘irlab qo‘yishidan qo‘rqardim hatto. U taraqlar, gumburlar, har bir sahifaga to‘rt daqiqadan vaqt sarflardi. Chunki bolg‘acha har bir harfga alohida zarb berardi. O‘n bir yil avval, otam vafot etgan yili bu qurilma zamonaviy hisoblangan!

Shu daqiqada men otamning eski kompyuterida yozib o‘tiribman. Oxirgi yozganim: „Shu daqiqada men otamning eski kompyuterida yozib o‘tiribman“.

Oyimning „Unutilmas“ deb atalgan bitta magnitofon tasmasi bor. Bu nodir tasma; unda Natali Koul o‘zining otasi, mashhur Nat „King“ Koul<sup>1</sup> bilan kuylaydi. Balki, boshqalar bunda hech qanday g‘aroyiblikni sezmas,

---

<sup>1</sup>Nat „King“ Koul (1919–1965) – amerikalik mashhur pianinoschi, qo‘shiqchi va aktyor.

ammo gap shundaki, Natali Koul vafot etganiga o'ttiz yil bo'lgan otasi bilan duet kuylagan. Buni amalga oshirish texnik jihatdan unchalik qiyin bo'lmagan. Natali Koul Nat „King“ Koulning qirq yil avval yozilgan eski tasmasiga o'z partiyasini kuylashi kerak bo'lgan, xolos. Yangi yozuvda u otasining ovozigiga singib ketgan deyish mumkin.

Boshqacha aytganda, texnik jihatdan o'ttiz yil avval o'lgan odam bilan duet aytishdan osoni yo'q. Bu o'rinda ruhiy intilish muhim. Biroq ularning dueti juda chiroyli. U – unutilmas.

Bu voqeani cho'zishdan ma'no yo'q. Faqat ikkita narsa qoldi. Birinchidan, otamning og'ir savoliga javob berishim kerak. Yana bir narsa. Ikkinchisidan boshlayman, chunki bu kitobda eng oxiri otamning savoliga bergan javobim bo'ladi, deb qat'iy qaror qildim.

Kartinalar va eski kompyuter bilan o'ralashishlardan so'ng oyim oshxonaga kokosli bulochka pishirishga kirib ketdi. Uni juda yaxshi ko'rishimni biladi, shuning uchun aynan bugun pishirishni boshlagani bejiz emas. Ammo Miriam ham bunday bulochkalarni juda yaxshi ko'radi.

Bulochkalarning yoqimli hidi xollgacha yetib kelganda, oshxonaga kirdim. Oyimdan bulochka so'rab olmoqchi edim. Undan yana bir narsani bilmoqchi edim. Apelsin qiz haqidagi hikoyada bir narsa oxirigacha yetmay qoldi. Oyim hali bu qissani o'qigani yo'q.

Oyim endi ikkita bulochkaga limono'tli qiyom quyan ekan. Oshxona stolida qiyom ustiga sepishi kerak bo'lgan kokosli paket turardi.

„Oq „Toyota“dagi o'sha erkak kim edi?“ – deb so'radim.



Men hech qanday g'arazsiz so'radim. Shunchaki uning g'ashiga tegmoqchi edim. Axir bu eski muhabbat bilan bog'liqligini bilardim. Har qalay, u dadamga shunday degan.

Ammo u kutilmaganda dovdirab qoldi. Avval menga biron nojo'ya ish qilib qo'ygandek qaradi. Keyin kursiga o'tirdi.

„Shuni ham yozgan ekan-da!“ – deb xitob qildi.

„Menimcha, u sizni biroz rashk qilgan“, – dedim.

U indamadi, keyin men so'radim: „Shunchaki o'sha oq „Toyota“dagi kishi kimligini ayting?“

Oyim qotib qolgan nigohlarini menga tikdi. U xuddi po'lat devordan o'tmoqchidek tuyulardi.

„U Yorgen edi“, – dedi oyim juda past ovozda.

Esankirab qoldim. „Yorgen?“ – deb takrorladim.

U bosh irg'adi. Miyamda hali ham hammasi alg'ovdalg'ov edi. Men kokosli paketni olib, kokosni polga socha boshladim. Paketni ag'darib, polga qolganini to'kdim.

„Bu qor“, – dedim.

Oyim stol yonida o'tirardi. Meni to'xtatishga kech bo'lgandi. U faqat: „Nega bunday qilding?“ – deb so'radi.

„Chunki siz aqldan ozibsiz! – deb baqirdim. – Bir paytning o'zida ikkita oshig'ingiz bo'lgan!“

Oyim keskin rad etdi. „Unday emas, – dedi u – Yan Ulavni uchratganimdan beri undan boshqa hech kimim bo'lmagan“.

Menga hali ham bu yerda qovurma hidi kelayotgandek tuyulardi, ammo bulochka haqida o'ylamasdim.

„Yan Ulav o'lishi bilan esa Yorgen paydo bo'lib qoldi-a?“ – dedim.

„Yo'q! – dedi u – Unday bo'lmagan. Yorgen bilan

yana uchrashgunimizcha ancha yillar o'tdi. Shuncha yillardan beri esa sendan boshqa hech kimim yo'q edi. Buni o'zing ham bilasan. Ammo Yorgen bilan yana uchrashib qolganimizdan keyin uni yana sevib qoldim. Shunda ham anchagacha, birga yashashga qaror qilolmadik“.

Bu polaponga rahmim kela boshladi. Uning hamon tumshug'i titrardi. Lekin men beshafqat edim: „Apelsin qiz bu ikki erkakdan qaysi birini ko'proq yaxshi ko'rganini so'rasam bo'ladimi?“

„Yo'q. Bo'lmaydi“, – qat'iy javob berdi u.

U achchiqlanmadi, lekin javobi qat'iy edi. Keyin yig'lab yubordi.

Men savolimni takrorlamadim, chunki otamdan bir narsani o'rgangandim: odam o'ziga daxldor bo'lmagan narsaga daxl qilishga haqli emas. Men qoidalari o'zimga daxldor bo'lmagan ertakdan uzoqroq bo'lishim kerak edi.

Ammo shaxsiy fikrga ega bo'lish man qilinmagan.

Eshitganim menga yoqmadi. Bundan chiqdi, oxir-oqibat oq „Toyota“dagi erkak yutib chiqdi. Uning bunga daxli yo'q edi. Hech kimning daxli yo'q edi. Ammo otam bundan hech qachon xabar topmasligidan xursand edim.

Unday bo'lsa, balki, bo'lgan ishlarda uning o'zi aybdordir. Birinchi bo'lib qoidalarni u buzdi. Apelsin qizni yarim yil kutolmadi. Shuning uchun ko'p o'tmay yo'l bo'yidagi zovurda o'lik kaptarni ko'rgan, ustiga-ustak, kaptar oq bo'lgan.

Bundan buyon otamni har doim oq kaptar deb tasavvur qilaman. Ammo taqdirga ishonishimga amin emasman. Menimcha, otam ham ishonmagan. Aks holda, uni Xabbl teleskopi qiziqtirmasdi.

Kechqurun Miriam va Yorgen bilan birga oyimning shokolad qiyomli bulochkalaridan yedik. Ikkita bulochka limono'tli edi. Ularni Yorgen bilan Miriamga berdik. Men ularning qarshisida qarzdormiz deb hisoblardim.

Bulochka yegan o'sha oqshomdan so'ng bir necha kun o'tdi, men esa hali ham eski kompyuter qarshisida o'tiribman. Otamning savoliga qanday javob berishni hal qilishim kerak. Oxirgi muddat ertaga tugaydi. Hozircha otamning xatini o'qishga hech kimga ruxsat tegmadi. Ertaga yakshanbada tushlikka bobom bilan buvim biznikiga kelishadi. Muddat tugaydi. Oxirgi kunlarda qiladigan og'ir tanlovimdan boshqa narsani o'ylaganim yo'q. Men bu uzun xatni to'rt marta o'qib chiqdim va har gal „bechora otam“ deb o'yladim. Ortiq bu yerda emasligiga chindan ham achinardim. Ammo u yozgan narsalar faqat unga tegishli emasdi. Bu dunyodagi hamma odamlarga, bizgacha yashagan, hozir yashayotgan va bizdan keyin yashaydiganlarga ham daxldor edi.

„Biz dunyoda faqat bir marta yashaymiz“, – deb yozgandi otam. Bir necha marta bu yerdagi hayotimiz juda qisqaligini yozgan. Men buni xuddi u singari tushunishimga amin emasman. O'n besh yil yashab qo'ydim, bu yerdagi hayotim menga unchalik ham „qisqa“ tuyulmayapti.

Ammo otam nimani nazarda tutganini tushunsam kerak deb o'ylayman. Hayot bir kun kelib dunyo mavjud bo'lmay qolishini chinakamiga tushunishga qodir bo'lganlar uchun qisqa. Buni hamma tushunavermaydi. Hamma ham butunlay g'oyib bo'lish nimaligini tushunishga qodir emas. Juda ko'p narsa, soatma-soat, daqiqama-daqiqa buni tushunishga xalal beradi.

Tasavvur qil, sen milliardlab yil avval, hammasi endi

boshlangan paytda shu ertak bo'sag'asida turibsan, deb yozgandi otam menga. Senda qachondir kelajakda tug'ilish va bu sayyorada yashash yoki yashamaslikni tanlash imkoni bor. Bu qachon sodir bo'lishi senga ma'lum emas, qancha umr ko'rishing ham ma'lum emas, ammo katta muddat haqida gapirishga hojat yo'q. Sen faqat, agar qachondir bir kuni vaqti yetib, yoki biz aytgandek, oy-kuni yetib dunyoga kelishing imkonini tanlasang, uni tark etishing kerak bo'lgan dam ham keladi.

Men hali ham hech nimaga qaror qilolmayapman. Lekin otamning fikriga qo'shila boshlayapman. Balki, bunday taklifdan minnatdorona voz kechgan ma'qulroqdir? Men dunyoda yashaydigan ozgina vaqt abadiyatgacha va undan keyin bo'lgan davrga nisbatan judayam kichkina.

Agar nihoyatda shirin bir narsani tatib ko'rish mumkinligini bilsam, agar o'sha taklif qilingan bo'lak bir milligrammdan ko'p bo'lmasa, hoynahoy, uni tatib ko'rishdan voz kechardim.

Otam menga meros qilib iztirobni, vaqt o'tib bu dunyoni tark etishimni anglash og'rig'ini qoldirdi. „Men bu dunyoda bo'lmaydigan kechalar haqida o'ylayapman“. Shu bilan birga otamdan hayot qanchalik go'zalligini ko'radigan ko'zlarni ham meros qilib olganman. Yozda tukli arilar hayotini jiddiy o'rganmoqchi edim. (Mening sekundomerim bor. Uning yordamida tukli arining uchish tezligini aniqlash mumkin. Yana tukli arini tortib ham ko'rish mumkin.) Afrika savannasiga safar qilishga ham yo'q demasdim. Bundan tashqari, osmonni kuzatishni va bizdan milliard yorug'lik yili uzoq bo'lgan koinotda mavjud hamma narsadan hayratga tushishni o'rgandim. Buni to'rt yoshimdayoq uddalaganman.

Ammo men ishni bundan boshlolmayman. Boshqa chekkasidan kirishga urinib ko'rishim lozim. Menimcha, o'zim tanlashim kerak.

Agar Apelsin qiz qissasi asosida film suratga olinganda va men orqa qatorlardan birida o'tirib, Yan Ulav va Apelsin qiz bir-birini uchratmaganda, hech qachon dunyoga kelmagan bo'lishim mumkinligini tushunganimda, hoynahoy, ular bir-birini ko'rmay o'tib ketmasligini aytib baqirgim kelardi. Tikan ustida o'tirgandek bo'lardim. Balki, Apelsin qizni Plaza de la Alianzada daniyalikning yonida ko'rib achchiq ko'zyosh to'kkan bo'larmidim! Verunika va Yan Ulav oshiq-ma'shuqqa aylangandan keyin esa ularning o'rtasida janjal boshlanishidan ham o'lgudek qo'rqardim. Nazarimda oddiy janjal ham fazoviy miqyos kasb etardi.

Dunyo! Men hech qachon unda vujudga kelmagan bo'lardim. Buyuk misteriya<sup>1</sup> ning guvohi bo'lmasdim.

Koinot! Hech qachon charaqlagan yulduzli osmonni ko'rmagan bo'lardim.

Quyosh! Tyonsbergdagi issiq qoyalarga hech qachon oyoq bosmasdim. Suvga sho'ng'ish zavqini hech qachon tuymagan bo'lardim.

Endi hammasini tushunaman. Kutilmaganda butun mavjudlikning izchilligi ayon bo'lmoqda. Faqat endi mavjud bo'lmaslik nimaligini chuqur his qilyapman. Ko'kragim yoqimsiz simillab og'riyapti. Ko'nglim ozyapti. Va jahlim chiqyapti.

Bir kun kelib g'oyib bo'lishim – bir yoki ikki haftaga emas, to'rt yilga yoki to'rt yuz yilga emas – bosh-

---

<sup>1</sup>*Misteriya* – o'rta asrlardagi diniy mavzularadagi drama.

qa hech qachon, toabad bo'lmashligim to'g'risidagi o'y qonimni qaynatyapti.

O'zimni ko'zbo'yamachilik va yolg'on qurbonidek sezyapman, avval kimdir kelib: „Marhamat, mana butun dunyo ixtiyoringda. Bu yerda sening o'yinchoqlaring, temiryo'ling, kuzda boradigan maktabing bor“, deydi. Zum o'tmay kulgi eshitiladi: „Ha-ha-ha! Seni rosa laqilatdik!“ Shunda dunyoni qo'lingdan tortib olishadi.

Xuddi hamma menga xiyonat qilgandek. Ushlab qoladigan hech nimam yo'q. Najot yo'q.

Men faqat dunyonigina emas, hamma narsani va yaxshi ko'rganlarimning hammasini yo'qotmayapman. Men o'z-o'zimni yo'qotyapman.

Bir-ikki-uch, men yo'qman!

Jahling chiqmay bo'ladimi! G'azabdan istagan daqiqada qayt qilib yuborishim mumkin. Axir men iblisning ko'zlariga qaradim. Ammo oxirgi so'zni u aytishiga yo'l qo'ymayman. U meni egallab olishidan avval Yovuzlikdan yuz o'giraman. Men hayotni tanlayman. Menga atalgan yaxshilik zarrasini tanlayman va Ezgulikning O'zi deb atash mumkin bo'lgan narsaning mavjudligiga ishonishni istayman. Kim bilsin, Osmon gumbazi ustida Xudo bordir?

Yovuzlik mavjudligini bilaman, chunki „Oy sonatasi“ning uchinchi qismini eshitganman. Ammo Ezgulik ham mavjudligini bilaman. Bu ikki jar orasida chiroyli gullar o'sishini va guldan hademay quvnoq tukli ari uchib chiqishini bilaman.

Ha! Mana otamning savoliga javob berdim. Yaxshiyamki, bu masalada quvnoq allegretto ham bor. Bu ikki fojia orasida qo'g'irchoq spektakli o'ynaladi, uning tomoshasini o'tkazib yuborishni xohlamasdim. Men ga-

nakni sonataning ikkinchi qismiga tikaman! Hayot ish-qi deb ataladigan bir narsa bor, o'sha ikki jordan esa shunchaki o'tib ketaman. Ular yo'q, ular mavjud emas, ular men uchun emas. Yagona mavjud narsa, bu dadil allegretto.

Tan olishim kerak, bu shunchaki fikrlar emas. Ferens List bir paytlar „Oy sonatasi“ning ikkinchi qismini „Ikki jar o'rtasidagi gul“ deb atagan. Birdan bu og'ir masalani List va o'zimning farosatim bilan yechganimni tushunib qolaman.

Yana bir necha milliard yil orqaga qaytishga urinib ko'raman. Axir, men aynan o'shanda yuz millionlab yildan so'ng yerda yashashni xohlash-xohlamasligimni yoki o'yin qoidalari menga yoqmagani uchun mavjud bo'lmaslikni tanlashni hal qilishim kerak edi. Ammo endi hech bo'lmasa ota-onam kim bo'lishini bilaman. Endi bu voqea qanday boshlanganini bilaman. Kimni sevishimni bilaman.

Mening javobim bor. Tantanali tanlov qilaman. Yozyapman:

*„Qadrli dada! Xatingiz uchun rahmat! U nihoyatda kutilmaganda keldi va meni ham quvontirdi, ham qo'rqitib yubordi. Ammo hozir, nihoyat, murakkab tanlovni qildim. Qanchalik oniy bo'lishidan qat'i nazar, men qat'iyan yerdagi hayotni tanlagan bo'lardim. Shuning uchun hamma tashvishlaringizni unuting. Odamlar aytganidek, ruhingiz tinch bo'lsin. Apelsin qizni qidirganingiz va topganingiz uchun rahmat sizga!*

*Oyim oshxonada kechki ovqatni pishiryapti. U kechki ovqatga fransuzcha qandaydir taom bo'lishini aytdi. Yorgen „shanbada biroz yugurish“ dan so'ng hademay*

qaytadi, Miriam esa uxlayapti. Bugun 17-noyabr, Rojdestvoga besh hafta qoldi.

Menga Xabbl teleskopi haqida bir necha qiziqarli savol berdingiz, buni qarangki, yaqindagina xuddi shu teleskop haqida insho yozgan edim!!!

Hozir sizga katta bir sirni ochaman: Rojdestvoga menga nima sovg'a qilishlarini biladiganga o'xshayman! Yorgen menga shama qildi, har qalay, gazetada bir nechta qiziqarli suratlarni ko'rsatdi, xullas, menga teleskop sovg'a qilishadi deb o'ylayapman! Ishonish qiyin, lekin Yorgen inshomni ikki marta o'qib chiqdi, garchi haqiqiy otam bo'lmasa ham. U men bilan faxrlanishini aytdi. Menimcha, u Miriamdan ham menga ko'proq g'amxo'rlik qiladi, har qalay, kam emas, to'g'risi, bundan ortig'ini undan talab qilib bo'lmaydi. Men uni xuddi o'z otamdek hurmat qilaman.

Agar menga Rojdestvoga teleskop sovg'a qilishsa, uni o'zim bilan Fellstyolenga olib ketaman, chunki bu yerda, pastda astronomlar „optik ifloslanish“ deb ataydigan narsa ko'p. Men unga qanday nom berishni ham o'ylab qo'ydim. Uni Yan Ulav deb nomlayman! Albatta, Yorgen biroz ajablanadi, lekin do'st bo'lib qolishimizni xohlasa, bunga ko'nishiga to'g'ri keladi.

Fellstyolenda oy chiqishidan oldin yulduzlar shunchalik ko'p bo'ladi, beixtiyor o'zingdan kosmik teleskopning nima keragi bor deb so'raysan. Ha-ha, men sizga tuyulishi mumkin bo'lganchalik nodon emasman. Yulduzlar koinotda miltillamasligini bilaman! Ammo, ba'zan, hovuz tagida bir necha soniya tepaga, osmonga qarab yotish qiziq bo'ladi. Bir nimani ko'rish va, albatta, suv tagida nima bo'layotganini bilish mumkin. Har qalay, oy kraterlarini, Yupiter yo'ldoshlarini va Saturn



halqalarini ko'rish mumkin. Shunday ekan, bir kun kelib hayotda koinotga haqiqiy parvoz qilishim haqida o'ylab ko'rish kerak!

Xyumleveyenda mudofaada turgan va otasi sinovdan chiroyli o'tganini bilgan o'g'lingiz Georgdan samimiy ta'zim.

R.S. Xatingizni o'qib chiqqach, skripkachi qiz bilan tez kunda gaplasha olishimni his qilyapman. Balki, dushanbadayoq gaplasharman. Unga aytib beradigan juda ko'p qiziqarli gaplarim bor. Balki, u menga skripkasini ko'rsatar.

Oyimni chaqirdim. U keldi. Shu gapni terayotganimda, unga otamning xatini berdim. Bolalikdagi avtomobilning jildi orqasiga yashirib qo'yilganini.

„Endi uning xatini o'qib chiqishingiz mumkin“, — dedim.

Men otam bilan birga yozgan xatni esa boshqa safar o'qiydi. Endi Rojdestvodan keyin. Faqat menga chindan ham teleskop sovg'a qilishsa, chunki men Yan Ulav teleskopini bu hikoyaga kiritib bo'ldim.

Oyimning skripkachi qiz haqida xabar topishidan biroz qo'rqaman. Lekin salgina...

Oyim otamning xatini olib, mehmonxonadagi eski sariq divanga joylashib o'tirdi. U Yorgen yugurishdan qaytguncha ozgina o'qimoqchiligini aytdi. Men shu yaqin atrofda bo'lishga va'da berdim, chindan ham ochiq eshikdan uning qorasini ko'ryapman. Ba'zida esa uning, piqillayotganini eshityapman. Men buni u Yan Ulavni unutmaganidan deb qabul qilyapman.

Ammo men yozishda davom etyapman. Menda bu kitobni o'qiyotganlar uchun ham bir nechta R.S. bor. Shunchaki kichkina ishora.

Onangiz yoki otangizdan qanday tanishishganini so‘rang. Sizga qiziq voqeani aytib berishlari ehtimoldan xoli emas. Ulardan alohida-alohida so‘rashingiz mumkin, aytib bergan voqealari bir-biriga mos kelishi shart emas.

Ota-onangizning siz uchun noodatiy tomonlari ochilsa, ajablanmang, menimcha, bu tabiiy. Biz gapiradigan eretaklar hech qachon mutlaqo bir xil bo‘lmaydi, biroq men bunday voqealarning hammasi u yoki bu darajada nozik, gapirish qiyin bo‘lgan qoidalarga egaligini tushuna boshladim. Balki, bu qoidalarga juda yaqin borish kerak emasdir. Ularni har doim ham so‘z bilan ifodalash oson emas, bu „yupqa mato“ deb ataladigan narsa.

Bunday voqealarda tafsilotlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik ta’sirchan bo‘ladi, menimcha, agar undagi birgina arzimagan narsa aslidagidan farq qilganda, siz tug‘ilmasligingiz ham mumkin edi! Garov bog‘layman-ki, ko‘plab mayda narsalar voqealar rivojini shunchalik o‘zgartirib yuborishi mumkin ediki, sizda dunyoga kelishga zarracha ham imkon qolmagan bo‘lardi.

Yoki otamning aqlli gapini qarz olib turadigan bo‘lsam: hayot bu – faqat yutuqlar ayon bo‘ladigan ulkan lotereya.

Va siz, bu kitobni o‘qiyotgan inson, yutuqsiz. Lucky you!“

## QISMAT

Tun yarimlab borayotgandi. Tog'lik yigit Ber Enason keksa shifokorning uyi oldida g'amga botib turardi. Sovuq qish osmonida yulduzlar ham titrayotgandek go'yo. Ayoq chorqirra derazalarni ham billur naqshlar bilan bezagan. Olisdan olis yo'lni bosib kelgan yigit sovqotganini nihoyat, endi angladi.

Shinam xonadon uni issiq bag'riga oldi. Quruq qoraqarag'ay o'tinlari alanga olib, oftobday isitar, qizigan pechka esa afsonaviy farishta kabi nay chalayotganga o'xshardi. Biroq bu farishta ayni pallada hech qanday yaxshilikni va'da qilmasdi.

Uy haminqadar jihozlangandi. Devorga ilingan bir juft qilich ostidagi kartinada, yozuv stoli ustida lipilayotgan sham Nurlari jilva qilardi. Bu qilichlar bir paytlar portretidagi Siymoga tegishli bo'lgan. Aytishlaricha, bu bahodir o'z davrida ko'plab mamlakatlarning qiz-juvonlarini ishq o'tida kuydirgan. Bemorlar halovatini buzmagani kezlarda doktor qilichlarga tikilib xayol surishni xush ko'rardi.

Ber Enason o'tirgani botinmadi, faqat bu tortinchoq bo'lgani uchun emas. Bug'ularning shoxlaridan ko'z uzmay po'stak to'shalgan yalang chanada uzoq yo'l bosib kelgan yigitchaga bejirim g'iloffi uch oyoqli stulga o'tirish noqulay tuyuldi. Keksas doktor buni payqa-

madi, u o'z ishiga shu qadar berilgandiki, yigitga iltifot ko'rsatish xayoliga ham kelmasdi.

Ber imkon boricha tez qaytib ketishi kerak: Sutoxaugen yaqinidagi olis kulbada sevgan ma'shuqasi Kletta og'ir xasta bo'lib yotibdi. Klettani tirik ko'rish nasib etarmikan, degan shubha uning bag'rini o'rtardi. Ko'z-yoshlarini arang tutib turardi: Klettaning visoli nasib etadigan munavvar ayyom nahotki toabad armon bo'lib qolsa?! Bu nurli ayyomga ularning ikkovi ham juda-juda intiq edi. Alamdan o'kirib yubormasa bas. Chuqur-chuqur nafas olsa... Shimolda, tog'lar yonbag'rida nima uchundir hamisha shunday bo'lar, qishda kimdir vafot etardi. Bu muqarrar qismat tusini olgandi. Biron kimsaning kuni bitgani hamono cherkov qo'ng'iroqlarining sadolari samoga tutash tog'larni ham larzaga solardi. Bu gal, aftidan, ma'shuqasi Klettaning kuni bitadigan ko'rinadi.

Doktor bemor uchun dori tayyorlay boshladi. U juda qo'li yengil shifokor edi. Hech kimdan yordamini ayamas, shu bois butun o'lka ahlining mehrini qozongan yagona odam edi. Ko'plab odamlarning hayotini saqlab qolgan, keksaligiga qaramay hamon yordamga oshiqar, bemorlarni sidqidildan parvarish qilardi. Katta-yu kichikni tug'ishganiday ko'rardi. Aholi ham mehribonchiligini munosib qadrlar, uning portretini istalgan paytda afsonaviy qahramon portreti yoniga ilishga tayyor edilar. Doktor, eng muhimi, kasb-u kori orqasidan mo'may daromad qilishni sira o'ylamasdi.

– Bemor xotiningmi, Ber Enason? – so'radi doktor.

Savol yigitning bag'rini o'rtab yubordi. Ber boshini quyi soldi.

– Shunday desa ham bo‘ladi, – entikib dedi u.

Doktor o‘ta o‘tkir hidli suyuq malhamni tomchilatib shisha idishchaga quyardi. Asta tomayotgan tomchilarni erinmasdan birma-bir sanardi. Nihoyat, doktor shisha idishning og‘zini yopdi. Malham tez yordam berishi uchun uni bemorga qanday ichirish kerakligini yigitga batafsil tushuntirdi.

– Umid qilamanki, ma’shuqang tuzalib ketadi, – deb qo‘shimcha qildi.

– Rahmat!

Ber shisha idishni tez cho‘ntagiga joyladi. So‘ng charm hamyonini olib, stolning ustiga bitta kumush tanga qo‘ydi.

– Tezroq yo‘lga tush! – dedi doktor va unga tangani qayta uzatdi.

– Roziman, olavering, – dedi Ber.

U qirov qoplagan eshik kesakisiga qo‘li bilan suyانب turardi.

– Qaytarib ol deya pman senga! Nikoh to‘yini o‘tkazishning o‘zi bo‘lmaydi! – dedi doktor mehr bilan.

Ber hamon eshikka suyangan cha turardi.

– Zora shu dori bilan tuzalib ketsa, – u shunday deb doktorga savolomuz tikildi.

Uyda osoyishtalik hukm surardi. Derazalarda oy nurlari shu‘lalanar, tashqaridagi sovuq ichkariga ham asta-sekin kirib kelayotgandek edi.

Do‘xtirni xayol olib qochdi. Ayni shunday qish tuni oqimtir sarg‘ish ulovdagi chavandozni xotinidan toabad judo qilganini esladi. Ha, ayni shunday kechada...

– Har daqiqa g‘animat, bora qol, o‘g‘lim! – deya yigitga samimiy oq yo‘l tiladi ko‘zoynakli kek sa do‘xtir.

Va Ber tun qo‘ynida arvo h kabi g‘oyib bo‘ldi.

\* \* \*

U tog'li voha bo'ylab chanada yelib borardi. Oyning sovuq shu'lalarida qor kumushday tovlanadi. Yassi darani ayoz kishanlab olgandek. Kletta xastalanib yotgan kulba ayni daraning poyonida, Sutoxaugenning ortida bo'lib, Ber Enason yonidagi malham bilan o'sha tomon oshiqardi. Klettaning o'pkasi shamollagandi. Yetti kundan buyon xastalik bilan olishardi. Xastalik kuchaygan yettinchi kecha.

Yigit avvaliga shamolday uchdi, keyin bug'u holdan toya boshladi. Chana bechora jonivorga ancha og'irlik qilardi...

– Klettani nahotki unutgan bo'lsang? – Ber yana bug'uning bo'yniga chang soldi.

Oftob esa cho'qqilar oralig'idan qilichday joy olib ulgurgandi...

Shunda Ber Enason keskin tizzalab joylashdi, ko'z ochib yumguncha ham fursat o'tmay bug'uning baxmalday yungiga pichoq sanchildi. Yaralangan jonivor uzundan uzun hirillagancha o'rnidan turishga urinib tipirchiladi. Biroq jarohatdan qon otilar – ortiq hech majoli qolmagandi. Faqat jon taslim qilishgina qolgandi.

Ber qaddini rostladi. U jarohatga yopishgancha issiq bug'u qonini simira boshladi. Oyoq-qo'li bir nafasda kuch-quvvat bilan to'ldi. Jonivordan nari ketib, tog'larga burgutday tikildi... Bu paytga kelib quyosh o'z manziliga, Sutoxaugen ortiga ham nur socha boshlagandi... U yana jonivorning jarohatiga yopishdi, issiq qonni to'yib-to'yib simirdi. Daf'atan bug'uning so'nggi marta titraganini sezdi. Jonivor o'lgandi...

Ber timdalangan yuzi dokaday oqargan alfozda archa butalari bilan qoplangan o'nqir-cho'nqirlar bo'ylab yugurib borardi.

Nafasi bo'g'ziga tiqilib qolsa ham yugurishdan to'xtamadi. Sutoxaugen hali juda ham olisda! Nazarida tog'lar har qachongidan ham g'amgin ko'rindi. Qora terga botdi. Biroq hamon chopgani chopgan... U shu tog'larda voyaga yetgandi, lekin ularni birinchi marta ko'rayotgandek edi.

Kun oxirladi. Quyosh ufqqa indi. Ber holdan toyib tiz cho'kkancha jilg'adan tashnaligini qondirdi. Botib borayotgan oftob nurlari suv mavjlarida jilvalandi.

Ber Enason boshini ko'targanida, dastlabki yulduzga ko'zi tushdi.

Daf'atan qulog'i shuvulladi, oyoqlari chalishib ketdi:  
– Tamom!

U cherkov qo'ng'irog'ining ovozini eshitgandi. Qo'ng'iroq sadosi olis-olislardan kelardi. Bu zavol sadosi edi. Kimdir vafot etgandagina shu asno qo'ng'iroq chalinardi. Shom ichra alamli sadolar dara bo'ylab quzg'unday kezar, Ber Enason esa tayoqqa suyangancha tosh qotib tinglardi.

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
Apelsin qiz ( <i>Qissa</i> ).	
<i>Komila Nosirova tarjimasi</i> . .....	5
Qismat ( <i>Hikoya</i> )	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi</i> .....	154



*Adabiy-badiiy nashr*

GORDER YOSTEYN

## **APELSIN QIZ**

*Qissa va hikoya*

Tarjimonlar:

**K. NOSIROVA, D. ARZIKULOVA**

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
06.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108<sup>1/32</sup>.  
Ofset qog‘oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 74–20.  
Buyurtma raqami 336-20.

„Ziyo nashr“  
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

YOSTEYN GORDER

# APELSIN QIZ

*Taniqli norveg adibi, publitsist Yosteyn Gorder 1952-yilda tugʻilgan. U „Tashxis yoki boshqa novellalar“ (1986), „Sirli fol“ (1990), „Sofiya olami“ (1991), „Jumboq koʻzgusi“ (1993), „Qisqa umr“ (1996), „Sirkchining qizi“ (2001), „Apelsin qiz“ (2003) kabi asarlar muallifi.*

*Yozuvchining „Sofiya olami“ romani dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Xususan, Germaniyada 3 milliondan ortiq nusxada chop etilgan. Asarlarining umumiy adadi oʻttiz millionga yaqin.*



ZIYO NASHR



t.me/ziyonashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6339-9-5



9 789943 633995